ISSN: 2181-3035



Buxoro shahridagi Sitorai Mohi Xossa yodgorligi

TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 16

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

Google Scholar | Cyberleninka | Zenodo | Advanced sciences index | Open AIRE

30.12.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

Aniq fanlar	Texnika fanlari	Pedagogika fanlari	Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tabiiy fanlar	Iqtisod fanlari	Arxitektura	San'at va madaniyat fanlari
Tibbiyot fanlari	Filologiya fanlari	Qishloq xo'jaligi	Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

16-son
30.12.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Muydinov Erkin Djamaldinovich
Toshkent Moliya Instituti Andijon fakulteti dekani Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti “Milliy g'oya, ma‘naviyat va huquq asoslari” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o’g’li
Farg’ona politexnika institutining “Intellektual muhandiislik tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ФРАНЦУЗ ШАРҚШУНОСИ Э. ШАВАНН ТАДҚИҚОТЛАРИДА ТУРКЛАР ТАРИХИГА ОИД АЙРИМ МАЪЛУМОТЛАР

Жаҳонгир Остонов
ЎзР ФА Шарқшунослик институти таянч докторанти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498296

Аннотация: Ушбу мақолада атоқли француз шарқшуноси ва хитойшуноси Эдвард Шаваннинг ғарбий турклар, хусусан, Турк хоқонлиги тарихига бағишланган "Хитой манбаларига кўра Ғарбий турклар" деб номланган китобидаги туркларга доир айрим маълумотлар таҳлил қилинади. Унда асосий урғу Марказий Осиёдаги сиёсий жараёнлар, хусусан, Эфталийлар давлатининг қулаши билан боғлиқ маълумотлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Шаванн, турклар, Турк хоқонлиги, эфталийлар, Истеми, Марказий Осиё.

Ғарбий Турк хоқонлиги, умуман эфталийлар ва турклар тарихи бўйича классик тадқиқот дея баҳоланадиган француз тилидаги илмий ишларнинг энг эътиборга сазовори, шубҳасиз, француз хитойшуноси Э.Шаванннинг “Хитой манбаларига кўра Ғарбий турклар/ Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – 378 р.) асаридир[1]. Асарнинг эътиборга молик жиҳати шундаки, у илк маротаба хитой манбаларидан илк ўрта асрлардаги турклар тарихига оид маълумотлар жамланган ва таҳлил қилинган йирик тадқиқотдир. Ушбу тадқиқот бугунги кунда илк ўрта асрлар тарихи билан ишлайдиган туркшунос-тарихчининг бирламчи манбадан таржима қилинган асосий тадқиқотига айланган. Қуйида ундаги айрим маълумотлар хусусида тўхталиб ўтамиз.

Ушбу китобда Ғарбий Турк хоқони Истеми ҳақида хитой йилномаларидан қуйидаги маълумот таржима қилинган: “Истеми бир замонлар шанюй(ундан юқори поғонада турган ҳукмдор – ҳоқон назарда тутиляпти)га ҳамроҳлик қилар экан, ўнта йирик қўмондонни бошқарарди. Юз мингта аскари бор эди. Ғарбий ўлкаларнинг турли ҳукмдорликларини ўзига бўйсундиришга муваффақ бўлди. Хоқон бўлди ва давлатига “Ўн ўқ/Ўн қабила” номини берди. Наслдан-наслга авлодлари ушбу халқни бошқарди”[2] шаклида келтирилган. Тарих фанлари доктори Ғ.Б.Бобоёров “Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми” монографиясида Ғарбий ўлкаларни хоқонликка итоат эттириш учун ҳарбий

[1] Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – 378 р.
[2] Chavannes E. Çin Kaynaklarınagöre ... – S. 69.

ҳаракатлар олиб борган Ғарбий Турк хоқонлигининг асосчиси Истемининг сиёсий-ҳарбий фаолиятининг асосий қисми асосан унинг Муқан хоқон билан иттифоқчилик қилган даврига тўғри келишини таъкидлайди[3]. Тадқиқотчи Истемига Муқан хоқон томонидан ғарбдаги мамлакатларни бўйсундиришга масъулияти юклатилган бўлиши мумкинлигини алоҳида таъкидлаган[4]. Ушбу туркларнинг дастлабки сиёсий йўлбошчиларидан бўлган ҳукмдорнинг исми турли манбаларда турлича учрайди: хитой йилномаларида Ши-дян-ми, византия тарихчиларининг асарларида Силзибул, Стемвис ёки Дизавул, араб манбалари (Табарий ва бошқалар)да Синжибу деб аталган[5].

Э.Шаванн ушбу китобида эфталийларнинг Марказий Осиёда ҳукмронлигига турклар ва сосонийлар томонидан барҳам берилиши 563 ва 567 йиллар оралиғида юз берганлиги масаласига ҳам эътибор қаратган[6]. Тадқиқотчи А. Литвинский эса ушбу воқеалар 560-563 йилларда[7], Г.Моравчик эса 560-йиллар атрофида[8], А.Г. Мандельштам эса бироз кечроқ 563 йилларда[9], А.Уинк эса 563-568 йилларда Сирдарё бўйларида юз берганини таъкидлайди[10]. Менандрнинг таъкидлашича, бу воқеа 568 йилларда бўлиб ўтган, хитой манбалари эса уни бирмунча эртароқ сана 558 йил билан боғлайди[11]. Византия манбаларида эса 568 йилда Византияга борган хоқонлик элчиларининг эфталийларнинг батамом тор-мор этилгани ва унинг қўл остидаги ҳудудлар уларнинг (туркларнинг) қарамоғига ўтганини таъкидлагани айтилган[12]. Э. Шаванн эса бу воқеани Менандрнинг келтирган икки матн билан таққослаб ўрганиш кераклигини айтади. Биринчисига кўра хоқон 562 йилда эфталийларга қарши бошлаган жангни тугатгандан кейин аварларга бостириб кирмоқчи эканлигини таъкидланса; иккинчисига кўра эса хоқон Дизабулнинг элчилари эфталийларнинг батамом тор-мор келтирилганини хабар берган. Шунинг учун ушбу тадқиқотчи турклар томонидан эфталийларга барҳам берилиши 563 ва 567 йиллар орасида юз берган, деган хулосага келган[13].

Турклар томонидан жужанларга зарба берилиб, тарих майдонидан суриб чиқарилиши ҳақида Э.Шаванн ўз китобида тўхталиб ўтган. Унга кўра, 546 йилдан бироз олдинроқ тўласларнинг жужанларни тор-мор келтириш режасини

[3] Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми... – Б. 48-49.
[4] Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми – Б. 194.
[5] Chavannes E. Çin Kaynaklarınagöre... – S. 69.
[6] Chavannes E. Çin Kaynaklarınagöre... – S. 289.
[7] Litvinsky A. The Hephtalite Empire... – P. 143.
[8] Гафуров Б.Г. Таджики… Книга первая. – С. 277.
[9] Гафуров Б.Г. Таджики… Книга первая. – С. 217.
[10] Wink A. Al-Hind... – P. 110.
[11] Пигулевская Н. Сирийские источники по истории… – С. 75.
[12] Комар А. Наследие тюркских каганатов в Восточной Европе // Мәдени мұра Культурное наследие. № 1. – Астана. 2009. – С. 100101.
[13] Chavannes E. Çin Kaynaklarına göre... – S. 289.

ишлаб чиққан эди. Бу даврда турклар жужанларга темир қазиб берар эдилар ва улар бу қулай фурсатдан фойдаланиб жужанларга қарамликдан қутилишга пайт пойлаётган эдилар. Турклар йўлбошловчиси Туман тўласлар устига бостириб кириб, уларни енгади. Ушбу зафардан ғурурланган Туман 546 йилда унинг бу ҳизматининг муносиб баҳоланиши учун жужанлардан бўлган маликага уйланиш таклифини билдиради. Ғазабланган жужанлар ҳукмдори А-на-куй “Сен бизнинг темир қазиб берувчи бир қулимиз бўлсанг-у, бундай сўзларни гапиришга қандай журъат қилдинг” деб такаббурона жавоб қайтаради. Бундан хафа бўлган Туман тунгузлар йўлбошчиси билан яқинлашади ва 551 йилда Ғарбий Вэй хонадонидан бўлган бир маликага уйланади. Шундан сўнг, у жужанларнинг қўпол муомаласидан ғазабланиб, тезда улардан ўч олишга киришади. Қисқа муддат ичида жужанлар устидан ғалаба қозонади, уларнинг ҳукмдори А-на-куй эса мағлубиятга дош беролмай ўз жонига қасд қилади. Бу воқеалар 552 йилнинг қишида бўлиб ўтган эди[14].

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ушбу мулоҳазалар Э.Шаваннинг мазкур китоби ҳақидаги фикрларнинг бир қисми холос. Умуман олганда, мазкур китоб фақат Хитой манбалари асосида ёзилгани ва фақатгина таржима эканлигини инобатга олсак, мазкур тадқиқотни бошқа тиллардаги манбалар ва тарихчиларнинг ишлари орқали батафсил таҳлил қили ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади. Шу билан бирга, Э.Шаванн турклар тарихини ўрганишга қўшган улкан ҳиссаси сабаб асарлари чуқурроқ тадқиқ қилиниши керак бўлган атоқли муаллифлардан саналади. Мазкур кичик тадқиқот эса денгиздан бир томчи холос.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции. Вып. 6. – СПб., 1903. – 378 p.
2. Chavannes E. Çin Kaynaklarına Göre Batı Türkleri // Türkiye, 2011. S 495
3. Litvinsky A. The Hephtalite Empire // UNESCO 1996. Pp 138-154
4. Wink, A. -Al Hind. The Making of the Indo-Islamic World // Wisconsin, 1991. P 404
5. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми // Тошкент, 2018. 356 б
6. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Книга первая // Душанбе, 1989. С 371
7. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. Тошкент, 2007. Б 162

[14] Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Б. 33. Шундай қилиб, турклар минтақанинг танҳо ҳукмдорига айланиб олган эдилар.

8. Комар А. Наследие тюркских каганатов в Восточной Европе // Мәдени мұра Культурное наследие. № 1. –Астана. 2009. – С. 100101.

9. Пигулевская Н.В. Сирийские источники по истории народов СССР. Ответственный редактор В.В.Струве. М.-Л.: Издательство Академии наук СССР. 1941. 172 с.

ENERGETIKA TIZIMI VA ATROF-MUHIT EKOLOGIYASI MUAMMOLARI

G.Y.Gadoyeva
NavDPI Kimyo ta`limy o`nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: prof. **D.A.Karimova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498304

Mamlakatlar iqtisodiyotida asosiy va tayanch tarmoqlardan biri elektroenergetikadir. Fan-texnika rivojlangan davrda xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlarining elektrlashtirilishi va avtomatlashtirilishi elektroenergetika tamog‘iga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirdi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish manbalariga ko‘ra energetika sanoati uch turga bo‘linadi: issiqlik, gidro va atom energetika tarmoqlaridir. Mamlakatimiz energetika tizimining umumiy quvvati 11,3 million kilovatt bo‘lgan 37 ta issiqlik va gidravlik elektr stansiyalaridan iborat. O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ekektr energiyagining 85 foizini IES lar beradi. Aksariyat IES larda elektr energiya va issiqlik energiyasi (bug‘) ishlab chiqariladi. Bunday IES larni TES (IEM) issiqlik elektr markazlari deyiladi. Issiqlik energiyasini 20 kilometrdan uzoq masofaga uzatish qiyinligi uchun TES lar foydalanuvchilarga yaqin joylarda shaharlarda, yirik zavodlar yaqinida quriladi. Ularda elektr energiya ishlab chiqarish vaqtida isigan suvni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun yuboriladi. O‘zbekiston tog‘ daryolari gidroresurslarga boy bo‘lib, GES lar, gidrouzellar (suv taqsimlagich), ekektr energiya ishlab chiqarish, xo‘jaliklarni suv bilan ta’minlash, baliqchilikni rivojlantirish masalalarini kompleks hal qiladi.

Elektr quvvatidan xalq xo‘jaligi tarmoqlarida foydalanish balansida sanoat va qurilish yetakchi o‘rinni egallaydi. Ular butun energiyaning salkam 60 foizini iste’mol qiladi. Qishloq xo‘jaligida ishlatilayotgan elektr energiya 20 foizdan ortiq. Mamlakatimiz yagona energiya tizimiga ega bo‘lib, u Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham bog‘langan. Bu tizim tashqariga elektr energiyani eksport qilish imkonini beradi. Zarur hollarda elektr energiya olish ham mumkin bo‘ladi. Eng muhimi yangi energiya tizimida barcha turdagi elektr stansiyalar o‘zaro bog‘langan bo‘ladi, issiqlik va suv elektr stansiyalariningmavsum davomida ishlab turishi tartibga solib boriladi.

Elektr energiya hosil qilishda AES lar, shamol, to‘lqin, qalqish, geotermal, quyosh elektr stansiyalarining ham ahamiyati katta. Ammo bizning mamlakatimizda ularning ahamiyati uncha katta emas. Respublikamiz bitmas-tuganmas quyosh energiyasiga boy. Undan foydalanishda yirik ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shulardan eng yirigi Parkent tumanida joylashgan Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan “Fizika-Quyosh” inshootidir.

Atom energetikasi borasida ham Toshkent shahri yaqinidagi Ulug‘bek shaharchasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo, O‘zbekistonda yaqin kelajakda AES lardan foydalanish rejalashtirilmagan. O‘zbekistonda geotermal (yerning ichki issiqligi) va shamol energiyasidan ham foydalanish imkoniyatlari katta. Shamol yil bo‘yi ko‘p esadigan Yangiyer, Bekobod, Xovos tumanlarida shamol energiyasidan foydalanish mumkin va zarur.

Hozirgi kunda mamlakatimizning barcha elektr stansiyalarida 55 milliard kilovatt energiya ishlab chiqarilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan energiya manbalari qanchalik ko‘p bo‘lmasin, u qachonlardir tugashi mumkin. Dunyo miqyosidagi shartli issiqlik energiyasi manbalaridan foydalanish kishi boshiga bir yilda 2 tonnani tashkil etadi.

Aholining ko‘payib borishi yillar o‘tishi bilan energiya inqirozini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun yangi turdagi ekologik toza energiya manbalarini topish kerak. Respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti Quyosh energiyasidan qayta foydalanishga imkon beradi. Bunday energiya turlarini tugamaydigan va abadiy deb hisoblash mumkin. Quyosh nuridan energiya olish uchun mo‘ljallangan stansiyalar O‘zbekiston, Turkmaniston, Qrim, Qozog‘iston Respublikalarida yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Mazkur soha olimlarining ma’lumotlariga qaraganda, Markaziy Osiyo hududida Quyosh nurining 70+70 kilometr kvadrat maydondan olingan energiya quvvati, 600 million tonna heft energiyasi quvvati bilan barobar ekan.

Xuddi shunday kilometr kvadratdan Qoraqum cho‘lida 60 dan ziyod uskuna qurish mumkin. Quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha chet mamlakatlarda ham qator tadbirlar ishlab chiqilgan, jumladan Yaponiyada “Quyosh yog‘dusi” nomli milliy dastur joriy qilingan. Uning maqsadi o‘zida manbai yo‘q bo‘lgan neft, gaz va ko‘mirdan foydalanishni minimumga keltirib, o‘rniga Quyosh energiyasidan foydalanishdir.

Yaponiyada yana vodoroddan energiya olish ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Agar elektr energiyasidan suvni parchalash uchun foydalanib, hosil bo‘ladigan vodorodni esa quvurlar orqali iste’molchiga yetkazib berilsa, energetik xarajatlarni kamaytirish mumkin. Vodorod ekologik sof ideal yoqilg‘i va kimyoviy reagent hisoblanadi. Vodorodning issiqlik hosil qilish xususiyati toshko‘mirnikidan 4 baravar yuqori.Vodorod energatikasining muhim tomoni vodorod hosil qilishda yadro reaktorlaridan foydalanish imkoniyatining borligidir. Quyosh elektrostansiyalari yordamida barcha xildagi turar joy va jamoat binolarini elektr bilan ta’minlash mumkin.

Bunday inshootlar chet el mamlakatlarida va Markaziy Osiyo shaharlarida foydalanish uni katta afzallikka ega ekanligini amada isbotladi. Shaharlardagi yirik jamoat binolari tomida agar geliouskunalar o‘rnatilsa, shu binolarga sarf bo‘layotgan

qancha-qancha energiya tejalishi mumkin. Yana bir tabiiy tuganmas energiya manbai bu shamol, Respublikamizdagi iqlim sharoit bunga imkon berishini yuqorida ham aytib o‘tdik, endi amalda foydalanish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримова Д.А. Особенности проверки знаний экологии. Международной научно-практической конференции «Традиции инновации в профессиональной подготовке и деятельности педагога», 26-27 марта 2020 г. Тверь: Твер. гос. ун-т.

2. Каримова Д.А. Экологик кимё дарслик. Ўзбекистон республикаси Олий ва ўрта махсус таълм вазирлигининг 2019 йил 2-майдаги 394 сон буйруғи.

3. Karimova D.A., To‘xtayev F.S. Sanoat ekologiyasi. T.2017 y. o`quv qo`llanma.

INTERFAOL METODLAR SAMARADORLIGI

Madiyarova Shohista Sabirjanovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi
Kuljonov Rasulbek Xudoyorovich
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
fizika fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498312

Annotatsiya: Mazkur maqolada interfaol metodlar samaradorligi omillari, shu jumladan, Blum taksonomiyasi, interfaol ta’lim texnologiyasi, interfaol metodlardan foydalanishda tashkiliy-pedagogik omillar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: interfaol ta’lim, Blum taksonomiyasi, tashkiliy-pedagogik omillar, bilish, tushunish, umumlashtirish, qo‘llash, tahlil qilish.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi. Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo‘ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan, **bilish**-dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda o‘quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. **Tushunish** darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, o‘quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. **Qo‘llash** darajasidagi tafakkurda o‘quvchi olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noa’nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. **Tahlil** darajasidagi tafakkurda o‘quvchi yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini

baholaydi. **Umumlashtirish** darajasidagi tafakkurda o‘quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma’lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi.

Baholash darajasidagi tafakkurda o‘quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mavjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. bir necha asr muqaddam **A.Navoiy** o‘zining mashhur "Mahbub ul-qulub" asari muqaddimasida shunday yozgan edi: **"Umid ulkim, o‘qig‘uvchilar diqqat va e’tibor ko‘zi bila nazar solg‘aylar va har qaysisi o‘z fahm-u idroklariga ko‘ra bahra olg‘aylar..."**. Bunda shu asarni har kim turlicha, ya’ni o‘z fahm-u idroki darajasidagina tushunishi, o‘zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo‘llay bilishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bundan biz interfaol ta’lim usullarining an’anaviy usullardan asosiy farqlari to‘g‘risida yanada qisqa qilib, o‘quvchilarning fahm-u idroklarini o‘stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta’kidlash lozimki, interfaol ta’lim usullari O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri ta’lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o‘rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo‘llab kelingan. Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste’dod, zakovatlarini o‘stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo‘lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg‘ulotlarni olib borishda, asosan interfaol usullar qo‘llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma’lum darajada interfaol texnologiyaga o‘sib o‘tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o‘zaro farqini shunday ta’riflash mumkin.

Interfaol ta’lim usuli – har bir o‘qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o‘z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi - har bir o‘qituvchi barcha o‘quvchilar ko‘zda tutilgandek o‘zlashtiradigan mashg‘ulot olib borishini ta’minlaydi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg‘ulotni oldindan ko‘zda tutilgan darajada o‘zlashtiradi.

Interfaol mashg‘ulotlarni amalda qo‘llash bo‘yicha ayrim tajribalarni o‘rganish asosida bu mashg‘ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi ayrim omillarni ko‘rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o‘qituvchiga, o‘quvchilarga, ta’lim vositalariga bog‘liq omillar deb

atash mumkin. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o‘qituvchilardan interfaol mashg‘ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

-o‘qituvchilarga interfaol usullarni o‘rgatishni tashkil qilish;

-o‘quv xonasida interfaol mashg‘ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-ma’ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo‘lishini ta’minlash;

-sanitariya-gigiena me’yorlari buzilishining oldini olish;

-xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta’minlash;

-davomatni va intizomni saqlash;

- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.

Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko‘zda tutilgan maqsadga to‘liq erishishni ta’minlash uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol usullarni to‘g‘ri tanlash;

-interfaol mashg‘ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol mashg‘ulotning har bir elementi o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq bo‘lishini ta’minlash;

-mashg‘ulotlar mavzusi va mazmunini so‘nggi ilmiy-nazariy ma’lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo‘llash;

-o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

-interfaol mashg‘ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

O‘qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni sayoz bilishi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me’yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so‘zlar, atamalarning ma’nosini tushuntirmasdan qo‘llashi, shevaga xos so‘zlarni ko‘p qo‘llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo‘l qo‘yishi va tushunarsiz yozishi;

-o‘zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko‘rinishiga e’tiborsizligi;

-ta’lim vositalaridan unumli va to‘g‘ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o‘tishini his qilish, uni to‘g‘ri taqsimlash ko‘nikmasi yetishmasligi;

-tinglash ko‘nikmasi yetishmasligi;

-o‘quvchiga xayrixohlik, samimiylik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko‘nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog‘liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.

O‘quvchilarga tegishli omillar esa quyidagilar:

-davomat pastligi, mashg‘ulotga kechikib kelishi;

-zarur tayyorgarliksiz kelishi;

-ilmiy atamalarni bilmasligi;

-diqqatni jamlay olmasligi;

-eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko‘nikmasidagi kamchiliklar;

-qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;

-dars mavzusi bo‘yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;

-manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

-ta’lim vositalarining etishmasligi, ta’mirtalab yoki yaroqsiz holda bo‘lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-mashg‘ulot mavzusini o‘zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to‘g‘ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg‘ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo‘ymaslik;

-vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg‘ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg‘ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o‘quvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, o‘quvchilar orasida emostional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev J.F.,Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.Q‘ollanma.- T.:"O‘qituvchi", 2004.

2. "Ta'lim samaradorligini oshirish yollari" mavzusidagi seminar trening materiallari. - T.:2002.

3. Tolipov O.Q.,Usmonboyeva M.Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari(o‘quv qollanma).-T.:"Fan",2006.

4. Qurbonov Sh.,Seytxalilov Y.Ta'lim sifatini boshqarish.-T.:"Turon-Iqbol",2006.

5. .www. ziyonet.uz, 2.www.tdpu.uz, 3.www.google.ru

STYLISTIC FEATURES OF ORATORICAL STYLE

Джумабаева Barno Bahadirovna
II year master of Linguistics of KKSU
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498316

Annotation: The article deals with the stylistic features of the oratorical style which is the oral subdivision of the publicistic style. Different opinions of scientists on are problem are considered. Bright examples of speeches of well known persons are analyzed from stylistic point of view.

Изох: Maqolada publitsistik uslubning og'zaki bo‘limi bo‘lgan notiqlik uslubining stilistik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Muammo bo‘yicha olimlarning turli fikrlari urganilgan. Taniqli shaxslar nutqining yorqin namunalari stilistik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Аннотация: В статье рассматриваются стилистические особенности ораторского стиля, который является устным подразделением публицистического стиля. Рассмотрены различные мнения ученых по данной проблеме. Со стилистической точки зрения анализируются яркие примеры выступлений известных личностей.

In ancient Greece, the ability to speak eloquently was considered an art. However, the classification was mainly carried out only between crookedness, poetry and actor's creativity. Rhetoric was primarily interpreted as the science of word and poetry, prose and eloquence. The speaker is both a poet and a master of the word.

In antiquity, rhetoric was taught. Speakers are most resorted to exceptionally poetic techniques, with a view to strengthening the expressiveness of his speech. Today the speech genre define the depending on the communication sphere, corresponding to its own function: communication, communication and impact Russian judicial speaker Konni A.F. wrote about the skill of public appearances as a true creativity, including artistry and elements of poetry expressed in verbal form. A speaker is a person who must necessarily have a creative imagination. According to Konni, the difference between a poet and an orator is that they come to the same reality, starting from different points of view [1].

In the article we’ll try to analyze some stylistic features of oratorical style.

The oratorical style is the oral subdivision of the publicistic style. The most obvious purpose of oratory is persuasion, and it requires eloquence [2].This style is evident in speeches on political and social problems of the day, in orations and addresses on solemn occasions as public weddings, funerals and jubilees, in sermons and debates and also in the speeches of counsel and judges in courts of law.

The sphere of application of oratory is confined to appeal to an audience and therefore crucial issues in such spheres as science, art, or business relations are not touched upon.

Direct contact with the listeners permits the combination of the syntactical, lexical and phonetic peculiarities of both the written and spoken varieties of language. In its leading feature, however, the oratorical style belongs to the written variety of language, though it is modified by the oral form of the utterance and the use of gestures.

Like the colloquial style, oratory is usually characterized by emotional colouring and connotations, but there is a difference. The emotional colouring of the publicist style is lofty – it may be solemn, or ironic, but it cannot have the “lowered” connotations (jocular, rude, vulgar, or slangy) found in colloquial speech [3]. The vocabulary of speeches is usually elaborately chosen and remains mainly in the sphere of high-flown style. We’’ ll try to analyze next examples of speeches:

Four score and seven years ago our fathers brought forth on this continent, a new nation, conceived and so dedicated in Liberty, and dedicated to the proposition that all men are created equal. Now we are engaged in a great civil war, testing whether that nation, or any nation so conceived, can long endure. We are met on a great battle-field of that war. We have come to dedicate a portion of that field, as a final resting place for those who here gave their lives that that nation might live. It is altogether fitting and proper that we should do this (A. Lincoln, The Gettysburg Address).

The stylistic devices employed in the oratorical style are determined by the conditions of communication. If the desire of the speaker is to rouse the audience and to keep it in suspense, he will use various traditional stylistic devices. Stylistic devices are closely interwoven and mutually complementary thus building up an intricate pattern. For example, an antithesis is framed by parallel constructions, which, in their turn, are accompanied by repetition, while a climax can be formed by repetitions of different kinds.

But, in a larger sense**, we cannot dedicate – we cannot consecrate – we cannot hallow** this ground. The brave men, living and dead, who struggled here, have consecrated it, far above our poor power to add or detract. The world will little note, nor long remember what we say here, but it can never forget what they did here. **It is for us the living, rather, to be dedicated** here to the unfinished work which they who fought here have thus far so nobly advanced. **It is rather for us to be dedicated** to the great task remaining before us – that from these honoured dead we take increased devotion to that cause for which they gave the last full measure of devotion – that we here highly resolve that these dead **shall not have died in vain** – that this nation, under God**, shall have a new birth of freedom** – and that the government of

the people, by the people, for the people, **shall not perish** from the earth [A. Lincoln].

As the audience rely only on memory, the speaker often resorts to repetition to enable his listeners to follow him and retain the main points of the speech. Repetition is also resorted to in order to persuade the audience, to add weight to the speaker’s opinion. The following extract from the speech of the American Confederate general, A.P. Hill, on the ending of the Civil War in the U.S.A. is an example of anaphoric repetition:

It is high time this people had recovered from the passions of war**. It is high time** that counsel were taken from statesmen, not demagogues… **It is high time** the people of the North and South understood each other and adopted means to inspire confidence in each other.

A mere repetition of the same idea and in the same linguistic form may bore the audience and destroy the speaker-audience contact, therefore synonymous phrase repetition is used instead, thus filling up the speech with details and embellishing it, as in this excerpt from a speech on Robert Burns:

For Burns exalted our race, he hallowed Scotland and the Scottish tongue. Before his time we had for a long period been scarcely recognized; we had been falling out of recollection of the world. From the time of the Union of the Crowns, and still more from the legislative union, Scotland had lapsed into obscurity. Except for an occasional riot, or a Jacobite rising, her existence was almost forgotten. (All those different phrases simply repeat the idea “ nobody knew us, Scots, before”).

Repetition can be regarded as the most typical stylistic device of the English oratorical style.

In conclusion we may underline the fact that almost any piece of oratory will have parallel constructions, antithesis, climax, rhetorical questions and questions-in-the-narrative. It will be no exaggeration to say that almost all typical syntactical devices can be found in English oratory.

References:


1. I. V. Arnold. Stylistics. Modern English. - Moscow, 2002.
2. Yu. M. Skrebnev. Fundamentals of stylistics. - Moscow, 2002.
3. I. R. Galperin. Stylistics. - Moscow, 1977.

TASVIRDAGI OB'EKTLARNI CHEGARA VA SOHALARINI AJRATISHNING USULLARI VA TAHLILI

Muxammadxo‘jaev Isroilxo‘ja Isroilovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, magistr
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498330

Annotatsiya: Ushbu maqola cheklangan, o‘sib borayotgan kontseptsiyani (RGC) ob’ektni ajratishni va uni amalga oshirishning algoritmik tahlilini taqdim etadi. Bizning kontseptsiyamiz ob’ektni ajratish muammosini ikki bosqichga ajratadi. Birinchidan, asl nusxalarini niqob sifatida kuzatib turgan holda, ob’ektlarni yadrolarigacha qisqartirish orqali erishiladi. Ikkinchisi, yadro cheklangan o‘sish algoritmining ko‘rsatmalariga rioya qilgan holda niqoblar ichida amallar bajariladi.
Kalit so‘zlar: Ob’ekt chegarasi, piksel, medial o‘qi.

Ob’ekt chegarasini ifodalashning eng oddiy usuli vektor chegarasidagi har bir pikselning koordinatalarini (x, y) olish va saqlashdir. Chegarani tasvirlashning yana bir usuli zanjirli kod deb ataladi. Ushbu usulda pikselning sakkizta yo‘nalishi aniqlanadi. Chegara bog‘langan piksellardan iborat bo‘lganligi sababli, bitta piksel tanlanadi va keyingi piksellarning yo‘nalishlari birinchi pikselga erishilgunga qadar birma-bir zanjir kodida saqlanadi. Bundan tashqari, chegarani tasvirlash uchun chegaradagi har bir pikseldan ob’ekt markazigacha bo‘lgan radiusdan foydalanish mumkin (1-rasm).) va shuning uchun radiuslar burchaklarining funktsiyasi sifatida quyidagi tenglama bilan tavsiflanadigan yana bir usul ishlab chiqilgan:



1-rasm. Ob’ekt chegarasini radius funktsiyasi yordamida ifodalash:

$$r = f(\theta)$$


Chegarani yuqorida tavsiflangan usullar bilan ifodalash yoki samarali tarzda qayta tiklash mumkin bo‘lsada, bu tasvirlar ob’ektlarning olchami va yo‘nalishiga juda sezgir va shuning uchun shakl o‘lchovlari sifatida bevosita foydalanilmaydi (Baxes,1994). Buning o‘rniga, Fourier transformatsiyasi va avtoregressiv modellar,

ba’zan asosiy komponentlar tahlili bilan birgalikda, odatda vektor, zanjir kodi va radius funktsiyasidan shakl o‘lchovlarini olish uchun qo‘llaniladi, shuning uchun ob’ektning o‘lchami yoki yo‘nalishidan kelib chiqadigan ta’sirlarni bartaraf etish mumkin.

Tasvir yoki obyekt chegarasidan s-repni hisoblash

Ob’ekt chegarasini uning Blum medial o‘qiga aylantirish uchun deyarli son-sanoqsiz algoritmlarning umumlashtirilgan bir necha toifalarga bo‘linadi. U yerda siz topasizmualliflar kitob yozilgan paytda eng yaxshi deb hisoblagan har bir toifadagi algoritm. Kategoriyalar 1) evolyutsiyasining chegarasini hisoblash; 2) diskret usullardan foydalangan holda skeletlarni hisoblash, masalan, masofani o‘zgartirish orqali; va 3) skeletlarni hisoblash uchun Voronoi diagrammasidan foydalanish. Bu algoritmlar umumiy muammoga duch keladiki, bu funksiya ob’ekt chegaralaridan skelet lokuslarigacha bo‘lgan shartli emas; ya’ni kichik xatolarni katta bo‘lganlarga aylantiradi va ayniqsa, kesish kerak bo‘lgan buta skeletlari hosil qiladi. Azizillo uchun yetarli usullarni topmaganligi sababli hozirgi kungacha bu muammo deb qaralmoqda.

Ob’ektning faqat shakli uchun muhim bo‘lgan o‘ziga xos shoxlanishini tan oladigan skeletni topish uchun algoritmlar kerak. Misol uchun (2-rasm), 180 gradus atrofida aylanib yuradigan silliq egilishi bo‘lgan trubka o‘ziga parallel bo‘lib, egilish joyida shoxchasi bo‘lgan medial skeletdan farqli o‘laroq, bitta egri chiziqli skeletga ega bo‘ladi.



2-rasm. Medial o‘qi bilan egilgan bar. Chapda: intuitiv o‘q bilan; o‘ngda: taxminan Blum medial o‘qi bilan.

Bu xususiyatga ega kvazimedial skeletni ajratib olish algoritmlaridan biri tasvirlarda ishlaydi va balandlik tizmalari umuman shoxlanmaydigan xususiyatlardan foydalangan holda shoxlanmagan skeletlarni hosil qiladi. Ushbu tasvirlar ob’ekt chegaralarida yuqori kontrastli yoki imzolangan soxta masofali tasvirlar bo‘lishi mumkin, ularda voksel qiymatlari chegarada nolga teng, ob’ektning ichki tomonida salbiy, uning tashqarisida ijobiy va ob’ektdan masofa kattaligi bo‘yicha monotonic chegara. Tasvirni ibtidoiy (2 -rasm) orqali tekshirishni ko‘rib chiqish g‘oyasi medial xatti-harakatlarga mos kelganda kuchli javob beradi. Xususan, zond tasvirning joylashuvi (nomzod medial pozitsiyasi x), uzunlik uzunligi (r funktsiyasidir), va

ikkita spikerning yo‘nalishlari (θ1,θ2_); Shunday qilib, 3D tasvirlarda zond sakkiz o‘lchovli bo‘ladi. Zond ikkita tirgak uchida tasvirning chiziqli yo‘nalishlarda chegaraga o‘xshashligini tasdiqlovchi dalillarni o‘lchaydi. Probni qo‘llash skaler o‘lchovni hosil qiladi $M(x,r,\theta_1,\theta_2)$ sakkiz o‘lchovli Evklid bo‘lmagan Riman manifoldida. Bunda algoritm k o‘lchamli medial joylashuvi (masalan, plitaga o‘xshash ob’ekt uchun 2 yoki umumiy silindr uchun 1) M ning k o‘lchamli balandligi tizmasi “yadro” deb ataladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Canny, J., 1986, A Computational approach to edge-detection. IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence, 8, 679-698 Gonzalez, R.C. and R.E. Woods, 2002.

2. Digital Image Processing, Prentice Hall. Honakanen, M., P. Saarenrinne, T. Stoor and J. Niinimaki, 2005, Recogniton of highly overlapping ellipse-like bubble images. Measurement Science and Technology, 16, 1760-1770.

HOZIRGI KUNDA AHOLI O`RTASIDA KENG TARQALGAN KIRIYESHKILARNING TOKSIKOLOGIK XUSUSIYATINI O`RGANISH

F.A.Usmonova
Toshkent-kimyo texnologiya instituti
O.T.Azizov
Toshkent-kimyo texnologiya institute
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498336

Annotatsiya: Aholini sifatli oziq-ovqat mahsuloti bilan ta`minlash oziq-ovqat xafvsizligining muhim vazifasi hisoblanadi. Iste`molchilarning e`tiborini jalb qilish hamda bozordagi raqobat sababli mahsulot tan narxini pasaytirish maqsadida ishlab chiqaruvchi korxonalar tabiiy mahsulotlar o`rnini kimyoviy qo`shimchalarga bo`shatib bermoqda. Ushbu maqolada snek mahsulotlari orasida keng tarqalgan kiriyeshkilarning toksikologik xususiyati o`rganildi. Lim R.K. tajriba usuli bo`yicha belgilangan dozalarda albinos sichqonlari ustida tajriba olib borildi hamda sichqonlar organlarida kiriyeshkilarning kummulyativ belgilar aniqlandi.

Аннотация: Обеспечение населения качественными продуктами питания является важнейщей задачей пищевой безопасности. Чтобы привлечь внимание потребителей и удешевить продукцию за счет конкуренции на рынке, предприятия-производители заменяют натуральные продукты химическими добавками. В данной статье изучены токсикологические свойства кириешек, распространенных среди снековых продуктов. Эксперименты проводились на мышах-альбиносах в дозах по методу Лим Р.К. в ходе проведенного эксперимента было установленно что кириешки в высоких дозах оказывает умеренное токсическое воздействие.

Kalit so`zlar: kiriyeshki, kummulyatsiya, albinos sichqonlari, LD_{50}, toksikologiya, nekroz, ateroskleroz.

Maqsad: kiriyeshkilarning organlardagi kumulyativ belgilarini aniqlash hamda inson salomatligi uchun xavf soluvchi belgilarini nazariy va eksperimental tadqiqotlar bilan asoslashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usuli: kiriyeshkilarning toksiklik (kummulyatsiyasi) xususyatini aniqlash 20 ta sichqon ustida amalga oshiriladi. Bunda, tegishli tartibda dezinfeksiyalangan, me`yoriy hujjatlarga muvofiq oziqlantirilgan, kasallik belgilari kuzatilmagan, og`irligi 18-22 gramm oraliqdagi sichqonlar orasidan saralab olinadi. Saralab olingan sichqonlar eksperiment kuniga qadar 12 kun davomida karantinda ushlab turiladi [1]. Sichqonlar saralab olindi va guruhlarga bo`lindi. Mahsulotni

ichirish kuniga qadar bir xil muhit va oziqlantirishda 12 kun davomida karantinda ushlab turildi.

Kiriyeshkilarning kumulyatsiya koeffitsiyentini aniqlash subxronik toksiklikni belgilash tajribasi bo`yicha amalga oshirildi. Tajribada 2 jinsga ham mansub sichqonlardan foydalanildi [2].

Usulning mohiti shundan iboratki, bunda mahsulotning ichirish dozasi har 4 kunda 50% ga oshirib boriladi. Bu 28 kun davomida sichqonlarning 0.1 LD_{50} dan 1.12 LD_{50} gacha kiriyeshki dozalariga bo`lgan reaksiyalarni kuzatish imkonini beradi. Bunda $LD_{50}$ 6000 mg/kg ga teng deb qabul qilindi. 20 ta sichqon 2 guruhga bo`linib ularning 10 tasiga kiriyeshki eritmasi ichirilib qolgan 10 tasi intakt guruhi (kiriyeshkilarni iste`mol qilgan sichqonlarni sog`lom ovqatlangan sichqonlar bilan solishtirish uchun kontrol sichqonlar guruhi) ga qoldirildi. Har bir guruhdagi barcha sichqonlar bir-biridan ajralib turishi uchun markirovka qilinadi va har 4 kunda vazni o`lchab boriladi.

Taqiqot usulida kursatilgan dozadagi kiriyeshkilarni sichqonlar iste`mol qilishlarini tartibga solish uchun kiriyeshkilardan 27 % li eritma tayyorlab olindi. Savdo do`konlaridan taxminiy tanlab olingan kiriyeshki qadog`idagi barcha kiriyeshkilar dastlab stupka yordamida maydalab talqon holatiga keltiriladi, yaxshilab aralashtirilib 2.7 gramm kiriyeshki talqoni o`lchab olinadi va unga 10 ml suv qo`shilib eritma tayyorlab olinadi. Kiriyeshki eritmasi belgilangan ko`rsatmalar asosida zond orqali ichirib borildi.

Tadqiqot natijalar: tadqiqot natijalari shuni ko`rsatadiki: eksperimetlarimizning 30% izida 13-kundan boshalab kam harakatlilik, ishtaha pasayishi hamda vazn yo`qotish muammolari boshlandi. 20% sichqonlarda o`lim holatlari kuzatildi (26-, 28- kunlarda). 40% sichqonlarning jigarlari sarg`aygan.

Eksperimentning 26-kuni nobud bo`lgan sichqonning tanasini ochib ko`rganimizda uning jigari nekrozga uchraganini ko`rdik.

Eksperimentning 28-kuni nobud bo`lgan sichqonimizning tanasini ochib ko`rganimizda uning jigarida nekroz hamda yuragida ateroskleroz izlarini ko`rdik.

Eksperiment so`ngida ushbu guruhdagi barcha sichqonlarni tanasini ochib ko`rganimizda esa 40 % sichqonlarning jigari sarg`ayganiga guvoh bo`ldik.

Kiriyeshki guruhidagi sichqonlarni Intakt (kontrol) guruhdagi sichqonlar bilan solishtirildi. Kiriyeshkilar sog`lom sichqonlarning vazniga, harakatiga, jigariga hamda yuragiga jiddiy zarar yetkazgan. Jigarning 3 dan 1 qismi ko`k rangga kirib nekrozga uchragan. Bu esa kiriyeshki mahsuloti tarkibida oqsilga jiddiy salbiy ta`sir ko`rsatuvchi toksin borligi haqida dalolat beradi.

Xulosa: tajriba jarayonida kiriyeshki eritmasini yuqori dozalarda muntazam iste`mol qilgan sichqonlarni intakt sichqonlar bilan solishtirganda kiriyeshkilarda toksik ta`sirga ega ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Березовская И.В. Классификация химических веществ по параметрам острой токсичности при парентеральных способах введения\ химико-фармецевтический журнал Том 37, № 3 2003, - 32 б

2. Сидоров К.К. О классификации токсичности ядов при парентеральных способах введения. Токсикология новых промышленных химических веществ. Вып. 13, Москва (1973), 47 б

PECULIARITIES OF STYLISTIC DEVICE OF SIMILE IN I.YUSUPOV’S AND BYRON’S POETRY

Pirmagambetova J.K.
2nd year Master of Linguistics of KKSU
https://doi.org/10.5281/zenodo.7498358

Annotation: The article deals with the language peculiarities of poetry, using similes in poetry. Bright, original similes in the poetry of People’s poet of Uzbekistan and Karakalpakstan, Hero of Uzbekistan poet I.Yusupov and well known poet of English people Byron are comparatively investigated in the article.

Izoh. Maqolada she’riyatning til xususiyatlari, she’rda o‘xshatishlar qo‘llanishi haqida so‘z boradi. Maqolada O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni shoiri I.Yusupov va ingliz xalqining taniqli shoiri Bayron she’riyatidagi yorqin, o‘ziga xos o‘xshatishlar qiyosiy o‘rganilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются языковые особенности поэзии, использование сравнений в поэзии. В статье сравнительно исследуются яркие, самобытные сравнения в поэзии народного поэта Узбекистана и Каракалпакстана, Героя Узбекистана поэта И.Юсупова и известного поэта английского народа Байрона.

Key words: Stylistic device, simile, poem, image-building.

Ключевые слова: Стилистический прием, сравнение, стихотворение, создание образа

Kalit so‘zlar: Stilistik trop, o‘xshatish, she’r, obraz yaratish.

Similes help to create images in poetry. Writers can give a new or surprising meaning to an object when they compare it to something familiar. The similes forcibly set one object against another regardless of the fact that they may be completely alien to each other. And without our being aware of it, the simile gives rise to a new understanding of the object characterizing as well as of the object characterized.

In the article we’ll try to analyze similes in the poetry of People’s poet of Uzbekistan and Karakalpakstan I.Yusupov and well known poet of English people Byron.

No definition can comprise all the inner qualities of the object and new combinations of it with other objects as well. A deeper penetration into the anthology of the object will always reveal some hither to unknown qualities and features. In simile one can find that one of the qualities of the object in question is made to sound essential. The quality picked out may be seemingly unimportant, and it is frequently

transitory, but for a special reason it is elevated to the greatest importance and made into a telling feature. Simile – is one of the wide – spread emotive language means, which exists from the time of Homer, so that a great attention was paid to it in ritorika. J.Muton considers that nothing but simile reveals spiritual and intellectual life of an author, allows penetrate into mysteries of subconscious [1,107].

In I.Yusupov’s s poetry simile is widely used for the purpose of image-building. The poet for comparison his heroes uses the most various sources for image-building. We’ve analyzed some examples from I. Yusupov’s poetry, where simile is brightly used. Especially in I.Yusupov’s poetry we’ve observed bright original similes for describing nature phenomenon, vivid characterization of his personages. For instance: Sumliq qilsa sir aldirar baladay,

Kewilsheklik minezine kuyemen
Al endi onin ken jaziyra daladay
Azamatliq ken peyilin suyemen.

(“Qaraqalpaqti kop maqtama kozimshe “ 9b)

In these stanzas perfect character of Karakalpak people compared with the child’s and their kind heartedness is compared wide fields. So gives bright colour to the description

Otirispada eske tussen nagaybil
Ismin tirilmese misali bir gul
Jaqsin ilinbese tilge sol gezde;
(“Sorsha” 22b)

In these stanzas the name of human being is compared with a flower. Comparison human being with plants especially with flowers undoubtedly creates bright image.

Let’s investigate next stanzas

Doslarim sizlersiz kewlim hosh bolmas
Barimiz bir bagdin bulbillerimiz
Sizden bolek ilham magan yosh bolmas
Nanday putin igbalimiz, jerimiz.
(“Tashkentli shayir doslarima”27b)

In this poem the friends- poets are compared with nightingale. Their fortune and land – with bread. The comparison with food usually gives brightness to the description.

Men dunyani jas kelindey jasartip,
Xasil lipas penen kiyindiremen
(“Men pahtakesh xaliqpan”28b)

The world is compared with a young brideroom who dressed with rich silk dress.

Ayaz qala-danaliqtin qalasi
Gone tariyx sagan iyek suyegen
Qiyratiwshi waqit penen talasip
Tas burkittey turisindi suyemen.(“Ayaz qala”49b)

Using genuine simile poet describes the historical place Ayaz qala imaginatively, comparing it with a stone eagle.

I.Yusupov as the sourse of comparison often uses such sources as roze, nightingale, fruit, animal kingdom, plants and inanimate objects. In the next example the day is compared with rich harvest of an apple.

Ҳәм кеттим жумысқа жүрип жалма-жан,
Болды кернеп талўас, жигерим-күшим,
Күним, сени мол жемисли алмадай,
Keyingi yillarda yurtimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarga ekologik bilim berish borasida ko‘pgina ijobiy ishlar qilinmoqda.O‘rta va oliy o‘quv yurtlarida talabalarga ekologiya fani bo‘yicha bilim berilmoqda. Bundan tashqari, gazeta va jurnallar, radio televizorlar orqali ekologiyaning dolzarb masalalariga oid, maqolalar berilyapti, ko‘rsatuvlar uyushtirilyapti. Shunga qaramay, biz yosh avlodga qoniqarli darajada ekologik tarbiya beryapmiz deb ayta olmaymiz. Xususan, soha uchun kadrlar tayyorlash borasida qilinadigan ishlar ko‘p. To‘g‘ri, mustaqillik sharofati bilan mahalliy olimlar, soha mutaxassislari yangi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yaratishdi. Bu darsliklarda respublikamiz iqlimiy sharoitlari, unda mavjud o‘simliklar va hayvonot dunyosi, uchrab turgan ekologik muammolar o‘z aksini topgan. Ular yoshlarga ekologik tarbiya berishda yaqindan ko‘makchi bo‘lishi mumkin.

Mutaxassislar malakasini oshirish borasida esa ayrim xorijiy mamlakatlarning tajribalarini namuna tariqasida o‘rgansak foydadan xoli emas. Masalan, Germaniyadagi tabiati go‘zal maskanlarda maxsus ekologik tarbiya berish joylari tashkil etilgan. Ularda yoz oylarida mutaxassis o‘qituvchilar ekologiya bo‘yicha o‘z malakalarini oshiradilar, maktabga qaytgach, olgan bilimlarini, tajribalarini amalda qo‘llaydilar. Zero, bolalarni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash shunchaki bir ermak uchun qilinadigan ish emas. Bu davlat ahamiyatiga ega dolzarb masaladir. Biz sog‘lom, mehnatsevar, dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazsakgina kelajagimiz nurli bo‘ladi.

Shu o‘rinda respublikamiz, jumladan, Buxoro viloyatida ham atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida bir talay ishlar amalga oshirilganini ta’kidlamoqchimiz. Viloyat hududidagi bir qancha korxona va tashkilotlarga zamonaviy usuldagi chang-gaz tozalash qurilmalari o‘rnatildi. Shuningdek, "Toza havo" tadbiri doirasida 20 mingdan ortiq avtotransport vositasi ko‘rikdan o‘tkazildi. 1200ta avtotransport vositasi me’yoridan oshiq CO_2 ajratayotganligi aniqlandi va joyida sozlandi. Natijada

atmosfera havosiga 1.1 tonna zararli tashlanmalar chiqishi oldi olindi. Bu tadbir doimiy tarzda o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-noyabrdagi “Ozonni buzuvchi moddalarni va tarkibida ular mavjud bo‘lgan mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasiga olib kirishni va O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqishni tartibga solishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 247-sonli qaroriga asosan viloyatda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Atmosfera havosini musaffoligini saqlash uchun, avvalambor, barcha insonlarga ekologik ta’lim-tarbiya berilishini yo‘lga qo‘yish, korxonalarda ekologik jihatdan sog‘lom texnologiya yaratish, transport vositalarining chiqindisiz ishlashini ta’minlash, oyida bir marotaba bo‘lsa-da, “avtomobilsiz kunni”tashkil qilish, sovitish texnikalari va yong‘in o‘chirish vositalaridan havoga chiqariladigan galogenlarni atmosferani ya’ni ozon qatlamini siyraklashmasligiga olib kelmaydigan elementlar bilan almashtirish chora- tadbirlarini ko‘rish, shahar va qishloq ko‘chalarida, korxonalar atroflarida yashil iqtisodiyotni ya’ni ko‘kalamzorlashtirishni yana-da kuchaytirish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va O‘zgidromet hamkorligida “Xalqaro ozon qatlamini himoya qilish kuni”ga bag‘ishlangan seminar o‘tkazildi. Seminarda ozon qatlami va uni muhofaza qilish masalalari keng muhokama qilindi.

Bugun yurtimizda atmosfera qobig‘ida joylashgan, yerdagi hayot davomiyligini ta’minlashda o‘z hissasini qo‘shadigan, o‘zi yupqagina, biroq tarqalishi yerdan 10 km masofadan 50 km.gacha bo‘lgan oraliqni zabt etgan “ozon qatlami”ni muhofaza qilish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro miqyosda qabul qilingan hujjatlar ichida Ozon qatlamini muhofaza qilish bo‘yicha Vena Konvensiyasi va Ozon buzuvchi moddalar bo‘yicha Monreal protokolining dunyodagi o‘rni beqiyos. Mazkur hujjatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan va qo‘yilgan talablarga asosan samarali ishlar yo‘lga qo‘yilgan muhim hujjatlar hisoblanadi.

2018-yilning 9-yanvarida Vazirlar Mahkamasining “Ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular bo‘lgan mahsulotlarning O‘zbekiston Respublikasiga importini tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular bo‘lgan mahsulotlarni respublikamizga importi respublikamizdan eksportini davlat tomonidan tartibga solishni ta’minlanib kelinmoqda.

Xususan, joriy yilning o‘tgan davrida ozonni buzuvchi moddalar va tarkibida ular bo‘lgan mahsulotlarni O‘zbekiston Respublikasiga importi va O‘zbekiston Respublikasidan eksporti uchun ruxsatnoma olish bo‘yicha 2237 ta elektron arizalar

kelib tushgan. Ulardan 9 tasiga ruxsatnoma, 2176 tasiga ruxsatnoma talab etilmasligi to‘g‘risida xulosalar va 52 tasiga rad etish xatlari rasmiylashtirilgan.

2018–2030-yillar davrida ozonni buzuvchi moddalarning O‘zbekiston Respublikasiga importi uchun kvotalar tasdiqlangan bo‘lib, 2018-yilda 58,48 tonna belgilangan bo‘lsa, 2020 – 2029-yillarda 6,8 tonnani, 2030-yilda ozonni buzuvchi moddalarga kvotalar ajratilishi to‘xtatilishi belgilab qo‘yilgan.

2005-yilda ozonni buzuvchi moddalarning O‘zbekiston Respublikasiga importi uchun kvota 883,6 tonnani tashkil qilgan bo‘lib, hozirda ushbu ko‘rsatkich 130 barobarga qisqarganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yig‘ilish muhokama va bahs-munozaralarga boy bo‘ldi. Mavjud muammolarga ko‘plab yechim va takliflar berildi, deb xabar beradi O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi matbuot xizmati. Dunyo miqyosida ozon qatlamini tiklash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar besamar ketayotgani yo‘q. Jahon meteorologiya tashkiloti va BMTning atrof-muhit bo‘yicha dasturi hamkorligida o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, 2050 yilda Arktika, 2065 yilga kelib Antarktida ustidagi ozon tuynuklari to‘liq tiklanishi kutilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Yer doimo Ozon qatlamiga muhtoj. Zaminimizda tirik mavjudotlar yashar ekan, Ozonsiz ular nafas ololmaydi. Quyosh nurlarining zararli qismini qaytarib, bizga filtr vazifasini o‘tovchi qatlamni asrashimiz kerak. Oyga bo‘lgan parvozlar, raketalarning ozonni yorib o‘tishi ham qaysidir ma’noda qaytarib bo‘lmas yoriqlarni hosil qiladi. Biz tabiatni asrashni Ozondan boshlashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch T. Ma`naviyat. 2008 yil
2. Ozon qatlami haqida tushuncha va uning mohiyati. O‘quv qo‘llanma
3. www.ziyonet.com
4. www.arxiv.uz

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA MUZEYLARNING O‘RNI

Soyilova Gulshan Adilovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli
4-umumiy o‘rta ta'lim maktabining Boshlang'ich ta'lim fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7500521

Annatatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda muzeylarning o‘rni hozirgi yoshlardagi o‘zgarishlar va ularda vatanparvarlikni shaklantirishda oila va maktabning ahamiyati hususida so‘z borgan

Kalit so‘zlar: Muzey, vatanga muhabbat, yosh avlod, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahriddin Muhammad Bobur, ajdod.

Hozirda siz-u biz barchamiz axborot texnologiyalar dunyosida yashayabmiz va bor diqqat e’tiborimizni yangiliklarga qaratmoqdamiz buni oddiy bir misol bilan isbotlashimiz mumkin. O‘zingizga savol berib ko‘ring oxirgi marta qachon muzey yoki tarixiy joylarga farzandingizni olib bordingiz? Bu savolga hozirgi kunda qaysi kasb egasiga bermaylik har o‘n kishidan to‘qiz nafari javob berishga qiynaladi. Chunki bunday joylar bizning nazarimizda zerikarli tuyiladi. Keling endi savolni o‘zgartiramiz. Farzandingizni oxirgi marta qachon ayantirish uchun isrohat bog‘iga olib bordingiz ? Menimcha bu savolni o‘qiganingizda miyangizga bir yil, bir oy yoki bir hafta degan variantlar kelgan bo‘lsa kerak. Bunday savollarni berishimning asosiy sababi hozirgi yosh avlodlarimizda o‘tmish ajdodlarimizning tanimaslik holatlari kuzatilayotganligidir. Agar maktab, kollej yoki unversitetlarga borib Mirzo Ulug‘bek qachon tug‘ilgan yoki Zahriddin Muhammad Boburning otasini ismi nima degan savolni berganimizda orada bitta yoki ikkita o‘quvchi javob bermasa qolganlar bularni faqat isminigina bilishadi. Ho‘sh yosh avodlarimizda bunday holatlarni oldini olish, ularda vatanparvarlik, o‘tmish ajdodarga hurmatni shakllantirishimiz uchun nimalar qilishimiz lozim?

Avvalo shuni unutmasligimiz kerakki, uyni qanchalik mustahkam qurishni istasak uni poydevorini mustahkam qilishimiz lozim, bu bilan biz asosiy e’tiborni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qaratishimiz darkor, chunki aynan shu davrda berilgan saboq o‘quvchida bir umr qoladi. Shuning uchun yosh avlodlarimizni vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish uchun maktab va oila hamkorlikda ish yuritsa natijaga tezroq erishiladi. Sharq mamlakatlarida farzand tarbiyasi bilan asosan oilada ona shug‘ullanadi. Bu haqda Sharq adabiyotining yetuk namoyondalari va allomalari ham alohida fikr bildirishgan. Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari

haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning ahloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-roʻzgʻor tutish masalalari xususida ham soʻz yuritadi. Uning fikricha “oʻz kamchiliklarini tuzatishga qodir boʻlgan ota – onagina tarbiyachi boʻlishi mumkin”. Yuqoridagi allomamizning fikraridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabdagi boshlangʻich sinf oʻqituvchilari va ota - onalardan bugungi kunning asosiy talabi yosh avlodlarini oʻtmish ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda vatanga boʻlgan muhabbatni yanada oshirishdir. Bu borada muzeylarni oʻrni beqiyosdir, mamlakatimizda, 444 muzey faoliyat koʻrsatib keladi. Ulardan 155 tasi turli xil sohalardan hikoya qiluvchi – tarix, tabiat, oʻlkashunoslik, transport, ilmiy va albatta ochiq havodagi davlat muzeylaridir. Siz farzandingizni birgina muzeyga olib borish orqali unda nafaqat ajdodlarimizda muhabbat tuygʻusini uygʻotasiz balki oʻsha muzey haqida koʻplab yangi ma’lumotarni qoʻlga kiritadi. Keling buni Temuriylar tarixi muzeyi orqali koʻrib chiqamiz bu muzey 1996- yilda butun dunyo boʻylab taniqli boʻlgan buyuk sarkarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi sharafiga ochilgan. Muzeyning uch qavatli yumaloq binosi gumbaz bilan klassik sharqona uslubda bezatilgan. Binoning ichki qismi marmar, noyob rasmlar, betakror naqshlar va oltin suvi bilan bejirim bezatilgan. Zallar devorlarida Amir Temurning hayoti, shuningdek oʻsha davrlarning atmosferasini aks ettiruvchi rasmlar freska tarzida aks etgan. Muzeyning eng maftunkor qismi - balandligi 8,5 metr boʻlgan billur qandil boʻlib, undagi 106 ming marjon koʻzlarni qamashtiradi. Muzey eksponatlari tashrif buyuruvchilarga Temuriylar sulolasi davrida Oʻzbekiston tarixi haqida ma’lumot beradi. Muzey fondida 3 mingdan ortiq eksponatlar mavjud. Bu yerda oʻrta asrlarga oid zargarlik buyumlarini, kiyim-kechaklarni, musiqa asboblari, mehnat anjomlari va boshqa buyumlarni koʻrishingiz mumkin. Musulmonlarning muqaddas kitobi boʻlgan Usmonning Qur’on nusxasi markaziy zalda saqlanadi. Muzey ekspozitsiyasida Amir Temur va uning avlodlarining Yevropa mamlakatlari monarxlari bilan boʻlgan koʻplab yozishmalari, buyuk sarkarda tasvirlangan rasmlar, miniatyuralar, mamlakatimizda Temuriylar sulolasi tomonidan qurilgan mashhur inshootlarning maketi joy olgan. Ushbu muzeyga borib undagi ekspanatlarni koʻrib temuriylar davri haqida tasavvur uygʻongandan soʻng dars oʻtigan oʻquvchi boshqalarga qaraganda yaxshiroq eslab qoladi va xotirasida abadiy muhrlanadi, kimdir Amir Temur nechanchi yilda davlatga asos solgan, uning poytaxti qaysi shahar boʻlgan desa, bu muzeyga borgan oʻquvchi oʻylanmasdan 1370-yil davlat tuzgan poytaxti Samarqand shahri boʻlgan deb ayta oladi. Zero oʻtmiz ajdodlarga va vatanga muhabbati kuchli avlodni yetishtirishimiz barchamizni eng katta yutugʻimizdir.

Foydaanilgan adabiyotlar:

1.Z. Nishonova, G.Alimova ”Bolalar pisixologiyasi” Toshkent 2006-yil
2.H.B.Haydarova, Yosh avlod tarbiyasida oila ma`naviyatining o`rni
3. SH. Karimov ”Vatan tarixi” Toshkent 2010-yil

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI TARG‘IB QILISH

Jumayeva Nafisa Baxtiyorovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli 4-umumiy o‘rta ta'lim maktabining Boshlang'ich ta'lim fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7500529

Annatatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini targ‘ib qilish, sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarga kitob o‘qish foydalari haqida, bundan tashqari ko‘p kitob o‘qigan insonlar qanday yutuqlarga erishishlari mumkinligi haqida fikrlar borgan.

Kalit so‘zlar: Kitob, Yosh kitobxon ko‘rik tanlovi, Maksim Gorkiy, O‘tkir Hoshimov, Amir Temur, kutubxona.

Hozirgi zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga ta’lim berish bilan birga ularda to‘g‘ri fikrlash, ilmiy dunyoqarash, elementlarinining shakllantirish, hayotni o‘zga nigoh orqali ko‘ra olishga o‘rgatish hozirgi ta’limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Rivojlanib borayotgan dunyoda yangi texnologiyalarga bor diqqat e’tiborimizni bizga hayotni asl haqiqatini anglatuvchi kitoblardan uzoqlashib ketyabmiz. Biz kattalarga qo‘shilib, yosh avlod ham kitoblardan uzoqlashib ketmoqda. Shu o‘rinda barchamizda bir savol tug‘uladi qanday yo‘l tutsak yosh avlodlarimizda kitobga mehr muhabbatni uyg‘otishimiz mumkin? Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti shuki – o‘quvchi yuragiga kirib borishdir. Bu borada bizga telvidiniya, darsdagi mashg‘ulotlar, oilaning yoshi katta a’zolari yordam beradi. Mamlakatimizda o‘quvchilarning kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini tarkib toptirish, tizimli yondashuv asosida boshlang`ich sinf o‘quvchilarining o‘qish madaniyatini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Kitob-inson ma`naviy dunyosining boyishi, fikrlash doirasining kengayishiga katta yordam beruvchi vosita bo‘lib, uni doimo do`st tutish, undan ko`p narsalarni o`rganishga harakat qilish lozim qadim-qadimda ota-boblarimiz kitobni juda qadrlaganlar,uni qo`llariga olganlarida avval ko`zlariga surtganlar. Bu ularning “Bizga bilim berding, seni ko`z qorachig`imdek asraymiz” dab e`tirof etganidir. Ajdodlarimiz kitobni muqaddas boylik deb bilganlar. Ko`p kitob o`qigan bola asardagi fikrlarni o`z qalbiga joylaydi. Yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga, yaxshi insonlar qatoridan o`rin olishga harakat qiladi. Shuning uchun yurtimizda kitobga va kitobxon yoshlarga e`tibor kuchaymoqda. Prezidentimiz tomonidan bir qancha farmon va qarorlarning tasdiqlanishi so`zimiz isbotidir. 2017 –

yil 17-fevral kuni “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish to`g`risidagi” farmonlari shular jumlasidandir. Bundan tashqari mamlakatimizda Yosh kitobxon ko‘rik tanovlarini mumtazam o‘tkazib borish ham yoshlarni kitoblarga munosabatini o‘zgartirmoqda deb aytishimiz mumkin. Bunday ishlarni amalga oshirilishiga asosiy sabab qaysi rivojlangan mamlakat axolisiga e’tibor bersak, rivojlangan mamlakatlar axolisi qolganlarga qaraganda ko‘proq kitob mutoala qilishi kuzatilgan. “NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston — 10,7, Tailand — 9,4, Xitoy — 8, Filippin — 7,6, Chexiya — 7,4, Rossiya — 7,1 bilan yuqori o‘rinlarni egalladi. Bundan tashqari quydagi allomalarimizni kitob haqida aytgan fikrlari diqqatimizni tortadi. Kitob insonni tarbiyalash xususiyatiga ega bo‘lgan eng yaqin do‘stdir. Kitob haqida uning insonni kamolotga yetishidagi o‘rni haqida qimmatli fikrlar, tashbehlar nihoyatda ko‘pdir. “Men o`zimdagi barcha yaxshi fazilatlar uchun kitoblardan minnatdorman”-Maksim Gorkiy, “Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o`rgatuvchi murabbiydir”-Amir Temur, “Kitob –boylik, lekin sotib olingani emas, o`qilgani”- Asqad Muxtor, “Hayotni sevgan kishi,kitobni sevadi,zero kitob hayot qomusidir”-O`tkir Hoshimov. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, dars davomida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarga kitob o‘qish foydalari haqida, bundan tashqari ko‘p kitob o‘qigan insonlar qanday yutuqlarga erishishlari mumkinligi haqida qayta va qayta uqtirishlari, tevidiniyalarda kitob o‘qishga undovchi ko‘rsatuvlar ko‘plab qo‘yilishi yoshlarda kitobxonlikni targ‘ib qilishga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov S.A. “Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi” Scientific journal Volume 2021-yil

2. Sulaymonov J.B. “Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar” Falsafa va huquq jurnali 2019-yil

3. M.Abdirahimova “Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik va mutolaa madanyatini yuksaltirish va uning o‘ziga xos xususiyatlari” Scientific Journal Impact Factor 2021-yil

4. Nishonova, G.Alimova ”Bolalar pisixologiyasi” Toshkent 2006-yil

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHINI SHAKLLANTIRISH

Absamatova Shohida Xikmatovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli 4-umumiy o‘rta ta'lim maktabining Boshlang'ich ta'lim fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7500557

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlarimiz, ularning mazmun-mohiyatini tushunish, ularni asrab-avaylash o‘quvchilarda milliy qadiriyatlarni shakllantirish orqali xalqning azaliy qadiriyatlarini yo‘qolib ketishdan saqlash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, buyuk allomalar, ma’naviy meros, sharqona tarbiya, Navruz, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy

Hozirgi rivojlanib borayotgan davr maktablarning oldiga yangidan yangi talab va vazifalar qo‘ymoqda ayniqsa maktabning boshlang‘ich davri ta’limning asosini tashkil qiladi shuning uchun hozirgi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, erkin fikrlay oladigan, kattalar va milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimiga, xususan boshlang‘ich ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘qish, yozish va xisoblashni o‘rgatish, tevarak atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini shakllantirish bilan birga ta’lim jarayonida ularda keksa insonlar va milliy qadiriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi ta’limning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning hissasi katta bo‘lib, dars jarayoni davomida buyuk ajdodlarimizning tarixiy yo‘li, qilgan ezgu ishlari, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan milliy qadiriyatlar hususida o‘quvchilarga qancha ko‘p ma’lumot berisa ularda shuncha ko‘p qadiriyatlarimizga qiziqish uyg‘onadi. Misol uchun boshlang‘ich sinflarda dars jarayonida Navro‘z bayrami 21-martda O‘zbekistonda nishollanadigan bayram deb qisqa to‘xtalib o‘tish ham mumkin bunda o‘quvchida Navro‘z bayrami 21-martda nishollanishi hususida ma’lumotga ega bo‘ladi va bu bayram haqida so‘z borganda hech narsani xis qimaydi. Dars jarayonida Navzo‘r bayrami o‘zbek xalqining eng

qadimgi bayrami ekanigi unda o‘zbekning eng lazatli taomlaridan Sumalak tayyorlanishi va bu sumalak malaklar taomi ekanligi, birinchi marta Bibi Fotima onamiz tayyorlashganligi haqidagi rivoyatlar bilan o‘quvchilarga tushuntirilsa, bu bayram yaqinlashganda o‘quvchini ajib xislar qurshab oladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Ammo shuni ham aytib o‘tish joizki, asriy an’analarimizni qanchalik asrab avaylashga harakat qilmaylik ulardan birin-ketin ajralib borayotganimiz kishiga alam qiladi. O‘zbek xalqiga xos qadriyatlarni saqlab qolishni avvalo ilk maktab yoshidan o‘quvchilarga uqtirib borish, yigitlar nega doppi kiyishi, qizlar nega atlas ko‘ylak kiyishi haqidagi tasavvurlarni o‘quvchilarda shakllantirishimiz o‘zbekning o‘zligini saqlab qolishga yordam beradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.B.Haydarova, Yosh avlod tarbiyasida oila ma`naviyatining o`rni
2. G‘. Shoumarov ”Oila pisixologiyasi” Toshkent 2010-yil
3. N. To‘ymurodova “O‘quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash - davr talabi” Science and Education 2022-yil
4. Arxiv uz.com

AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDA KOMIL INSON MUAMMOSI

Qosimov Ubaydullo Axrorovich
Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi,
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, ps.f.n., dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7500561

Annotatsiya: Aytish joizki, komillik ijtimoiy voqyelik sifatida kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida mavjud. Ma'lumki, O‘rta Osiyo va ayniqsa, bizning Vatanimizda keng tarqalgan tasavvufning xojagon, naqshbandiya, kubroviya va boshqa tariqatlar ta'limotlari hindlarning yogachar ta'limotlaridan farqli tarkidunyo qilmasdan (xalqdan ajralmasdan) insonning nafaqat jismonan balki ichki ruhiy va ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini ham qamraganligi bilan yuqori kamolot darajasiga-ya'ni komil inson bo‘lishga erishish uchun xizmat qila oladi.

Kalit so‘zlar: komil inson, тасаввуф, хожагон, нақшбандия, nafs, “menlik”, “bizlik”.

Аннотация: Следует сказать, что совершенство как социальная реальность существует на всех уровнях человеческого общества. Известно, что учения Ходжагана, Накшбанди, Кубровия и других напрвлений суфизма, распространенных в Средней Азии и особенно в нашей стране, не отличаются от учений Йогачара индийцев, но заключают в себе совершенное образование не только физический, но и внутренний психический и духовный мир человека до высокой степени совершенства, т.е. может служить достижению становления совершенной личности.

Ключевые слова: совершенный человек, суфизм, ходжагон, накшбандия, похоть, «я-концепция», «мы концепция».

Annotation: It should be said that perfection as a social reality exists at all levels of human society. It is known that the teachings of Khojagan, Naqshbandi, Kubroviya and other sects of Sufism, which are widespread in Central Asia and especially in our country, are not different from the teachings of Yogachar of the Indians, but they encompass the perfect education of not only the physical, but also the inner mental and spiritual world of a person to a high level of perfection, i.e. can serve to achieve becoming a perfect person.

Key words: perfect human being, Sufism, Khojagon, Naqshbandiya, lust, "I concept", "we concept".

O‘rta Osiyo mutafakkirlariining ta'limotida komil inson muammosi tasavvuf asosiga qurilgan(Shayx Nasafiy, Hakim Termiziy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar).

Komillikning ichki (sub'ektiv) zaxiraviy manbalar to‘g‘risida fikr yuritilganda, ularning ta'limotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologik bilimlarning shaxs ruhiy faolligi haqidagi mulohazalari hind qadimiy asarlari «Maxobxorat» va «Ramayana»da ham uchraydi «Maxobxorat»ning «Bxagavadgita» (jozibali) bobida psixologik masalalar to‘g‘risida mulohaza yuritiladi hamda moddiy dunyo tobeligidan, ichki moddiy ehtiyojlar qulligidan, qutilishga da'vat qilinadi. Bu borada yoglar ta'limoti va amaliyotida inson ichki psixologik faoliyatini o‘zidan o‘zi dasturlashtirishga erishishning yuksak tajribasi to‘plangan.

Inson psixikasini shaxsan boshqarishga erishishning yana bir yo‘nalishi-dzen buddizmdir. Bu ta'limotning asosiy mohiyati xufyona-ovoz chiqarmasdan, xayolga cho‘mish orqali ichki to‘g‘ri yo‘naltirilganlikka erishishdan iboratdir. Ushbu ta'limotda maxsus mashq texnikasi yaratilgan bo‘lib, unga amal qilgan holda inson o‘z tanasining faoliyatini o‘z aqliga tobe qilgan tarzda avval psixikasining muvozanatiga, keyinchalik esa o‘zidan o‘zi dasturlashtirilish bosqichiga erishiladi.

Bizningcha, bir necha asrlar davomida mukammal texnologiyaga erishgan dzen buddizm va yoglar ta'limoti tizimi qat'iy ishonch bilan aytganda inson psixikasini modifikatsiyalashtirishning betakror usullari majmuasi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, tibet buddizmi, kabbala, daosizm va boshqa ta'limotlarga asoslangan psixoterapiya usullari hozirgi zamonda keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Antik dunyo yunon mutafakkirlari inson xayoti mobaynida barcha psixologik iztiroblarda: affekt, frusturatsiya, stress holatlarida o‘z—o‘zini boshqara olish va nazorat qila olish, tashkillashtirish muammolariga qadimdan ahamiyat berib kelishgan. Chunki ular inson qisqa umri mobaynida baxtga erishishga har doim ham xaqli deb qarashgan. Shuning uchun ular inson o‘zini o‘rgana oladi, uning intellektual aqliy sifatlari bunga qodir, insonning o‘zi yaratgan ichki timsoliy psixologik obrazlari, tasavvurlari tashqi halol sa'i—harakatlarni tashkillashtirishida o‘z ifodasini topishi lozim deb qarashgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari tomonidan barkamol insonning o‘ziga hos axloq me'yorlari ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzu—armoni deb qaralgan. Bundan yana shu ham ma'lum bo‘ladiki, o‘rta asrlardagi yaxshi axloq, barkamol inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega – bir tomondan, jami ruhiy—ma'naviy qudrat, zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan ilohiy bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan shu cho‘qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham barkamol inson deb hisoblangan. Ammo masala qanday qo‘yilishidan qat'iy nazar, barkamol inson haqidagi goyalar katta ijtimoiy—axloqiy ahamiyatga ega bo‘ldi, insonni sharafli, ezgulik ruhida tarbiyalash, mehr—u muruvvat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qildi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo‘ya

qiliqlardan saqlanishga ko‘maklashdi, iymon va vijdon binosining paydo bo‘lishini ta'minladi

Abu Ali ibn Sino fikricha, insonning xulqi va ruhi uch sabab bilan komillikka erisholmaydi:

- Inson yer yuzida yaratilganlar orasida eng mumtozidir. Ammo insonlar qizg‘anchilik sababi bilan bir—birlarining qo‘llarida bo‘lgan narsalarga ko‘z tikadilar. Bu esa o‘z navbatida qusurli behalovatlikni keltirib chiqaradi.
- O‘z ishonchini, mazhabini va qabilasini boshqalardan ustun ko‘rmoq insonlar orasida nifoqlarga yo‘l ochadi.
- Xurofotlar va sust(asossiz) ishonchsizlik insonlikning takomilini orqaga suradi va tushunmovchiliklarini yuzaga keltiradi.

A.Navoiy ma'naviyat barkamol shaxs tarbiyasida katta ahamiyatga ega deb biladi. A.Navoiy qarashlarida ma'naviy barkamol inson aqliy, axloqiy, jismoniy kamol topgan shaxs, ilm—ma'rifatga intilgan ijodkor, qobiliyatli, bilimdon, oqil va dono kishi, sofdil, insonparvar, sahovatli, sabr—qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, odobli, xushfe'l shaxs, sog‘lom va jismonan baquvvat, mardlik va jasurlik xislatlariga ega insondir.

A.Navoiy axloq va aql haqiqat mezoni adolat va yaxshilikni barqaror etuvchi omil bo‘lgani uchun axloqiy kamolotga intilishni har bir odam uchun zaruriy ish deb biladi hamda shunday intilishni talab qiladi

Barkamol inson, insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U axloqiy—ma'naviy poklanish jarayonida barkamollikka erishadi.

Alloma Jaloliddin Davoniy bolalarni tarbiyalashda, ularni komil bo‘lib yetishishida ilm—fan bilan shugullanishni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Inson xususiyatlarni yoshlikdan, tarbiya natijasida kishilar bilan o‘zaro munosabatda kasb qiladi. Davoniyning fikricha, har bir fazilat vaqt o‘tishi bilan yangilanish va o‘zgarishga qobildir, u doimo rivojlanadi, takomillashadi. Davoniy insoniy fazilatlarni to‘rtga bo‘ladi: bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir.

Yusuf Hos Xojib e'tikodiga ko‘ra, axloqiy kamolot — insonning butun xayot va faoliyatining birlamchi asosidir. U, jumladan, bunday deb yozgan edi: "Kimning odobi yaxshi va axloqi to‘g‘ri bulsa, u kishi o‘z maksadiga yetadi va baxt unga kulib boqadi", zero "yaxshi axloq — jamiki, yaxshiliklarning zaminidir".

Ma'lumki, O‘rta Osiyo va ayniqsa, bizning Vatanimizda keng tarqalgan tasavvufning xojagon, naqshbandiya, kubroviya va boshqa tariqatlar ta'limotlari yuqorida keltirilgan hindlarning yogachar ta'limotlaridan farqli tarkidunyo qilmasdan (xalqdan ajralmasdan) insonning nafaqat jismonan balki ichki ruhiy va ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini ham qamraganligi bilan yuqori kamolot darajasiga-ya'ni komil inson bo‘lishga erishish uchun xizmat qila oladi.

Tasavvufda barkamol inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va eng donosi, barkamol inson Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, ilohiy amr, g‘ayb asrorini oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug‘ homiydir, barkamol inson shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy hislatlarni jamlagan kayxoniy mavjudlikdir, u agar oddiy inson suratida ko‘rinsa ham, lekin ma'nan koinotni qamrab olgan hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir olamning haqiqiy mohiyatini anglagan karomat sohibidir

Zero, Abdulxoliq G‘ijduvoniy asos solgan xojagon (naqshbandiya) tasavvuf tariqati ta'limotining «Hush dar dam», «Nazar bar qadam», «Safar dar Vatan», «Xilvat dar Anjuman», «Yodkard», «Bozgasht», «Nigohdosht», «Yoddosht», qoidalariga erishishi (o‘zlashtirishi, yetishishi) va unga batamom amal qilish insonni komillik pog‘onasiga ko‘tarishga qodirdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Abdulxoliq G‘ijduvoniy tariqati ta'limotining tahlili va talqini quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta'limoti to‘g‘risida shuni aytish joizki, zohiriy bilimlarning harakatlantiruv-chisi aql hisoblansa, botiniy bilimlarniki ishq hisoblanadi. Chunki haqiqiy ishq barcha qiziqishlar, turtkilar, intilishlar, ehtiyojlar, motivlarning tabiiy yo‘naltiruvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham ishq tasavvufda Ollohga yaqinlashtiruvchi yagona qurol bo‘lib xizmat qiladi

Aytish joizki, tasavvuf shayxlaridan Najmiddin Kubro ham psixologik ta'sir o‘tkazishning (tarbiyaning, interaksiyasining) inson ichki psixologik faolligini uyg‘otish va uni shakllantirishning o‘ziga xos o‘nta talabi (Tavba, Zuhd, Tavakkul, qanoat, Uzlat, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Zikr, Rizo) asosida usullar majmuasini ishlab chiqqan(7). Piri komillarimiz inson psixikasinining favqulodiy jihatlarini laduniy ilmi orqali chuqur bilganliklari tufayli uning ichki dunyosini o‘zini o‘zi boshqarishga, dasturlashtirishga erishish yo‘llarini ko‘rsatganlar, uni har xil modifikatsiyalarini ham tushunganlar. Jumladan, uzlatda chilla o‘tirish orqali yoglarga o‘xshab mukoshafaga erishganlar. Shayx Najmiddin Kubro fikriga ko‘ra inson «Olami sug‘ro», ya'ni kichik olam bo‘lib, unda «olami Kubro»ning, binobarin, katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Uning talqinicha inson taraqqiy etib borsa, u Ollohning «Rahim va Rahmon» sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini egallay oladi.

Bizningcha. o‘zini o‘zi anglashni komillik alomati sifatida talqin qilish hozirgi zamon psixologiya fani talablariga mutlaqo mos tushadi. Chunki o‘zini o‘zi anglash («Men» va «Biz» munosabati) ijtimoiy psixologik voqyelik (hodisa) tariqasida namoyon bo‘lishi uni tadqiq etish zaruratini kafolatlaydi. Ushbu masalaning ijtimoiy psixologik tabiatini tushuntirishda ikki xil yondashuv vujudga kelgan bo‘lib, ular o‘zaro keskin darajada tafovutga egadir. Birinchi yondashuv talqinicha, o‘zini o‘zi anglash-bu o‘z yo‘nalishini o‘zgartirgan ongning aynan o‘zidir (L. S. Vыgotskiy(3)) Ikkinchi yondashuv S. L. Rubinshteynning(6) ilmiy izlanishlarida aks etgan bo‘lib,

keyinchalik uning shogirdi K. A. Abulxanova-Slavskaya tomonidan ushbu muammo rivojlantirilmoqda(1). Ikkinchi yondashuv mohiyati shuki, o‘zini o‘zi anglashni shakllantirishning manbai ong va undagi ziddiyat bo‘lmasdan, balki insonning ijtimoiy muhitda tarkib topishi hamda rivojlanishi sanaladi.

Psixologiya fanida komil insonning hozirgi zamon nazariyalari mavjud bo‘lib ular: 1) tabiatning biotik va abiotik omillari-inson; 2) jamiyat va uning tarixiy taraqqiyoti-inson; 3) inson-texnika, texnologiya; 4) inson-madaniyat, ma'naviyat, qadriyat va ruhiyat; 5) inson va jamiyat-yer va fazo; 6) o‘zini o‘zi anglash tizimi (o‘tmishdagi «Men», hozirgi «Men», bo‘lg‘usi «Men», ideal «Men», dinamik «Men»); 7) komil insonning psixologik tuzilmasi va boshqa shakllarga egadir.

Bizningcha, murtaklik davrda ona bilan bola munosabatlarining nozik tomonlari va jabhalari ro‘yobga chiqadi, buning oqibatida ruhan sog‘lomlik yoki ruhan nuqsonlik omillari yuzaga kelishi mumkin. Onaning psixologik va fiziologik jihatdan barkamolligi, jismonan baquvvatligi mukammal, to‘kis farzand tug‘ilishini ta'minlaydi. Murtaklik davri-komillik genezisidir(10).

Komillik sifatlarini bosqichma bosqich(murtaklik, odam, inson, shaxs, sub'ekt, komil inson) eggallab borilishida fazoviy, makoniy aloqa hamda moddiy va ijtimoiy muhit ta'sirini hisobga olgan holda senzitiv davrdan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Komil inson intelektual, ma'naviy, jismoniy barkamollikdan tashqari quyidagi sifatu xislatlarga ham ega bo‘lishi joizdir: ichki va tashqi sayi-harakatida o‘ta halollik(nafsiy poklanganlik); o‘z nafsini tiya olish evaziga moddiylik ta'siridan butkul xalos bo‘lishlik; ichki ruhiy imkoniyatlaridan mukammal foydalana olishlik orqali komillik xislatlarini ro‘yobga chiqarish; har qanday muomala, munosabatda umumbasha-riy(baynalmilal) xususiyatlarga ega bo‘lish bilan «Men»likdan «Biz»lik sifatlariga o‘sib o‘tish; botiniy ilm orqali karomatlilik(10).

Yuqoridagi mulohazalarga tayanib komillik ijtimoiy voqyelik sifatida kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lganligini va uni ommaviylashtirish-ning ham ichki, ham tashqi omillari mavjudligini hamda ularga ijtimoiy institutlar tomonidan qat'iy e'tibor qilish zarurligini takrorlash, uqtirish bilan ijtimoiy tasavvurni kengaytirish lozim ekanligini unutmaslik kerak.

Adabiyotlar:

1. Абульханова-Славская К.А. Деятельность и психология личности. - М., 1980, с.113-259
2. Выготский Л.С. Собрание сочинений: Т.1.-М., 1982, с.168-174.
3. Валлон А. Психическое развитие ребёнка.-М., 1967, с. 58- 151.
4. Komilov N.Najmiddin Kubro-T. A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995, 46b.

5. Navoiy A. Mahbub ul-qulub – T. G‘.G‘ulom Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-111 bet

6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. -М.: Наука, 1989, с.156- 190.

7. Sultonmurod Olim Naqshband va Navoiy. T.,O‘qituvchi,1996-21 bet.

8. Qosimov U. Xoja Abdulxolik G‘ijduvoniy-Buxoro, 2002-82 bet.

9. Qosimov U. Xoja Abdulxolik G‘ijduvoniy Xufiya zikri-Buxoro, 2003.-42 bet.

10. Qosimov U. Tasavvuf psixologiyasi shaxs taraqqiyotida muhim omil-“IJOD-PRESS” nashriyoti: Toshkent, 2019 yil, 192 bet

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISH

Hamidova Nilufar Sayfiddinovna
Xorazm viloyati Urganch Shahridagi 8-son maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7500566

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish va bu borada nimalarga ahamiyat berish zarurligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, sintez qilish, ko‘nikma, yo‘nalish, tadqiqot.

O‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni berishi, balki ularni hayotda qo‘llashga o‘rgatishi kerak. Fikrlashning ekssentrikligini rivojlantirish, muammolarni "taqlid" yordamida hal qilish uslubidan voz kechish kerak. Aynan boshlang'ich maktab yoshida, psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, mantiqiy fikrlashni, muammoni hal qilish uchun nostandart yondashuvni shakllantirish zarur. Agar maktabgacha yoshda bolaning o‘yin faoliyati yetakchi bo‘lsa, boshlang'ich maktabda o‘qishga yo‘naltirish mavjud. Fikrlash asosiy funksiyaga aylanadi. Aqliy faoliyatni rivojlantirish boshlang'ich maktabda ustuvor ahamiyatga ega. Mantiqiy fikrlash bolani o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalaridan foydalangan holda, shuningdek, nazariy va amalda nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilishga, shuningdek, kerakli ma'lumotlarni topishga o‘rgatishni tartibga soladi. Bularning barchasi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, agar u asosiy vazifa bo‘lmasa, keyinchalik bolaning boshlang'ich maktabda o‘qishi davrida eng muhimlaridan biriga aylanishidan dalolat beradi. *Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda quyidagilar muhim: tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, bahslashish va eng muhimi, mustaqil fikrlash odatini rivojlantirish, g'ayrioddiy yechimlarni izlash.* Aqliy faoliyat, boshqa har qanday faoliyat kabi, o‘qitilishi va rivojlanishi kerak. Zamonaviy dunyoda bola ko‘pincha shunga o‘xshash qiyinchiliklarga duch keladi, shuning uchun bu mavzu bugungi kunda eng dolzarb hisoblanadi.

Rivojlanish muammolari ko‘plab o‘qituvchilar va psixologlarni qiziqtirgan (P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, A. N. Leontiyev, A. R. Luriya, P. I. Zinchenko, A. A. Smirnov, B. M. Velichkovskiy, G. G. Vuchetich, Z. M. Istomina, G. S. Ovchinnikov, J. Piaget). Statistik ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 4-sinf o‘quvchilarining hammasi ham mantiqiy fikrlash ko‘nikmalariga to‘liq yoki

hech bo‘lmaganda qisman ega emaslar. Ba'zan ba'zi o‘quvchilar hatto o‘rta maktabda ham ularni o‘zlashtirmaydilar. Ushbu dalillarning barchasi boshlang'ich maktab o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi muayyan muammolarni, shuningdek, bolalarga aqliy operatsiyalarning asosiy usullarini o‘rgatish bo‘yicha maqsadga muvofiq ish olib borish zarurligini ko‘rsatadi.

Ko‘pincha, ushbu yo‘nalishdagi ishlar kichik o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga eng samarali ta'sir ko‘rsatadigan shart-sharoitlarni, o‘qitish usullari va pedagogik texnologiyalarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ko‘pincha ikkita muammoni hal qildi: olingan bilimlarning mazmuni qanday bo‘lishi kerak va o‘qituvchi o‘quvchilar ongiga qanday ma'lumot yetkazishi mumkin. Axir bilimlarni mexanik ravishda o‘rganish mumkin, fikrlashning oqilona usullari ularni tushunishga imkon beradi.

Mantiqiy fikrlash qobiliyati 1-sinf o‘quvchilari uchun zarurdir. Mantiqiy fikrlashning eng kichik usullariga ega bo‘lmasdan materialni to‘liq o‘zlashtirish mumkin emas. Mantiqiy fikrlashni o‘rgatish, shuningdek uni rivojlantirish tabiiy, hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, pedagogik vositalar bola rivojlanishining yoshga bog'liq xususiyatlarini (psixologik va jismoniy) hisobga olishi kerak. Mavjud maktab o‘quv dasturlarida, albatta, mantiqiy universal harakatlarni shakllantirish mashqlari mavjud, ammo mavhum fikrlashni rivojlantirish zarurligini hisobga olgan holda, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘shimcha dastur ishlab chiqish uchun tajriba o‘tkazish mantiqan to‘g'ri keladi va har qanday darsga mashqlarni o‘quv jarayonida ham kiritish mumkin. Hozirgi vaqtda mantiqiy universal ta'lim harakatlarini shakllantirishning turli xil usullari mavjud. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘shimcha mashqlarni kiritish uchun har bir o‘qituvchi kichik o‘quvchilarning jismoniy va psixologik xususiyatlarini tahlil qilishi va hisobga olishi, har bir bolaning individualligini hisobga olishi kerak. Bunday vazifalar o‘quv jarayonida ham, sinfdan tashqari ishlarda ham mutlaqo har qanday darsda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu mashqlarning turi quyidagicha bo‘lishi mumkin: mantiqiy ketma-ketlik (bir qator tavsiya etilgan narsalarning ortiqcha miqdorini toping yoki rasmlarning mantiqiy turkumini yarating); labirint; mantiqiy aloqalarni topish (ikkita obyekt o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash); xato toping; xususiyatlarga ko‘ra narsalarni ajratish. Eng samarali usullardan biri bu rasmdir. Chizish jarayonida bolaning bilish faoliyati rivojlanadi, rang, hajm, makon kabi tushunchalar shakllanadi.

Ushbu muammoning yechimi shundan iboratki, diqqatni o‘quvchiga beriladigan ma'lumot hajmini ko‘paytirishdan, mantiqiy universal ta'lim harakatlarini shakllantirishdan o‘tkazish kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘z e'tiborini kichik maktab o‘quvchisida umumiy mantiqiy aqliy faoliyatni o‘rnatishga, har xil xulosalar turlari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratishi kerak. Ta'lim jarayonini

shakllantirishga bunday yondashish standart darsning borishini butunlay o‘zgartirishi mumkin, masalan, ilgari o‘qituvchi dars mavzusini so‘ragan bo‘lsa, endi u talabalarni yetakchi savollar bilan boshqarishi kerak, shunda ular o‘zlari mavzu nima ekanligini va nimani o‘rganish kerakligini aniqlaydilar.

Kichik maktab yoshi - bu mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning faol propedevtik bosqichi, bu davrda umumta'lim maktabining o‘quv dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun asos bo‘lgan tahlil, sintez, umumlashtirish, cheklash, tasniflash, taqqoslash, mavhumlashtirish va boshqalarning mantiqiy operatsiyalarini amalga oshirish uchun asoslar yaratiladi. Kichik maktab o‘quvchilari tomonidan mantiqiy operatsiyalarni bajarilishini tavsiflovchi yoshga bog'liq asosiy xususiyatlarga quyidagilar kiradi: sezgirlik, mavhumlikka nisbatan faoliyatni tahlil qilish, sintezni asosan vizual vaziyatda obyektlar bilan harakatlarni to‘xtatmasdan amalga oshirish, taqqoslash operatsiyasini obyektlar, bog'lanishlar va obyektlar bilan o‘zaro munosabatlarni tartibga solish bilan almashtirish istagi, xususiyatlar, obyektlarning muhim xususiyatlarini ularning yorqin tashqi belgilari bilan almashtirish.

Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining eng muhim vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotskiy, L.S.Fikrlash va nutq / L.S. Vygotskiy - M: AST, 2005 yil.
2. Galperin P. Ya.Maktab o‘quvchilarida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish muammolari va maktabda o‘qitishning yangi usullari / Galperin P. Ya., Zaporozhets NV, Elkonin D.B. - M.: Ta'lim., 1963.
3. www.kayabaparts.ru

O‘ZBEK TILIDA YUKLAMALAR

Xudaybergenova Guliyor Saidnazarovna
Sultanova Xolida Bahodirovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
o‘zbek tili o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7503359

Annotatsiya: Ma’limki, har bir tilning asosini so‘zlar tashkil qiladi. So‘zlar esa o‘z navbatida mustaqil va yordamchi so‘zlarga ajratiladi. O‘zbek tilida gapga alohida ma’no yuklash xususiyatiga ega bo‘lgan yuklamalarning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Mazkur maqola orqali o‘zbek tilidagi yuklamalar haqida kengroq bilib olamiz.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari, so‘z yuklamalar, qo‘shimcha yuklamalar.

Yordamchi so‘z turkumlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning uch turi mavjud: bog'lovchi, ko‘makchi va yuklama **Yuklama** — yordamchi so‘zlarning bir turi bo‘lib, ayrim gap bo‘lagiga yoki gapga qo‘shimcha ma’no berish uchun qo‘llanadi. Yuklama tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: Yuklama qo‘shimcha (qo‘shimcha holiga kelib qolgan yuklama: mi, chi, da, a, ya) va yuklama so‘z (ayrim so‘z holidagi yuklama: faqat, xuddi, naq, ham). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so‘zlarga qo‘shilganda anglatadigan ma’nolariga ko‘ra yuklamaning quyidagi turlari farqlanadi: so‘roq va taajjub yuklamalari (mi, chi, a, ya), asosan, gapni so‘roq gapga aylantiradi: Bu kitobni o‘qidingizmi?; kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari (ku, ham, u, yu, da, oq, ki) gapga tasviriylik berib, so‘z ma’nosini kuchaytirish, shuningdek, ta’kid ma’nosini qo‘shish uchun ishlatiladi. Masalan, Necha marta uchrashay dedimku, vaqtim bo‘lmadi; ayiruv va chegaralov yuklamalari (gina, faqat) turli so‘zlar bilan kelib, ularni ajratib, chegaralab ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Masalan, U faqat o‘sha voqea haqida so‘zlardi; aniqlov yuklamalari (xuddi, naq, qoq) o‘zi aloqador bo‘lgan gap bo‘lagi ma’nosini aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, O‘g‘li otasining xuddi o‘zi. Yuklamalar, shuningdek, tasdiq, inkor, qistov kabi ma’nolarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Va yordamchi vazifasida keladi.

Maktab ta’limi davomida o‘quvchilarning yuklamalar haqidagi tushunchalari kengaytirilishi, to‘ldirilishi va to‘la shakllantirilishi kerak. Buning uchun, avvalo, o‘qituvchi yuklama haqida keng va puxta bilimga ega bo‘lishi zarur.

Yuklama o‘zi nima, u qanday so‘z turkumi, ularning gapdagi vazifasi nimadan iborat? Tuzilishiga, ma'nosiga va qo‘llanishiga ko‘ra qanday turlari mavjud? Bu savollarga javob topish, ularni o‘quvchilar ongiga singdirish, buning uchun ta'limning

eng yaxshi va yangi usullaridan foydalanish har birimizning oldimizdagi mas'uliyatli burchimizdir.

Yuklama so‘z yoki gaplarga so‘roq, ta'kid, ayiruv-chegaralash, gumon, o‘xshatish, inkor ma'nolarini yuklovchi so‘z va qo‘shimchalardir. Ularga:

1) axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go‘yo, go‘yoki, naq, hech, sira, nahotki, na...na so‘zlari;

2) -mi,-chi, -a, (-ya), -ku, -u (-yu),-da, -oq (-yoq), -gina (-kina, -qina), -dir kabi qo‘shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruhi so‘z yuklamalar, ikkinchi guruhi qo‘shimcha yuklamalar hisoblanadi.

Yuklamalar ma'nosiga ko‘ra olti turga bo‘linadi:

1. So‘roq-taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a (-ya).

2. Kuchaytiruv - ta'kid yuklamalari: hatto, -ki, ham, nahotki, axir, g'irt, -u (-yu), -da, oq (-yoq).

3. Ayiruv-chegaralov yuklamalari: faqat, atigi, -gina (-kina, -qina).

4. O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari: go‘yo, go‘yoki, xuddi,naq.

5. Gumon yuklamasi: -dir.

6. Inkor yuklamalari: hech, sira, na.na.

Yuklamalar sof va vazifadosh bo‘ladi: -u (-yu), -da yuklamalari o‘rnida va bog'lovchisini ishlatish mumkin.

Ham yuklamasini -da yuklamasi o‘rnida ishlatish mumkin.

Yuklamalar ichida gumon va inkor yuklamalari murakkabroq bo‘lib, o‘quvchilar ularni ajratishga qiynaladilar. Gap mazmuniga gumon ma'nosini yuklovchi -dir qo‘shimchasi gumon yuklamasi hisoblanadi. Bu yuklama -man, -san qo‘shimchalari qatorida turuvchi uchinchi shaxs qo‘shimchasi -dir bilan shakldoshdir, -dir yuklamasi urg'u olmaydi.

Suv hayot manbaidir. Bu gapda -dir qo‘shimchasi kesimlik qo‘shimchasi bo‘lib, gumon ma'nosini ifodalamaydi.

Ukam manzilga yetib olgandir. Uyga borayin-chi, onam kelgandir. Ushbu gaplarda esa -dir gumon ma'nosini ifodalovchi yuklamadir. Bu yuklama fe'ldan boshqa so‘z turkumlariga qo‘shilganda ko‘proq kesimlik qo‘shimchasi vazifasida keladi. Ayrim holatlardagina gumon manosini ifodalashi mumkin. Masalan, O‘sha kelgan mening onamdir. Endi bunga balki modal so‘zini qo‘shsak, gumon ma'nosi kuchayadi: Balki, o‘sha kelgan mening onamdir. Bu gaplardagi gumon ma'nosi ko‘proq kontekstda aniqlanadi. Ohangni o‘zgartirish orqali ham gumon manosini berish mumkin.

Inkor yuklamasi so‘z yoki gapga inkor ma'nosini yuklaydi. Inkor yuklamalariga also, sira, hech, na...na kabilar kiradi. Yuklamalarni o‘quvchilarga ongli va qiziqarli tushuntirish, albatta, o‘qituvchidan bilim va mahorat talab etadi. Shunday ekan, har

bir dars jarayoni qiziqarli hamda tushunarli bo‘lishi uchun turli usullarni qo‘llab ko‘rish muhim sanaladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Mahmudov, (A.Nurmonov), A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘raboyeva. 5-sinf Ona tili. Toshkent-2015.

2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf. Ona tili. Toshkent-2013.

3. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. T.:2010

“SUHBAT” VA “SINKVEYN” METODLARINING QO‘LLANILISHI

Matyakubova Rayxan Tulibayevna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
o‘zbek tili o‘qituvchisi
Sultanova Muyassar Djumanazarovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7503368

Annotatsiya: Mazkur maqolada dars jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati hamda ona tili va adabiyot darslarida qo‘llaniladigan “Suhbat” va “Sinkveyn” metodlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ona tili, adabiyot, metod, so‘z, interfaol, “Suhbat” va “Sinkveyn”.

Dars – muqaddas. Buni har bir o‘qituvchi chuqur anglagan holda har bir darsiga alohida e’tibor va mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Shundagina o‘qituvchi o‘quvchilarga yangi bilim beribgina qolmasdan, ularning qalbida fanga bo‘lgan qiziqish uyg‘ota oladi. Buning uchun esa bugungi kunda mamlakatimizda barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yetarli. O‘qituvchilardan esa yaratilgan imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishgina talab etiladi xolos.

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodga, ularni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda esa, albatta, ta’lim muassasalarining, ayniqsa, maktablarning roli va ahamiyati nihoyatda katta. Shuning uchun ham mamlakatimiz ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

Darhaqiqat, bugungi ta’lim jarayonini interfaol usullarsiz tasavvur etish qiyin. Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar muayyan guruhlarda o‘qitiladigan o‘quv fanining bosh maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda, qo‘llanilgan interfaol usul hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. O‘qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to‘g‘ri muloqot qila olishini ta’minlashi, tilda mavjud, biroq o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan yangi so‘z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo‘llashga harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur. Interfaol usullardan foydalanilgan holda o‘tilgan darslar o‘quvchilarni ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga chorlaydi

Shunday ekan, har bir fan o‘qituvchilari qatori ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilaridan ham darslarni interfaol metodlarni qo‘llagan holda qiziqarli qilib

o‘tish talab qilinadi. Quyida “Suhbat” va “Sinkveyn” metodlari va ularni dars jarayonida qo‘llanilishi haqida kengroq to‘xtalamiz.

Ta’lim jarayonida hamisha yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelgan **“Suhbat” metodi** o‘quvchi tafakkuri mustaqilligini ta’minlashda ham qo‘l keladigan metodlardandir. Suhbatda ishtirok etgan o‘quvchi o‘z fikrlarini muhokama qiladi, qarashlarini so‘z bilan ifodalashga tayyorlanadi. Bu fikrning aniq va muayyan maqsadga yo‘naltirilishini ta’minlaydi. Suhbat jarayonida o‘quvchida o‘z fikrini aytish, uning to‘g‘riligiga hamsuhbatlarini ishontirish ehtiyoji tug‘iladi. O‘quvchida o‘z fikrini isbotlash uchun asar matnidan dalillar topa bilish, misollar keltirish ko‘nikmasi shakllanadi, e’tiroz bildirishga odatlanadi. U hamsuhbatni eshitish, munozarada ishtirok etishga o‘rgatadi, o‘z bilimini chuqurlashtirishga ehtiyoj tug‘diradi, qiziqishlari doirasini kengaytiradi. Adabiy asarlarni o‘rganishda “Suhbat” metodi o‘quvchiga nafaqat bilim beradi, balki aqliy faoliyatga ham yo‘naltiradi. Suhbat davomida har bir o‘quvchining individual jihati namoyon bo‘ladi. Adabiyot darslarida to‘g‘ri tashkil etilgan suhbatlarda bitta masala bo‘yicha bir necha o‘quvchi, ba’zan butun sinf fikr aytadi.

“Suhbat” metodi adabiy ta’limning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o‘zlashtirishda ham, uning tahlili mobaynida ham, yakunlovchi bosqichida ham qo‘l keladi. Amaldagi 6-sinf “Adabiyot” darsligida X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan parcha berilgan. Shu asarni “Suhbat” metodidan foydalangan holda o‘tish uchun “Muallif o‘quvchimi Hoshimjonning tabiati bilan qanday tanishtiradi?” degan asosiy savol o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar uning uning mohiyatiga chuqurroq kirishlari uchun esa: “Hoshimjonning tashqi jihati, xatti-harakatlarida qanday belgilar ko‘zga tashlanadi?”, “Uning o‘rtoqlari bilan munosabatida qanday jihatlarni ilg‘adingiz?”, “Uning onasi bilan munosabatlarida-chi?”, “Hoshimjonning jurnalga baholarni o‘zi qo‘yganini tan olishini qanday baholash mumkin?” singari yordamchi savollar taqdim etiladi. Ular o‘quvchilarni asar matnini mustaqil ravishda tahlil qilib, mustaqil xulosalar chiqarishga, qarashlarini asoslashga ko‘maklashadi. Suhbatni “Yelvizak” metodi ham deyishadi.

Sinkveyn - fransuz tilida “5 qator” ma’nosini bildiradi. Sinkveyn-ma’lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda, o‘quvchi so‘zi bilan turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

Sinkveyn tuzish- murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir.

Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

1- qator: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).

2- qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).

3- qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakatni uchta so‘z bilan ifodalanadi (3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).

4- qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to‘rtta so‘zdan iborat bo‘lgan fikr yoziladi.(4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).

5- qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan bitta so‘z yoziladi (mavzuga sinonim so‘z yoziladi).

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, “Suhbat” va “Sinkveyn” metodlarini ona tili va adabiyot, shuningdek, o‘zbek tili darslarida qo‘llash o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Yo‘ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta’limning interfaol metodlari (metodik qo‘llanma). Urganch-2011.

2. G‘. Yo‘ldoshev, S.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent-2004.

3. www.ziyo.uz.

ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Bo‘ronova Xolida
Navoiy viloyati Nurota tumani 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang'ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515346

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning nutqini o‘stirishda ona tili fanining o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, kompetensiya, matn, muhokama, xotira, grammatika, ta’lim, texnalogiya.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarga innovatsion, ilg‘or usullar va metodlarni qo‘llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim berish hamda o‘quvchilarning ta’limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlarstrategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o‘quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan “mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini kengaytirish tub islohotlar zamirida rivojlanayotgan davlatimizda faol, izlanuvchan va zamon bilan hamnafas bo‘lishni taqozo etadi. Ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a’zolari o‘rtasida bajaradigan ana shu vazifasi – o‘quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan moddiy borliqdagi narsabuyumlar va voqea-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma’lum qiladilar.

Ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning jamiyat a’zolari o‘rtasida bajaradigan ana shu vazifasi – o‘quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o‘z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo‘ladilar. Ular doimo o‘zlarini o‘rab olgan moddiy borliqdagi narsabuyumlar va voqea-hodisalar to‘g‘risida fikr yuritadilar va o‘z fikrlarini bir-birlariga ma’lum qiladilar. Ona tili darslarida bunday matnlardan juda ko‘p foydalanishga to‘g‘ri keladi. “Bizning oila”, “Yoz kunlarining birida”, “Mening do‘stim” kabi mavzularda yaratiladigan matnlar shular jumlasidandir.

Ona tili darslarida keng qo‘llaniladigan matnning yana bir turi muhokamadir. Muhokama matnining o‘ziga xos xususiyati shundaki, so‘zlovchi bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o‘z munosabatini bildiradi. O‘z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U kuzatish, taqqoslash natijasiga tayanib, ma’lum bir fikrni rad etadi va bu haqida o‘z hukmini chiqaradi. Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik,mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo‘rlik, to‘g‘rilik va egrilik, yaxshi so‘z va yomon so‘z, do‘stlik va dushmanlik, botirlik va qo‘rqoqlik, odob va odobsizlik, qadr-qimmat va qadrsizlik, sabr-toqat va sabrsizlik kabi mavzularda bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Yuzga aytganning zahri yo‘q”, “Dili to‘g‘rining – yo‘li to‘g‘ri”, “Yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi”, “Sayoq yurgan tayoq yeydi” kabi. Ona tili darslarida egallagan til hodisalarini eslash, o‘rganilgan matn mazmunini xotirada tiklab, uni qayta himoya qilib berish ham og‘zaki nutqning rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Xullas, hosil qilingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llab, grammatik topshiriqli matnlar yaratish ona tili darslarida ko‘p qo‘llanadigan ijodiy ish turi bo‘lib, undan samarali foydalanishga erishish zarur.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH METODIKASI

Bo‘ronova Nargiza
Navoiy viloyati Nurota tumani 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515354

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish metodikasi, o‘quvchilarning o‘qish va yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish haqida fikr boradi.

Kalit so‘zlar: Metodika, yozish ko‘nikmasi, o‘zbek alifbosi, o‘qish malakasi, globallashuv, nutq faqoliyati, yozma nutq, og‘zaki nutq.

Ta‘lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirgan kelajakda jamiyatda o‘z o‘rnini egalashga erishgan-komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlarda umumta’lim maktablari hal qilivchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Maktablarda kelajak avlod vorislarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan imkoniyatlar o‘z navbatida, pedagog xodimlardan sifatli ta’lim-tarbiya berishni, o‘quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o‘z navbatida har bir o‘qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas’uliyat va vazifalarni yuklaydi.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim-tarbiyaning poydevoridir. Poydevor qanchalik mustahkam bo‘lsa imorat shunchalik chidamli bo‘lganidek, mukammal boshlang‘ich ta’lim olgan o‘quvchilar yuqori sinflarda va ta’limning keyingi bosqichlarida hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladi.

Savod o‘rgatish metodikasi kichik yoshdagi o‘quvchilarni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish metod va usullarini aniqlash va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalari bilan shug‘ullanadi. Bolalarga savod o‘rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi milliy istiqlol g‘oyalaridan oziqlanish uchun, siyosiy onglilik uchun, yuksak ma’naviy madaniyat uchun kurash qurolidir.

Hozirgi globallashuv sharoitida Respublikada har bir kishining savodxon bo‘lishiga alohida e’tibor berilishi huquqiy demokratik davlat qurilishi talablariga muvofiqdir.

Savod o‘rgatish metodikasining maqsadi - bolalarni boshlang‘ich o‘qish va yozishga o‘rgatish. O‘zbek alifbosiga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o‘quvchilar o‘qish va yozish ko‘nikmasini egallaydilar. Savod o‘rgatish davrida til ta’limi mazmuni o‘quvchilarga beriladigan til va nutq sohasidagi bilim va ko‘nikmalar bilan belgilanadi. Savod o‘rgatish davrida o‘qish va yozish harakatinimaqsadga muvofiq

ravishda bajara olish o‘qish va yozish ko‘nikmasi deyiladi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, bola v harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki harflarni tanib, ular ishtirok etgan so‘zni o‘qiy olmasligi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi. O‘qish va yozish ko‘nikmasi takomillashtirila borib, malakaga aylantiriladi. Malakaning shakllanishi uchun bir faoliyat bir necha bora takrorlanishi lozim. Yozish malakasida o‘quvchi ruchkani qanday ushlash, qanday yurgizish haqida o‘ylab o‘tirmay, so‘z va gaplarni yoza boshlaydi. Demak, o‘qish va yozish malakasi harakatning o‘ylab o‘tirmay amalga oshirilish jarayonidir. Malaka o‘qitishning keyingi bosqichlarida mustahkamlanib, avtomatlashish darajasiga yetkaziladi.

O‘quvchini savod o‘rgatish jarayonida o‘qish va yozishga o‘rgatishda o‘quvchilarning faoliyat ko‘rsatishi va nutq faoliyatiga kirishishlari uchun talab qo‘yilishi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ifodalashi uchun zaruriyat va ehtiyojni yuzaga keltiruvchi vaziyat yaratilishi lozim.

O‘qish va yozish malakasi biri ikkinchisining muvaffaqiyatli amalga oshuvini ta’minlaydi. Shuning uchun ham o‘qishga o‘rgatish bilan yozuvga o‘rgatish parallel olib boriladi va bu faoliyat muntazam ravishda mashq qildiriladi. SHunday ekan, savod o‘rgatish jarayonida bola juda ko‘p o‘qishi va yozishi zarur. O‘qish uchun ham, yozish uchun ham yangi matn olinadi, chunki bir matnni bir necha bor qayta o‘qish bilan maqsadga erishish qiyin. Bu ko‘pincha o‘qilgan matnni yuzaki yodlab olishga olib keladi. Takroriy faoliyatda vaziyat va mazmunning almashinishi malakani mustahkamlashga yordam beradi, qobiliyatni o‘stiradi. O‘quvchi oldida uzoq muddatda amalga oshadigan maqsad - o‘qish va yozishni o‘rganish hamda hozirda bajarishi shart bo‘lgan kundalik maqsad - topishmoqni o‘qish va javobini topish, so‘z va gaplarni o‘qish, rasm asosida so‘zlab berish kabilar turadi. O‘zbek tili yozuvi tovush yozuvi, ya’ni fonematik yozuvdir. Har bir tovush uchun, har bir fonema uchun maxsus grafik shakl (harf) olingan. O‘qishda grafik shakllar tovushga aylantirilsa, yozuvda aksincha, tovushlar harflarga aylantiriladi. Bu o‘qish va yozish faoliyatida o‘quvchi uchun qiyinchilik tug‘dirgandek tuyulsa-da, aslida o‘qish va yozish jarayonini soddalashtiradi, chunki tilimizdagi tovushni ifodalovchi harflar soni uncha ko‘p emas. O‘qish va yozishni o‘zlashtirish uchun tovush va harflarning o‘zaro munosabatiga oid qoidalarni o‘zlashtirish kifoya. Savod o‘rgatish metodikasida o‘zbek tili tovushlar va harflar tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi.

Savod o‘rgatish jarayonidagi o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish orqali bolalarda

to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. SHuningdek, o‘quvchilar lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o‘stirishda ham bu davr mas’uliyatliligi bilan alohida o‘rin tutadi.Tayyorgarlik davri o‘qishga o‘rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o‘zgalar nutqini eshitish, diqqatni to‘plash, til birliklarini (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o‘quvchilarning o‘qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatishda o‘qituvchi e'tiborli bo‘lishi lozim. Chunki boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlari bilan o‘quvchi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 - Boshlang‘ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yunalishi. - Toshkent: 2006

2. S. Matchonov, H. Bakiyeva, X. G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, G. Xolboyeva “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi darslik”. Toshkent: 2021

3. WWW.ZIYONET. UZ (internet tarmog'i)

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Матякубова Наргиза Бахтияровна
Учитель начальных классов школа №8
Ст.Узбекистан,обл.Хорезм .г.Ургенч
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515362

Аннотация: Представленная методическая разработка «Дидактические игры на уроках математики в начальной школе » посвящена методике организации работы по развитие на уроках математики на разных ступенях начальной школы. Методические рекомендации содержат краткие теоретические сведения по данной теме и описание опыта автора в виде разработки урока по математики в1 классе.

Данная работа предназначена для учителей начальных классов, а также руководителей кружков

Ключевые слова: книга, чтение, духовность, знание, потенциал, мировоззрение, духовность.

Материал имеет четкую структуру, логическое и последовательное изложение, ориентирован на формирование компетенций обучающихся, разработан с учетом возрастных особенностей и специфики обучения. Данный материал соответствует требованиям системнодеятельностного подхода к обучению.

Содержание разработки соответствует теме и поставленным задачам, отображает авторское видение заявленной проблемы. Использованная в разработке информация представлена в доступной форме, последовательно, направлена на развитие познавательного интереса, не перегружена дополнительными сведениями и предусматривает наличие межпредметных связей.

Содержание и структура направлены на решение задач, поставленных педагогом, включают образовательный, воспитательный и развивающий компоненты, что обеспечивает опору на субъективный опыт обучающихся, реализацию компетентностного подхода, практическую направленность и ценностносмысловую ориентацию. Материал соответствует требованиям к педагогическим разработкам и авторским публикациям, предъявляемым техническим требованиям.

Дидактические игры на уроках математики в начальной школе.

Особенности использования дидактических игр на уроках математики.

Игра ценна только в том случае, когда она содействует лучшему пониманию математической сущности вопроса, уточнению и формированию математических знаний учащихся. Дидактические игры и игровые упражнения стимулируют общение между учениками и преподавателем, отдельными учениками, поскольку в процессе проведения этих игр взаимоотношения между детьми начинают носить более непринужденный и эмоциональный характер.

Практика показывает, что занимательный материал применяется на разных этапах усвоения знаний: на этапах объяснения нового материала, его закрепления, повторения, контроля. Использование дидактических игр оправдано только тогда, когда они тесно связаны с темой урока, органически сочетаются с учебным материалом, соответствующим дидактическим целям урока.

В практике начальной школы имеется опыт использования игр на этапе повторения и закрепления изученного материала и крайне редко применяются игры для получения новых знаний.

При объяснении нового материала необходимо использовать такие игры, которые содержат существенные признаки изучаемой темы. Также в ней должны быть заложены практические действия детей с группами предметов или рисунков.

При изучении раздела «Нумерация чисел первого десятка» используются прежде всего такие игры, с помощью которых дети осознают приемы образования каждого последующего и предыдущего числа. На этом этапе можно применить игру «Составим поезд».

Дидактическая цель: ознакомить детей с приемом образования чисел путем прибавления единицы к предыдущему числу и вычитания единицы из последующего числа

На основе использования игры «Составим поезд» учащимся предлагают считать число вагонов слева направо и справа налево и подводят их к выводу: считать числа можно водном направлении, но при этом важно не пропустить ни одного предмета и не сосчитать его дважды.

Также при знакомстве детей с приемом образования чисел можно использовать игру «Живой уголок».

Дидактическая цель: ознакомление детей с приемом образования чисел при одновременном закреплении пространственной ориентации, понятий «больше», «меньше».

Средства обучения: изучение животных.

Содержание игры: учитель говорит: «В нашем живом уголке живут кролики: серый и белый, кролики грызут морковь. Сколько кроликов грызут морковь? (два, ответ фиксируется показом цифры 2). Назовите, какие кролики

грызут морковь? (серый и белый). К ним прибежал еще один кролик. Что изменилось? (кроликов стало больше) Сколько кроликов теперь едят морковь? (три, ответ фиксируется показом цифры 3) Перечисли их (один белый и еще один белый, и еще один серый, всего три). Каких кроликов больше, белых или серых? (белых) Почему их больше? (их два, а два это один и один). Почему 2>1? (два идет при счете после числа 1). Аналогично можно рассматривать образование последующих чисел. При изучении нумерации в пределах десяти необходимо довести до понимания детей, что последнее названное при счете число обозначает общее количество всей группы предметов. С этой целью следует проводить игры «Лучший счетчик», «Хлопки». С помощью этих игр дети устанавливают соответствие между числом и цифрой.

Лучший счетчик»

Содержание игры: учитель на магнитном моделеграфе по секторам соответственно размещает от 1 до 10 рисунков. Открывая каждый сектор поочередно, учитель предлагает детям сосчитать число рисунков и показать нужную цифру. Сосчитавший первый называется лучшим счетчиком. Затем учитель показывает цифры вразбивку, а ученики – соответствующее число рисунков в секторах круга. В итоге игры учитель открывает 2 сектора, предлагает сравнить число рисунков в них и определить, где предметов меньше и на сколько.

«Хлопки»

Содержание игры: учитель на магнитном моделеграфе размещает по секторам от 1 до 10 рисунков. Открывая по очереди сектор за сектором, предлагает сосчитать число рисунков и по его сигналу похлопать столько же раз, сколько открыто рисунков, и показать нужную цифру. (учитель задает ритм хлопков).

Изучая числа первого десятка, важно сравнивать каждое предыдущее число с последующим и наоборот. Для этого предназначены игры «Лучший счетчик», «Число и цифру знаю я».

Содержание игры: учитель на магнитном моделеграфе поочередно открывает сектор за сектором, дети считают число цифр в каждом из них и показывают учителю соответствующую карточку с цифрой, а затем сравнивают число цифр в двух соседних секторах магнитного моделеграфа.

Работа над составом числа начинается в разделе «Нумерация числа первого десятка». Состав чисел от одного до пяти дети в этот период должны знать на память, состав чисел 6-10 можно рассматривать на наглядной основе, на следующем этапе дети знакомятся с составом чисел на основе сложения по памяти. На третьем этапе дети воспроизводят состав чисел на основе выявленной закономерности: числа, стоящие на одинаковых местах (слева и

справа) в числовом ряду, составляет в сумме последнее число в этом ряду. В этот период большую помощь учащимся в изучении состава чисел окажет игра «Числа, бегущие навстречу друг другу»:

Дидактическая цель: знакомство с составом числа 10.

Содержание игры: учитель предлагает детям записать в тетради числа от 1 до 10 по порядку и дугами показать два числа, которые бегут навстречу друг другу, образуя в сумме число 10. Затем просит записать примеры на сложение с этими числами. Например:

0 1 2 3 4 5 6 7 8 9 10

0+10=10 10+0 =10

1+ 9 =10 9 +1 = 10

Учитель спрашивает: «Что интересного вы заметили при составлении примеров? Дети отвечают, что числа, стоящие на одинаковых местах справа и слева в числовом ряду, составляют в сумме число 10»

При изучении нумерации чисел в пределах 20 можно выделить 4 этапа:

1. Образование чисел путем прибавления единицы к предыдущему числу и вычитание единицы из последующего числа. Игра «Составим поезд».
2. Образование чисел из десятков и единиц. Здесь можно предложить игру «Математическая эстафета».
3. Анализ состава чисел в пределах 20. Можно использовать игру «Узнай, сколько палочек в другой руке».
4. Письменная нумерация чисел в пределах 20. На этом этапе можно предложить игру «Стук-стук».

«Математическая эстафета».

Дидактическая цель: ознакомление с образованием чисел из десятка и единиц.

Средства обучения: 10 кругов и 10 треугольников из приложенных к учебнику математики для 1 класса.

Содержание игры: учитель делит класс на 3 команды по рядам и проводит игру-соревнование. Первый ученик из первой команды иллюстрирует число с помощью кругов и треугольников, второй из этой же команды называет обозначенной число, третий – его состав, четвертый показывает число на карточках.

При изучении нумерации чисел в пределах 100 задача состоит в том, чтобы научить считать и записывать числа. Установлению связи между устной и письменной нумерацией поможет известная игра «Молчанка».

Содержание игры: учитель иллюстрирует на абаке или карточках двузначные числа, а учащиеся обозначают их с помощью разрезных цифр и показывают их молча учителю или записывают в тетради.

Заключение.

Таким образом, можно сделать вывод, что игра – одно из важнейших средств умственного и нравственного воспитания детей. С приходом ребенка в школу изменяется его социальная позиция, ведущая деятельность из игровой превращается в учебную и основным видом его деятельности должно стать учение. Поэтому в начальной школе необходимо заложить у обучающихся основы учебной деятельности. Однако этот процесс осложняется возрастными особенностями младших школьников: слабой переключаемостью внимая, его неустойчивостью, непроизвольностью памятью и мышления. Для преодоления этого и в учении должны широко использоваться игровые формы активности детей – учебная деятельность младшего школьника должна быть пронизана игровыми моментами.

Игра – это средство, снимающее неприятные или запретные для личности школьника переживания. Поэтому учение должно быть организовано таким образом, чтобы оно выступало как свободная форма активности учащихся, и такой формой активности, уже освоенной младшими школьниками является игра.

В заключение отметим, что в данной работе весь приведенный игровой материал имел место на уроках преподавателей кемеровской школы № 8. Учителя постоянно наблюдали у своих учеников эмоциональный подъем, высокий познавательный интерес, стремление выйти за пределы учебника. Обучающиеся лучше запоминали новый учебный материал. Таким образом, практика работы с игровым материалом подтверждает целесообразность включения игр в арсенал приемов, активизирующих познавательную деятельность обучающихся.

Список литературы.

1. Агафонова И.Н. Уроки общения для детей 6 - 10 лет «Я и мы»: программа/ И.Н.Агафонова.- СПб., 2003.
2. Климова, С.А. Текстовые упражнения на уроках русского языка / С.А. Климова // Начальная школа, 2012, № 7. С. 6 — 11.
3. Ладыженская. Т.А. Система работы по развитию связной речи учащихся / Т.А. Ладыженская. М. - Педагогика, 2011. - 255 с.
4. Медведева Н.В. Развитие творческих и орфографических умений на уроках русского языка -№ 02, 2011, с. 51–52
5. Рамзаева Т.Г., Львов М.Р. Методика обучения русскому языку в начальных классах: Учеб. пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2121 «Педагогика и методика нач. обучения». - М.: Просвещение, 2009. — 431 с

FARIDA AFRO‘Z SHE’RIYATINING MAVZU DOIRASI

Saida Kurbanova
Urganch davlat universiteti dotsenti
Polvonnazarova Mashhura
UrDU magistratura bo‘limi 221-adabiyotshunoslik
guruhi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515370

Annotatsiya: Bu maqolada modern o‘zbek she’riyati vakili Farida Afro‘z she’riyatining mavzu ko‘lami va unda ish-muhabbat hamda pand-nasihat mavzularining o‘rni xususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Annotation: In this article, opinions are expressed about the themes of poetry of Uzbek modern poetress Farida Afruz, firstly, themes of love and admonition are expressed.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о масштабах поэзии Фариды Афроз, представительницы современной узбекской поэзии, и месте в ней любви и совета.

Kalit so‘zlar: muhabbat, “Ayolni sev”, Abdulla Qahhor, poeziya, pand-nasihat.

Key words: love. “Love the woman”, Abdulla Kahhor”, poetry, admonition.

Ключевые слова: любовь, "Люби женщину", Абдулла Каххор, стихи, советы.

She’riyat shunday chuqur bir ummonki, uning bag‘riga sho‘ng‘iganing sari ko‘ngil sadafiga jo qilishga arzigulik dur-u gavharlarga duch kelasan kishi. Ana shunday qalb torlarini chertguvchi she’rlari bilan kitobxonlar dilidan joy olgan istiqlol davri ijodkorlaridan biri Farida Afro‘z (Farida Bo‘tayeva) dir.

Shoira 1956-yil 5-martda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutida tahsil olgan. Farida Afro‘z “Qirq kokilligim”, “Iztirob ko‘ylagi”, “Tunlar isyoni”, “Ko‘zim manim”, “O‘zimdan o‘zimgacha”, “Ushshoq”, “Gun aydin” (Istambul), “Ot Faridi Afruz” (Moskva), “Tasbeh” she’riy kitoblar muallifidir.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev aytganidek: “Tuyg‘u ifodasi bo‘lmish she’rda yaratilgan davr kishisining hissiyoti aks etadi. Odamlarda boshqalarga o‘xshashdan ko‘ra o‘xshamaslikka intilish mayli kuchli. Jamiyatdagi har bir shaxs o‘zini izlay boshlaganda shunday bo‘ladi. Demak, bugungi she’riyatni har biri shaxslashib , alohidalashib borayotgan millat kishisi ruhiyati ifodasi, deyish

mumkin”.[15] Farida Afroʻz ijodiyotida ham oʻziga xoslik, ohoriylik (originallik), tuygʻularni ochiq-oydin tasvirlash yetakchilik qiladi.

Istiqlol sharofati tufayli yuzaga kelgan ijod erkinligi, mustaqil fikrlashga keng yoʻl ochgan asosiy omil boʻlmoqda. Shuningdek, ijodiy oʻziga xoslik ijodkor “men”i, oʻzini kashf etish orqali poetik fikrning ijtimoiy-estetik mohiyatini chuqurlashtirish, shaxsiy iqtidori, dunyoqarashi, obrazli ifoda va tasvir uslublaridan samarali foydalanish kabi omillarda ham namoyon boʻlayotir.

Farida Afroʻz she’rlarining mavzu doirasi keng va xilma-xildir. Shoira qaysi mavzuda qalam tebratmasin, ohorli ifodalar, badiiy topilmalar topa oladi va oʻquvchini yangilikka oshno etadi. Barcha shoirlarda boʻlgani kabi Farida Afroʻz she’rlarida ham muhabbat mavzusi yetakchi oʻrinni egallaydi, bundan tashqari tabiat, inson ruhiy kechinmalari, hissiyotlar, maishiy mavzulardagi she’rlari ham talaygina. Xususan, ayol qalbi kechinmalari, inson hissiyotlari psixologiyasini, kayfiyatlar ruhiyatini, hissiy tafakkur ranglarini yaxlit uygʻunlashtirishga erishish Farida afroʻz she’riyatining bosh xususiyatlaridan biridir.

Bu kunlar ham gʻanimat,
Qorlar bahor bitmoqda.
Kelsa, bahor omonat,
Oʻtsa, umr oʻtmoqda.
Kel, ey mening mensizim,

-deya pokiza muhabbatni sogʻinib, sogʻinchlari toʻlqinlantirayotgan qalb nolalarini faqat toʻliqib, joʻshib oʻqish mumkin. Shoiraning “Sochlarimni rayhon oʻpdi”, “Sen osiysan, men noshukur”, “Nadomat” she’rlari kitobxonning mudroq tuygʻularini uygʻota boshlaydi, sof muhabbatni sogʻinib, qadriga yetib yashashga, oʻzlikni, haqiqatni anglashga chorlaydi. Beixtiyor koʻngilga sezdirmay nozik chertib oʻtadi. Farida Afroʻz tuygʻulari uygʻoqligini inson tirikligining mezoni, deb biladi.

Farida Afroʻzning “Ayolni sev” misralari bilan boshlanuvchi she’ri ham fikrimizning mantiqiy davomidir. Ushbu she’rda ham ayolga e’tibor, uni sevish, uni ardoqlashga chorlovchi satrlarni guvohi boʻlamiz.

Ayolni sev,
Ostonasin oʻp.
Qasr qurma, koʻnglini soʻra.
Balo kelsa turib beradi.
Yoki:
Ayolni sev,
Oʻlaman degil.
Ishq yaratgan parvardigordan.

[15] “Sharq yulduzi”, 2013,3-son,133-bet.

Senga umr so‘rab beradi. [16]

Ayol kishi dunyoda sevilishga munosib bo‘lgan go‘zal xilqat. Uni sevishning, ardoqlashning o‘zi kifoya. Har ne baloga qalqon bo‘ladi. Siz uni sevganingiz, ardoqlaganingiz uchun tangridan sizga tun-u, kun umr tilaydi.

Donishmandlardan biri: “Shoirlar- iztirob tomonidan millionlab odamlar orasidan tanlangan qullardir”,- degan edi. Chindan ham ijod ahli ko‘ngli nozik, qalbi g‘am-g‘ussani, armonni jon-tani bilan his qiladigan insonlar. Ayol ko‘z yoshi ijodkor she’rlarining asosiy obrazi hisoblanadi. Ko‘z yoshlar – lirik qahramon tafakkur to‘lqinlarining, fikrga cho‘mgan tuyg‘ularining oniy bir lahzasi. Ya’ni, ayol kechinmalarning ma’nosini ifodalayotgan vosita.

Qon yig‘lar, qon yig‘lar bir tuyg‘u, - deydi, shoira “Ilinj” she’rida. Ayol dardni yig‘lab yengadi. Og‘ir damda dildagi g‘uborlarni yuvadi go‘yo. “yomg‘ir mening sog‘inch yoshlarim”, “To‘yib, to‘yib yig‘lab olay men, Menga to‘yib oqarsin tonglar” misralarida lirik qahramon ko‘z yoshdan o‘ziga taskin izlaydi. Ayol ko‘zi nimadan yoshlanadi albatta, sog‘inchdan, alamdan, azobdan, armondan.

Ayirdilar, ko‘ngillari tog‘ bo‘ldi,
U tog‘larda ohularim bo‘zladi.
Ohularim – armonlarim har kecha,
Tushlarimda ko‘z yoshlarim yalaydi.

Ayriliqning achchiq zahrini totgan ayol dardlari ifodasi bo‘lgan bu she’rda lirik qahramon iztiroblari o‘ta dardchil ruhda ifoda etilgan. Uni ishqdan judo qilganlarning ko‘ngli shod, tog‘ qadar yuksak. Ular dilga sololgan armon ayol ko‘z yoshlarini artib unga taskin beradi. She’rda armon ohuga qiyoslanadi. Bu esa shoiraning yana bir poetik topilmasidir.

“Topshirdim, o‘rnimga yig‘lasin osmon” - deb yozadi shoira. Uzoq ko‘z yosh to‘kkan lirik qahramon oqibat bariga chek qo‘yadi. Misralarda ayol qat’iyati ifodalanadi. Shoira she’rlaridagi ko‘z yoshlar ana shu taxlit ma’nolar bilan ramzga aylangan.

Farida Afro‘z she’rlari hech kimda takrorlanmas misralarga boy, sermazmun she’rlardir, ayniqsa, ishq-muhabbat, visol, sog‘inch iztirobi tarannum qilingan she’rlarni o‘qigan kitobxon qayta-qayta o‘qiydi. Quyidagi eng yoqtirgan she’rlarimdan bir baytini tahlilga tortsak. Endi ko‘z yoshlarini osmonga topshirgan lirik qahramon mag‘rur, ishqqa bo‘yin egmas qahramonga aylanadi, sababi qiyinchiliklar insonni kuchli qiladi:

Sog‘ina, sog‘ina, sog‘inmay qo‘ydim,
Endi menga baribir kelsang, kelmasang.

[16] XXasr o`zbek she’riyati antalogiyasi.Toshkent-2007.334-bet

Qo‘lingdan kelsa gar osmonni tashla,
Endi menga baribir , sevsang, sevmasang.

Bu misralarda mag‘rur mashuqaning qiyofasi shunday mahorat bilan chizilganki, unga endi oshiq sevsa ham, sevmasa ham farqi yo‘q, chunki u sog‘ina,sog‘ina, sog‘inmay qo‘ygan, muhabbat neligin unutgan, o‘zni butunicha qismatga tutgan qahramondir.

Farida Afro‘z she’rlarida nasihatnoma, pandnoma mavzulari ham ustunlik qiladi. Shoiraning “Umr o‘zi bir kundir”, “Do‘stim otang qariyapdi”, “Duo olganlardan duo ol bolam” kabi she’rlarida yuqoridagi ohanglar betakror, original tarzda tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin:

Arg‘umchoqlar uchgin, kamalak bilan,
Gir aylan, raqs tush, kapalak bilan,
Yashasang, yasha, faqat, jon halak bilan,
Umr asli bir kundir, o‘sha kun — bugundir.

Yuqoridagi misralarda shoira Olloh bergan umrning har bir kunini vaqtichog‘lik bilan, har daqiqaning qadriga yetib, undan unumli foydalanib yashash kerakligiga ishora qiladi. Shu o‘rinda dilbar shoir Bobur Mirzoning quyidagi satrlarini eslash o‘rinlidir:

Ey ko‘ngul, o‘zni aysh ila tutmoq kerak,
Bizni unutqonni unutmoq kerak.
Aysh-u tarab gulbunig‘a suv berib,
G‘ussa niholini qurutmoq kerak.

Ma’lumki, mumtoz adabiyotimiz ijtimoiy borliq va insonni tadqiq etishda boy an`ananalar qoldirdi. Mumtoz shoirlarimizning ko‘hna Sharq adabiyoti va og‘zaki ijod poetikasiga murojaat etishlaridagi o‘ziga xosliklar, shartli romantik tasvir usullaridan dadil foydalanishlari yangi davr san`atkorlari uchun o‘ziga xos ijodiy o‘rganish maktabi rolini o‘tadi. Mumtoz adabiyotning yirik vakili shoh va shoir Bobur Mirzoning mazkur “Kerak” radifli g‘azalida hayotsevarlik ruhi ufurib turibdi. Farida Afro‘z mumtoz adabiyot ummonidan bahra olgan shoira sifatida ularning an’analarini yangi ohorli tashbehlar bilan boyitadi. “Yashasang, yasha, faqat, jon halak bilan” misralarida esa shoira tinib-tinchimas, mehnatsevar, kuyunchak insonlarga ishora qiladi.

Ertani o‘ylamoq sen uchun emas,
O‘tganga yig‘lamoq sen uchun emas,
Jazoni qo‘llamoq sen uchun emas,
Umr asli bir kundir, o‘sha kun — bugundir.

Inson ertangi kuni yaxshi bo‘lishi uchun ham bugun to‘g‘ri ish qilishi lozim. Har bir kun qilgan ishi unumli, rejali, foydali bo‘lishiga intilmog‘i, faqat va faqat yaxshilik, ezgulikni o‘ylamog‘i zarurligi ta’kidlanadi.

Etagingdan shamol o‘tdimi, basdir,
Tiriklik oldida har neki, hasdir,
Boshing omon bo‘lsa, tog‘lar ham pastdir,
Umr asli bir kundir, o‘sha kun — bugundir.

Tiriklikning qadriga yetish haqida ota-bobolarimiz ham juda ko‘p dono fikrlar aytganlar. Darhaqiqat, tiriklikning o‘zi bir ne’mat, katta hikmatdir. Shoira ta’kidlaganidek, “Boshing omon bo‘lsa, tog‘lar ham pastdir”. Bugunning qadriga etgan kishi, albatta, ertaning ham, indinning ham qadriga yetishi tayin.

Ota-onang qaytmadi, sen ham qaytmassan,
Bu olam tubiga sen ham yetmassan,
Ki, Navoiy aytmadi, sen ham aytmassan,
Umr asli bir kundir, o‘sha kun — bugundir.

Nuhdayin umr ko‘rmoq istasang ham — shu,
Vaqtning tulporini qistasang ham — shu,
Yaxshi nom olsang ham, olmasang ham –shu,
Umr asli bir kundir, o‘sha kun — bugundir.

Ey, Farid, lahzalar, shukri-la, yasha,
Bu dunyo bayramdir, qilgin, tamosha,
Oshiq noming qolar asrlar osha,
Umr asli bir kundir, o‘sha kun — bugundir.

Shoira insonlarni vaqtning qadriga yetishga undar ekan, ota-bobolar tarixini bilishga, ularning ezgu ishlaridan o‘rnak olishga, lahzalarni qadrlashga va shukronalik tuyg‘usi bilan yashashga da’vat qiladi. Shoira xalq donoligi namunalaridan ilhomlanar ekan, ularni takrorlashga emas, balki boyitishga, ma’no salmog‘ini kengaytirishga intiladi. Ko‘tarinki kayfiyat, jo‘shqinlik she’r oxirigacha kitobxonni tark etmaydi. Darhaqiqat, hayotbaxsh romantik ifodalash usulining imkoniyat ufqlari benihoya keng va rang-barangdir, she’rda bu xususiyat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Quyidagi misralarga diqqat qaratsak:
Men seni juda ko‘p axtardim,
Dunyoni gir kezdim, tashna, bemajol,
Oldimdan oqqan suv.

Haqiqatan, inson zoti uchun hech qachon oldidan oqqan suvning qadri bo‘lmaydi. Odamzot doim o‘z baxtini olislardan izlaydi, uzoq-uzoqlarga intiladi. Ammo bilmaydiki, har bir otgan tonggimizning o‘zi bir baxt. Shoira aytganidek:

Bugun tongda tirik uyg‘ondim,
Bir kosa suv ichdim.

Shukur...

Hayot bizga berilgan eng bebaho ne’matdir, uning har lahzasini behuda o‘tkazmaslik, har bir daqiqasidan unumli foydalanish va bu tiriklikning qadriga yetib shukronalik keltirish har bir inson uchun muhimdir.Lirik qahramon shu fikrni oddiy, sodda poetik ifoda orqali tasvirlagan.

Ustoz Abdulla Qahhor “Poeziya-yuksak san’at” maqolasida yozganidek, “She’rning mo‘jizalik sirlaridan voqif bo‘lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muyassar bo‘lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak”[17]. O‘sha “kerak nimadir”, nazarimizda, ilohiy ne’mat - badiiy kashf etish salohiyatidir. Bu salohiyat sohibalaridan biri Farida Afro‘z ham insonlarga she’riyatning ana shu sirlari qatlaridagi farahbaxsh ezgulik va go‘zallikni ulashayotgan shoiralaradan sanaladi.

Shoira ijtimoiy hayotning muayyan tomonini poetik tadqiq qilar ekan, u inson qalbida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg‘ular talashini ifodalashni e`tibordan soqit qilmaydi. Inson ruhiy qudratini rang-barang ko‘rinish va vaziyatlarda kashf etish, shu orqali uning yaratuvchilik, bunyodkorlik hamda borliqdagi barcha sodir bo‘lgan, bo‘layotgan voqealarga mas’uldorlik hissini ulug‘ladi.

[17] Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас.-Тошкент:Ёш гвардия,1987.-Б.26.

SHAVKAT RAHMON IJODIDA PRETSEDENT BIRLIKLARNING ANTROPOSENTRIK TADQIQI

Ismatova Mahliyo Ulug‘bek qizi
BUXDu magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515377

Annotatsiya: Ushbu maqolada muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan , nutqiy faoliyatda qayta –qayta murojaar qilinadigan shaxs nomlari pretsedent birlik sifatida Shavkat Rahmon ijodida o‘zgacha mazmun baxsh etishi to‘g‘risida fikr yuritiladi.Bu kabi birliklar ma’lum bir millatda mashhur bo‘lgan o‘sha til sohiblari uchun muayyan assotsatsiyani hosil qila oladigan ommalashgan antropologik birliklardir.

Kalit so‘zlar : Pretsedent birlik , Lisoniy xotira , Antroposentrik tadqiq.

“Pretsedent “- Atamasi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida rus tilshunosi Y.N. Ka rulov tomonidan olib kirilgan.Ushbu birliklar adabiyotda keng qo‘llaniladi. O‘z navbatida o‘quvchi u yoki bu voqea –hodisaga ishora qiluvchi nomni ko‘rar ekan ,uning ko‘z oldiga o‘sha shaxs bilan bog‘liq tarixiy va badiiy manbaalar kela boshlaydi.

Masalan :

Nuh (a.s.) – uzoq umr , to‘fon vaqti

Ya’qub (a.s)- g‘am ,alam , firoq

Xo‘tan – kiyigi bilan mashhur joy.

Har bir ijodkor o‘zidan avvalgi va keyingi ijodkorlardan ajralib turadi.Har birining o‘z aytar so‘zi , tanlagan yo‘li bo‘ladi. Zero , insoniyat xayoli har qancha chuqur bo‘lmaasin ,u also bir –birini takrorlamaydi.Shavkat Rahmon o‘z ijodida zamondosh shoirlar singari, istiqlol g‘oyalarini ,xalqning o‘z kelajagi yo‘lidagi jasoratli kurashini deyarli har bir she’rlarida singdiradi.Uning asrlarida tarixiy shaxslarga murojaat ham tez – tez ko‘zga tashlanadi :

Zabt etgani kelmadim seni,
Eng ichida yo‘qdir pichog‘im.
Men Iskandar ,Chingizxon emas,
Osmon kabi ochiq quchog‘im. (“Saylanma “ ,44- bet)

Ushbu she’rda muallifning tarixiy shaxslarga murojaati ,albatta , ramziy ma’nolarga ishoradir. Barchamizga tarixdan ma’lum-ki , Iskandar va Chingizxon shoh sifatida bir qator davlatlarga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan. O‘z o‘rnida bosib olingan hududlarni talon –taroch qilish ,hatto , vayronaga aylntirish holatlari ham ,shubhasiz , uchrab turgan.Ijodkor esa lirik qahramonning xarakterini

ochib berishda , uning nechog‘li bag‘ri keng va toza dil ekanini tasvirlashda tarixiy dalillarni izlab topgani ajoyib kompazitsion go‘zallikka sabab bo‘lgan. She’rning davomini o‘qiydigan bo‘lsak ,lirik qahramonning his –tuyg‘ulari vayrongarchilik emas , balki ezgulikka oshno ekanini payqash qiyin emas:

Ishonmasang , qara ko‘zimga ,
ko‘zlarimda yashaydir Hotam,
men tegmadim hatto ilonga,
u zaharli ilon bo‘lsa ham.

Ushbu banddagi Hotam esa, afsonaviy qahramon “Hotami Toy “ ga ishoradir.Demakki , qahramon o‘zida sahovat va shafqat borligini ta’kidlamoqda.

Yoki ijodkorning “ Yulduzlar qulagan tunlari “ she’rida quyidagi misralar mavjud :

Qonimga , qadimgi qonimga
baqirdim ,ketaylik moziyga ,
ketaylik turkular aytishib ,
yashaylik Yusuf xos Hojibday.

Xo‘sh , Ijodkor nega aynan “Tarixiy qoniga “ “Baqirish “ ni xohlab qoldi. Sinchiklab o‘qilsa , bunda ijodkor kelajak avlodga , aslida kimlarning avlodi ekanligini, tomirada oqayotgan qon naqadar sharafli , qutlug‘ qon ekanini eslatishni maqsad qilganini anglash qiyin emas.Yusuf Xos Hojibning qay tarzda hayot kechirgani esa , uning tarjimayi holidan ma’lum.Ya’ni uning Qoraxoniylardan bo‘lgan Tabg‘ach Ulug‘ Bug‘raxon saroyida xizmat qilgani , saroy ishlariga adolat bilan yondashgani , “Eshik og‘asi” unvoniga ega bo‘lgani hamda Qoraxoniylar davri ilm –faniga bsezilarli hissa qo‘shganini ta’kidlamoqda.Bundan tashqari uning hikmatlari insonni poklikka ,nafsni yengishga qaratilgani sabab muallif xuddi u singari yashashni maqsad qilgandek ,go‘yo.

Agar uning “Battolning orzusi “ she’rini o‘qib chiqsak , haqiqatan ham uning o‘z vatani va ajdodlariga cheksiz ehtiromi borligini anglashimiz osonroq bo‘ladi :

Cho‘lpon –po‘lpon deysiz ,
Ishimiz katta,
tarixga sig‘masdan turar o‘jarlar
jaholat bosgan to‘rt asrni hatlab,
Boburni oluvdik endi mo‘ljalga.
Ammo sal kechikdik…
Chala qoldi ish,
Vaqt ham mudrab qolar - hali ko‘ramiz ,
Navoiy mulla bor , tag‘in Yassaviy,
Narida Qoshg‘ariy,
Bor-ku To‘maris…

Ko‘rinib turibdi-ki ,Shavkat Rahmon o‘z ajdodlariga cheksiz ehtirom bilan qaragan ,hatto ularni yo‘q qilishga hech qaysi battol va shum niyat, nainki shaxs , balki asrlarningda qodir emasliginii ta’kidlamoqda. Ijodkorning “She’riyatdagi haykaltaroshlar “ lirik asari ham fikrimizga yaqqol dalildir :

Haykal tiklayapti
har kim o‘ziga,
har kim haykaliga bermoqda sayqal:
birov Temur shahdin berar ko‘ziga,
Suqrot kelbatida ba’zi bir haykal
Mana bu haykalcha Dantega o‘xshar,
Bunisi Pushkinday , mag‘rur , to‘pori…
(“Saylanma” , 92- bet)

Antropoetika – kishilarning qiyofasi va fe’l –atvorini o‘rganar ekan , tabiiyki antroposentrik tahlil ham shu tadqiq obyekti bilan ish olib boradi.Shu o‘rinda yuqoridagi she’r g‘oyat o‘rinlidir. Chunki , Amir Temur naqadar qudratli Davlat barpo etgani, buning uchun esa albatta , uning o‘zida ham bu ishga molik shiddat b’lganini payqash qiyin emas.Qolaversa , she’rda Suqrot va Dante kabi tarixiy shaxslardan tortib , rus yozuvchisi Pushkinning –qiziqqon fe’ligacha tasvirlangan va Shavkat Rahmon bu bilan A.S. Pushkinning fojeali taqdiriga ishora qilgan.

Xulosa qilish mumkinki ,SHavkat Rahmon ijodida tarixiy shaxslar bilan bog‘liq o‘rinlar talaygina. Bu esa o‘quvchilarni she’riyatning go‘zal na’munalarini o‘qish bilan bir qatorda tarixiy bilimlarini mustahkamlash hamda o‘z ajdodlariga ehtirom ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi.Ushbu she’rlarda shunchaki his –tuyg‘u va kechinmalar emas , balki tarixiy bilim va istiqlol ruhiga yo‘g‘rilgan g‘oyalar yotadi. Bularni tushunish va anglash o‘quvchining kelajak –orzulariga bo‘lgan umid va ishonchni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.Shavkat Rahmon . Abadiyat oralab.Toshkent 2012
2.Shavkat Rahmon. Yurak qirralari.Toshkent 1981
3.Shavkat Rahmon .Hulvo. Toshkent 1987
4. Shavkat Rahmon.Saylanma. Toshkent. 1987

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Tursunmurodova Gulsara Muxitdinovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515379

Annotatsiya: Maqola o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash orqali milliy tafakkur, o‘zligimizga bo‘lgan hurmat, milliyligimizning bugungi ko‘rinishlarini saqlash va davom ettirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy amalga oshirishlari kerak bo‘lgan vazifasifalar to‘g‘risida yozilgan.
Kalit so‘zlar: didaktika, innovatsiya, pedagogik texnologiya, milliy tarbiya.

Mustaqil yurtimiz milliy tiklansihdan milliy yuksalish sari qadam qo‘ydi. Har bir davlatning rivojlanishi uchun oldiga qo‘ygan maqsadiga, albatta, yosh avlodiga bergan mukammal bilimi, milliy tarbiyasi bilan erishadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida: “Yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo‘ladi, ro‘yobga chiqadi”, deya yosh avlod tarbiyasiga bo‘lgan betakror fikrlarini bildirganlar. Boshlang‘ich sinfda asosiy masalalardan biri o‘quvchilarning og‘zaki savodxonligini o‘stirish va nutqini ravon qilish hisoblanadi. Bu ko‘nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko‘nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim va ko‘nikmaga aylanmagan bo‘lishi mumkin. Yozish ko‘nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya’ni yozish jarayonida partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo‘yish kabilar ham o‘rgatiladi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘zuvchining shakllanishi, rivojlanishi uchbun muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolaga berilgan bilim va ko‘nikmalarni tizimli ravishda olib borish bevosita yangi talablar asosida yaratilayotgan darsliklarga ham borib taqaladi. Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarning darsliklarida berilgan mavzular o‘quvchilarda milliy tarbiyaning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarining milliy tarbiyasida uning muomala odobi, tarbiya qoidalariga rioya qilishi hamda boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Maktabda milliy tarbiyani shakllantirish jarayonida boshlang‘ich o‘quvchilarining axloqiy sifatlari tarkib topadi va ilk axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Jumladan, odamiylik, jonkuyarlik, mehribonlik, g‘oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, to‘g‘rilik, mehnatsevarlik, andishalilik, yaxshi, mehr-oqibatlilik, muomala. Shu sifatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida shakllantirishda turli xil usul va vositalarni

ishlab chiqib, ta’lim tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, unga mos ishlanmalar yaratish, milliy tarbiyalashda bolalarning yoshini hisobga olgan holda didaktik materiallar tanlash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos holda pedagogik va psixologik ta’sir ko‘rsatish usullarini tanlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Barkamol shaxsni tarbiyalashda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, milliy urf-odat va an’analarimiz, boy ma’naviy merosimizga yo‘g‘rilgan o‘zbekona milliy tarbiyamizni kelajak avlod ongiga singdirib borish ustuvor ahamiyat kasb etdi. Shu narsa ahamiyatliki, milliy tarbiya xususiyati tarbiyada rag‘batlantirishning ustuvor bo‘lishini taqozo etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy tarbiyalash metodikasida uch masala – tushuntirish, rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi. Bularga amal qilmasdan kutilgan samaraga erishib bo‘lmaydi.

Intellektual yoshlarning bilim olish sifatini oshirishga keng imkon beradi. Ta’lim sifati - bu “ta’lim oluvchi-ta’lim beruvchi” darajasida muntazam ravishda, ta’lim oluvchilarning real imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib yo‘lga qo‘yish, ya’ni yaqin rivojlanish zonasini nazarda tutishni anglatadi. Shunga ko‘ra, bugungi kunda ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning qiziqishlari yo‘nalishlarini aniqlash, tashxis ishlarini tizimli tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish xususiyatlariga asoslanish alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda pedagog va psixologlarning diqqat markazini o‘quv predmetlarining nazariy asoslari va ularning tuzilishi bilan bir qatorda o‘quvchilar faoliyati, unga dahldor psixologik va pedagogik qonuniyatlar hamda o‘quv faoliyatini samarali boshqarish omillari ham band etib turibdi. O‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularni o‘qishga qiziqtirish va ularning fanlarga qiziqishini oshirish dolzarb muammodir.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiyani vijdonan yondashgan holda berish muhim masaladir. Hadislarda: “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”, deyilishida juda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish esa insonni ma’naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Shuning uchun ham xalq ta’limi oldidagi eng katta muammo o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga kelib taqalishi bejiz emas.

Xulos qilib aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni milliy tarbiyalash jarayoniga yangicha yondashuv metodologik samaradorlikni taqozo etadi. Biz esa milliy ruhda tarbiya berishning bugungi davr talabiga xos bo‘lgan shakllarini kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarimiz ongiga singdirib borishimiz zarur. Eng muhimi yurtimiz kelajagini mustahkamlash uchun kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash orqali ularda milliy tafakkur, milliy ong, milliy mafkura, o‘zligimizga bo‘lgan hurmat, milliyligimizning bugungi ko‘rinishlarini saqlash va davom ettirish kabi ko‘plab jarayonlarni amalga oshiramiz. Maktabda milliy tarbiyaning tub mohiyatini yetkazib berish hamda bunyodkor g‘oyalarga undovchi milliy mafkuramizni rivojlantirish biz pedagog kadrlarning asosiy

vazifamiz deb hisoblaymiz. Zero, o‘zlashtirishning pastligi o‘qituvchilarni hamisha qiynaydigan dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madayev O. “O‘quvchilar bilimini baholashda vaqtdan samarali foydalanish usullari”. Toshkent 2007-y. – B. 51.

2. Qodirova F. Pedagogik kadrlarga ilg‘or pedagogik texnologiyalar haqida. Metodika. 2014-y. – B. 23.

3. Umumta’lim maktablarining 1-4-sinflari uchun mo‘ljallangan darsliklarining so‘nggi nashri.

ADABIYOT SAN’ATI INSON YARATGAN BETAKROR MO‘JIZA

Rashidova Sohiba Abdulxamitovna
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 81-umumiy o‘rta ta’lim maktabining
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515392

Annotatsiya: Maqolada san’at turlari va ularning inson hayotida tutgan o‘rni haqida tahliliy ma’lumotlar berilgan, Shuningdek, so‘z san’ati hisoblanmish adabiyotning inson ruhiy va ma’naviy hayotidagi betakror o‘rni borligi haqida ilmiy asoslanga ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shoir, san’at, mahorat, ma’naviyat, adabiyot.

Adabiyot yashasa, millat yashaydi. Ulug‘ shoir Abdurauf Fitrat: “San’at lug‘atda hunar demakdirkim, bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir”- deb yozgan edi. Bir qarashda Fitrat “san’at” so‘zining ma’nosini, san’atning mohiyatini jo‘nlashtirayotgandek ko‘rinishi mumkin. Biroq e’tibor qilinsa, olim “yaxshi” so‘ziga ayricha urg‘u berayotgani, unga juda katta ma’no yuklayotgani anglashiladi. Xo‘sh, ko‘chirmadagi “yaxshi” so‘ziga qanday ma’nolar yuklangan? Darhaqiqat, tilimizda ishlatiluvchi “san’at” so‘zining ma’no qirralari ancha keng. Masalan, “rassomlik san’ati”, “kulollik san’atini egallamoq”, “yuksak san’at bilan ishlangan” kabi birikmalarning har birida “san’at” so‘zi turli ma’no qirralarini ifodalaydi. Shunga qaramay, ularda “san’at” so‘zi ifodalayotgan ma’no qirralarini birlashtiruvchi umumiy nuqtalar mavjudki, bu mazkur so‘zning har uchala holda ham “go‘zallik”, “mahorat”, “did” tushunchalari bilan bog‘liqligidir.

“San’at” so‘zi jonli tilimizda nechog‘li keng ma’noda qo‘llanmasin, tabiiyki, bizni uning lug‘aviy ma’nosi emas, istilohiy ma’nosi qiziqtiradi. Istilohiy ma’noda san’at deganda insonning go‘zallik qonuniyatlari asosida borliqni badiiy o‘zlashtirish (va o‘zgartirish) ga qaratilgan yaratuvchilik faoliyati hamda uning natijasi o‘laroq vujudga kelgan narsalar jami tushuniladi. Demak, bu ma’noda tushunilsa, go‘zallik qonunlari asosida mahorat va did bilan yaratilgan narsalarning hammasi san’atga aloqadordir. Shu bois ham biz “amaliy san’at” va “badiiy san’at” turlarini ajratamiz. Amaliy san’at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo‘zlik, modelerlik kabi qator sohalarni kiritsak, badiiy san’atlarga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr kabilarni mansub etamiz. Modomiki biz keng ma’nodagi “san’at” ichida amaliy va badiiy san’at turlarini ajratar ekanmiz, ularning umumlashtiruvchi va farqli jihatlari bo‘lishi lozim. Bu o‘rinda umumlashtiruvchi jihat shuki, har ikkisi ham go‘zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratiladi. Farqli jihatlariga kelsak, ulardan eng muhimi shuki, amaliy san’at mahsuloti insonning moddiy ehtiyojlarini

qondirishga xizmat qilsa, badiiy san’at namunalari insonning ma’naviy-ruhiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir.

Demak, amaliy san’at mahsuloti insonning kundalik turmushda foydalanishini ko‘zda tutadi, ayni paytda unga zavq beradi. Masalan, kulol ishlagan piyola qanchalik nafis va go‘zal bo‘lmasin, biz unda choy ichamiz. Mohiyat e’tibori bilan nafis ishlangan piyola ham, jo‘n piyola ham amaliy foydaliligi jihatidan teng. Biroq nafis ishlangan piyola kishining choy ichishiga vosita bo‘lishidan tashqari unga zavq ham beradi, kayfiyatini ko‘taradi. Shunday bo‘lsa-da, zavq bag‘ishlashlik piyolaning ikkilamchi funksiyasi. Demak, amaliy san’at mahsulotining qimmati birinchi navbatda foydaliligi bilan belgilanadi. Endi qiyos uchun, masalan, qadim yunon haykaltaroshi yaratgan biror bir haykalni olaylik. Haykalni yaratar ekan yunon undan amalda foydalanishni ko‘zda tutgan emas. Aytaylik, u o‘zi topingan ma’budlardan birining haykalini yaratdi. Haykaltarosh o‘sha ma’budni avvalo o‘zining tasavvurida yaratdi, ijodiy fantaziyaquvvati bilan tasavvur qila olgani obrazda qotirib qo‘yilgan lahzada ma’budining go‘zalligi, qudrati, mehri-yu qahrini ko‘ra oldi, undan zavqlandi, hayratlandi, unga topindi va ayni shu holatni toshda yo‘nib muhrladi. Haykalni ko‘rar ekan tomoshabin o‘sha zavqni, hayratni o‘ziga yuqtiradi, haykaldan boshqa maqsadda foydalanishni o‘ylamaydi ham. Ko‘ramizki, haykal boshqa bir odamning zavqi-yu hayratini boshqa odamga ko‘chirdi, uning ruhiyatiga oziq berdi.

Yuqoridagidan ko‘rinadiki, piyola ham, haykal ham go‘zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yaratilgan. Ya’ni, amaliy san’at ham, nafis san’at ham estetik faoliyat mahsuli. Insonning go‘zallik qonunlari asosida borliqni o‘zlashtirish va o‘zgartirishga qaratilgan faoliyati estetik faoliyat deb yuritiladi. Estetik faoliyat inson hayotining barcha nuqtalarida o‘zini namoyon qiladi. Aytaylik, hovlisiga gul-u rayxon o‘tqazayotgan ayol, o‘ziga oro berayotgan qiz, daraxtlarga shakl berayotgan bog‘bon, tabiat manzarasidan zavqlanayotgan sayyoh, o‘sha manzarani chizayotgan rassom bularning barida estetik faoliyat unsurlari u yoki bu darajada mavjud. Biroq ular bir-biridan farqlanadi. Aytaylik, agar piyola go‘zallik qonunlari asosida kechgan mehnat faoliyati mahsuli bo‘lsa, haykal go‘zallik qonunlari asosida kechgan ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli. Anglashiladiki, estetik faoliyat tushunchasi badiiy ijod, badiiylik tushunchalaridan keng ekan, zero, badiiy ijod estetik faoliyatning bir ko‘rinishi sifatida mavjuddir. Biz mutaxassis sifatida ko‘proq tor ma’nodagi “san’at” tushunchasi bilan ish ko‘ramiz. Tor ma’noda qo‘llanilgan “san’at” so‘zi badiiy san’atlarni ko‘zda tutadi. Badiiy san’atlar deganda biz musiqa, raqs, rassomlik, haykaltaroshlik, badiiy adabiyot, teatr, kino kabi san’at turlarini tushunamiz. Modomiki san’atni turlarga ajratar ekanmiz, bu turlarni umumlashtiruvchi va farqlovchi jihatlar bo‘lishi lozim. Sanalgan san’at turlarini umumlashtiruvchi jihat obrazlilik, ya’ni, ularning bari badiiy obraz vositasida fikrlaydi. Farqlovchi jihatlarga kelsak, bu narsa, birinchi navbatda, obrazni yaratish materialida ko‘rinadi: musiqa

ohanglar, rassomlik ranglar, raqs plastik harakatlar, haykaltaroshlik qotgan plastika vositasida obraz yaratadi. Badiiy adabiyot esa so‘z vositasida obraz yaratadi va shu bois ham so‘z san’ati deb yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanazarov U. O‘zbek xalq maqollari. T.: O‘qituvchi,1991.

2.Hojiahmedov A. O‘zbek aruzi lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 1998. – 224 b.

3.Sharq mumtoz poetikasi. H.Boltaboyev talqinida. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 424 b.

GEOGRAFIYA FANI HAQIDA BILASIZMI?

Sultanova Xasiyat Aminbayevna
Ròzimova Mahinur Fahriddinovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
geografiya fani o‘qituvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515404

Annotatsiya: Mazkur maqolada fanlar ichida alohida o‘ringa ega bo‘lgan geografiya fani, uning tarmoqlari, rivojlanish bosqichlari haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: geografiya, tarmoq, tabiiy geografiya, nazariya, sayyoralar, yer.

Geografiya yoki **jo‘g‘rofiya** — Yerning geografik qobig‘i, uning struktura va dinamikasi, alohida komponentlarini hududlar bo‘yicha o‘zaro ta’siri va taqsimlanishini o‘rganadigan fanlar majmui. Antik dunyo g‘arb olimlari Yer yuzasining manzarasini geografiya so‘zi bilan ifodalaganlar. Geografiya terminini dastlab Eratosfen (mil. av. 276—194 yillarda yashagan) kiritgan. O‘rta Osiyoda 9-10-asrlardan boshlab geografiya so‘zi ma’nosida “surati arz”, “yetti iqlim”, “Kitob almasolik valmamolik” (“Mamlakatlar va masofalar kitobi”) iboralari qo‘llanilgan. 19-asrda va 20-asr boshlarida o‘zbek tilida geografiya arabcha talaffuz bilan „jug‘rofiya“ shaklida yozilgan. Keyinroq geografiya shakli rasmiy tus oldi. Hozirgi davrda „Geografiya“ o‘rniga „Geografiya fanlari sistemasi“ iborasini qo‘llash ilmiy jihatdan to‘g‘riroqdir.

Geografiya fanlari sistemasi 3 asosiy tarmoqqa bo‘linadi: a) tabiiy, ya’ni tabiiy geografik fanlar — ularga tabiiy geografiya (umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik va paleogeografiyani o‘z ichiga oladi), geomorfologiya, iqlimshunoslik, quruqlik gidrologiyasi, okeanologiya, glyatsiologiya, geokriologiya, tuproqlar geografiyasi va biogeografiya kiradi; b) ijtimoiy va iqtisodiy geografik fanlar — umumiy va regional iqtisodiy geografiya, xo‘jalik tarmoqlari geografiyasi (sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi va b.), aholi geografiyasi, siyosiy geografiya; v) haritagrafiya. Undan tashqari geografiyaga mamlakatshunoslik, tibbiy geografiya, rekreatsiya va harbiy geografiya ham kiradi. Keyingi yillarda, koinotni o‘rganish rivojlanishi bilan selenografiya (Oy Geografiyasi), kosmos yershunosligi kabi sohalar ham vujudga keldi. Yer sun’iy yo‘ldoshlari va kosmik kemadan turib Yer yuzasining suratini olish va xaritasini tuzish usullari ham yaratildi.

Geografiya eng qadimgi fanlardandir. Odamzod paydo bo‘lgandan keyin muayyan davr o‘tgach, tabiiy muhit bilan jamiyatning o‘zaro munosabatlari natijasida, ovchilik, yerni ishlash va savdo-sotiq ehtiyojlariga ko‘ra yaqin-uzoq masofalarga borib kelish, tevarak-atrofni bilish va turli-tuman xalqlar o‘rtasida o‘zaro

muomala qilish boshlangan. Odamlar ilmiy-amaliy maqsadlarda dengiz yo‘llarini va joylarning tabiatini, xo‘jaligi va xalqlarini o‘rganib turganlar. Shu yo‘llar bilan geografik ma’lumotlar to‘plangan, devor va toshlarga bitilgan, qog‘ozga yozilgan. Mil. av. qadimgi dunyoning madaniyat markazlarida (Turon, Shimoliy Hindiston, Xitoy, Bobil va Ossuriya, Misr va Yunonistonda) dastlabki ilmiy xulosalarga erishildi. Doira 360 gradusga bo‘lindi, sutka 24 soat deb belgilandi, geografik kenglik va uzunlik ifodalari yuzaga keldi. Yer shar shaklida degan fikr maydonga keldi (yunon olimlari Fales, Pifagor, Eratosfen va Aristotel), dastlabki globus va ibtidoiy xarita yasaldi (Anaksimandr), dunyo qit’alariga nom berildi. Iskandariyalik matematik va geograf Eratosfen (mil. av. 3-asrda) Yer aylanasining uzunligini o‘lchab ko‘rgan va Yer meridianining (hozirgi o‘lchov birligida) 39816 kilometrligini aniqlagan. Bu esa haqiqiy uzunligiga ancha yaqindir. Yer yuzida issiq, mo‘tadil va sovuq mintaqalar borligi, ya’ni geografik zonallik tushunchasi ham qadimgi dunyo geografiyasining nazariy yutuqlaridandir. O‘sha davrda ba’zilar Yer yuzida suvlik ko‘p desalar, boshqalar, aksincha, quruqlik ko‘p der edilar. Shuningdek, Quyosh bilan Yerning munosabati xususida ham ikki mulohaza bo‘lgan. Ayrim olimlar (ayniqsa Ptolemey) olamning markazini Yer hisoblab, Quyosh va sayyoralar esa uning atrofida aylanadi (geotsentrik nazariya) desalar, boshqa olimlar geliotsentrik nazariyani ilgari surdilar, ya’ni olamning markazi Quyoshdir, Yer va boshqa sayyoralar uning atrofida aylanadi deganlar. Aleksandr (Iskander Makduniy)ning Eron, Turon va Hindistonga yurishlari hamda finikiyaliklarning O‘rta dengiz va Afrika tevaragidagi suzishlari geografik tasavvurlarni birmuncha kengaytirdi. Umuman, yunon olimlari Sharqdagi ilm-fan markazlarining yutuqlaridan xabardor bo‘lganlar va ulardan o‘z asarlarida foydalanganlar. Strabon (mil. av. 63 yil-mil. 21 yil) dunyo geografiyasidan 17 jildli kitob yezdi (2 jildi umumiy geografiya, 8 jildi — Yevropa, 1 jildi — Afrika, 6 jildi — Osiyo), Klavdiy Ptolemey (90—168 yillar) Geografiya va xaritagrafik proyeksiyalarga doir 8 jild kitob yezdi. Turonlik va eronliklarning muqaddas kitobi Zend Avestoda ayrim geografik ma’lumotlar bor. Unda dunyodagi mamlakatlar — Eronvej, Sugd, Muru (Marv), Baxdi (Baqtriya), Nisoim (Jan. Turkmenistan), Ho‘ruyu (Xirot), Hafta Hendu (Yetti Hindiston) va boshqalar tilga olingan, ba’zilari ta’riflangan.

O‘rta asrlarda vizantiyalik Zemarx (6-asr) Sharqiy Dashti Qipchoqqa sayohat qildi, normanlar (skandinaviyaliklar) 9—10-asrlarda Atlantika okeanining shimolida suzib, Islandiya, Grenlandiya va Shimoliy Amerikagacha safar qildilar, rus pomorlari Shimoliy Muz okeanidagi ayrim orollarni o‘zlashtira boshladilar. 13-asr o‘rtalarida Fransiya qiroli Lyudovik IXning elchisi sifatida O‘rta Osiyoga Rubruk kelib ketdi, italiyalik Plano Karpini Mongoliyagacha yetib bordi. O‘rta asrlarda yevropaliklarning geografik tasavvurlariga eng katta ta’sir etgan voqea — Marko Poloning 25 yil davom etgan Xitoy sayohati (13-asr oxiri) bo‘ldi. O‘rta asrlarda Sharq

mamlakatlarida madaniyatning yuksalishi, bir qancha mustaqil davlatlarning barpo etilishi, savdo-sotiq avj olishi natijasida Turkiya, Iroq, Eron, Hindiston va Movarounnahrda Geografiya fani ancha rivoj topdi. Uning eng yirik namoyandalaridan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy (8-asr oxiri — 9-asr o‘rtalari) Geografiyaga doyr „Surat ul-arz“ kitobini yezdi. Unda dunyodagi 537 shaharning koordinatalari va qisqacha izohi berilgan. Aslida bu kitob kattagina bir geografik atlasning izohnomasi bo‘lgan. Xorazmiy bu kitobini yozishda Ptolemeyning „Geografiya“ asaridan qisman foydalangan. Bu bilan qadimgi dunyo Geografiyasining merosi saqlab qolindi. 9-asrdan e’tiboran arab va fors tillarida yaratilgan barcha geografik asarlar Xorazmiy kitobiga asoslangan. Shunday qilib, Xorazmiy butun Sharq Geografiyasining asoschisi bo‘lib qoldi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib, turganidek, geografiya fani juda qadimiy fan bo‘lib, ushbu fanni yaxshi bilish bizning dunyo, ayniqsa, yer sayyorasi, uning tuzilishi haqidagi bilimlarimizni oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, har birimiz ushbu fanni maktab davridanoq chuqur o‘rganishga bel bog‘lashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME, Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Hasanov H., O‘rtaosiyolik geograf va sayyohlar, T., 1964;
3. Qoriyev M., O‘rta Osiyo tabiiy geografiney, 2-nashr, T., 1968.
4. www.ziyo.uz

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNING AHAMIYATI

Radjapova Oksana Aleksandrovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515413

Annotatsiya: Davlat ta'lim standartlarida ko‘zda tutilgan bilimlar bilan o‘quvchilarni qurollantirish ko‘p jihatdan ta'lim jarayonini to‘g'ri tashkil etish, ayniqsa, uni integratsiyalashtirilgan ta'limni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslarning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinflar, integratsiyalashgan darslar, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv ta’lim.

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko‘p gapirilmoqda. Bu tushuncha kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qilish, uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligining qiziqarliligi bilan harakterlanadi. Bolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog'liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan, ta'lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob beradimi, uni qanday tashkil etish kerak kabi savollar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin. Ta'limni integratsiyalashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurni yaxshi shakllantirish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini bildirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Shuning uchun ham kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhimdir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rgatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni

chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan, tuzish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tish metodologiyasiga ega bo‘ladi. Umumiy ta'limning poydevorini qo‘yadigan boshlang'ich maklabdagi ko‘p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san'at va boshqalar uchun umumiydir. Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish psixologik va metodik asos bo‘lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o‘lkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o‘rgatilishi va zarur o‘qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Integratsiyalashgan darslar - interaktiv ta'lim tizimi bo‘lib, integrativ bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish asosida ko‘rgazmali mahoratni vujudga keltirish sirlarini o‘rganadi. Ko‘rgazmali ta'lim tizimi turli xildagi turlar, shakllar, usullar, obyektlar asosida qurilgan. Integratsion kursning maqsad va vazifalari maktab tabiiy-ilmiy ta'lim tizimida tavsiflanadi. Bilimning integratsiyalashgan (ko‘rgazmali) tarmog'ida integratsiyalashning usul va vositalari: ta'lim rejasidagi o‘qitish joyida vaqtning hajmiga qarab, shu kursni to‘la o‘zlashtrish vaqti o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi ko‘p maqsadli va rang-barangliligi bilan tavsiflanadi. Har bir o‘quv predmetini o‘qiyotgan paytda o‘quvchilarga to‘g'ri keladigan psixik qo‘zg'alish hosil qilishi, bu materialni o‘zlashtirilishiga katta yordam beradi, uni tez yodda saqlashga, emotsional anglashga, fikrlash qobiliyatining o‘sishi, nutq va tasavvurning rivojlanishiga olib keladi.

Boshlang'ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidag va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Fanlararo integratsiya - bir necha oquv predmetning bir-biriga taalluqli sohalarini ko‘rsatish emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali oquvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya oquvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi Integratsiyalab oqitish oquvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobilyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko nikma va

malakalarni egallaydi. Integratsiya asosi etib, bir darsning mazmuni va uni otkazish strukturasi olinadi, uni boyitish uchun boshqa fanlarni ham jalb qilishimiz mumkin. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini koʻrsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida oʻrgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich sinf darslaridayoq amalga oshirishi kerak. Odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya. bu fanlar bir-biri bilan oʻzaro bog'liq va bu fanlarning maqsadi axloqiy, estetik tarbiya berishdir. Nutq oʻstirish - harflarni toʻg'ri talaffuz etish va yozish, soʻzlarni toʻg'ri oʻqish va yozish; gap ohangiga rioya qilgan holda ravon obrazli oʻqish; gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks etishi va yozilishi; fikr bayon qilish uchun zarur boʻlgan ayrim grammatik vositalarni oʻz oʻrnida qoʻllay olish, xalq og'zaki ijodi hamda bolalar adabiyoti namunalaridan olingan parchalarni oʻqib tushuna olish kabi talablarni oʻz ichiga oladi. Deyarli har bir darsning maqsadi nutq oʻstirishga qaratilgandir. Asosan ona tili va oʻqish, sinfdan tashqari oʻqish darslarida oʻquvchilar nutq oʻstirish bilim, koʻnikma va malakalariga ega boʻlsalar, rus tili, matematika, tabiat, odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat, jismoniy tarbiya darslarida uni mustahkamlab, toʻldirib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshmuxammedov R. Oʻquv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qoʻllash uslubiyati. - T.: RBIMM, 2017.
2. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.
3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
4. www.ziyo.uz

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘YINLARNING AHAMIYATI

Rustamova Nasiba Maxmudovna
Xorazm viloyati Urganch Shahar 94-sonli sanatoriya tipidagi
maktab-internat tarbiyachisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515419

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘yinlarning ahamiyati va o‘yinlar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ijodiy faoliyat, o‘yinlar, ishbop oyinlar, didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari.

Boshlang‘ich ta’limda o‘yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o‘quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional – hissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O‘yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o‘rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K. Gross o‘yinlarni tizimli o‘rganishga xarakat qilgan bo‘lsa, nemis psixologi K.Byuller o‘yinlarni “qoniqish hosil qiluvchi” faoliyat sifatida tadqiq etadi. L.S. Vigotskiy, A.N.Leontyevlar fikricha, o‘yinlarni nazariy jihatdan ijtimoy tabiatiga ko‘ra ma’lum faoliyatiga yo‘naltirilganligi bilan bog‘lab, tadqiq etgan bo‘lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib , uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o‘yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta’limdagi axamiyatliligidir. O‘yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O‘yinlarning eng muhim jihati uning ikki tamonlama xarakterga egaligi bo‘lib, uning dramatik san’atga ham mosligidir. Bir tamondan o‘yin ishtirokchilari uni amalgam oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog‘liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar, ikkinchi tamondan esa o‘yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma’suliyatni his etgan holda haqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

Demak, o‘yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. O‘yin faoliyati elimentlaridan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi.Ular ishbop oyinlar, didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari shular jumlasidandir.

Ishbop o‘yinlar kasb faoliyati predmeti yoki ijtimoiy mazmunini qaytadan yaratish shakli bo‘lib, amaliyotning ana shu turiga xos munosabatlar tizimini modellashtirishdir.

Ishbop o‘yinlarni o‘tkazishda uning qatnashuvchilari faoliyatini maxsus (o‘yin tarzida) imitatsiya modelida rivojlantirishdan iboratdir. O‘yinlarning xarakteriga ko‘ra o‘quv jarayoni o‘yinlari tadqiqotchilik o‘yinlari, boshqaruv va attestatsiyaga doir o‘yinlar turiga bo‘linadi.O‘quv jarayoniga doir o‘yinlar o‘quv predmetlar bo‘yicha istiqbolda kasbiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirishga shart-sharoitlar yaratadi. Ana shu shart-sharoitlar natijasida olingan yangi bilimlar kelgusi kasbiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Ma’lumki, ta’lim hamkorlikka asoslanib, jamoaviy xarakter kasb etadi; kasbga xos faoliyat qoidalari va jamoaning ijtimoiy qoidalariga mos xolda amalga oshadi. Ana shu ma’noda ta’limning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati o‘zaro birlashib, o‘yin faoliyati shaklida o‘quvchilarning faolligi ortadi. Ishbop o‘yinlarda tavsiya etilgan muammoli topshiriq maqsadga muvofiq dialogik muloqot asosida ishtirokchilarni rag‘batlantiradi, qiziqishlarini orttiradi, emotsional ruh paydo qiladi.

Didaktik o‘yinlar ta’limiy maqsadlarni amalga oshiradigan va ularga moslashtirilgan bo‘ladi. Didaktik o‘yinlar tizimidan birinchi marta maktabgacha jarayonida foydalanishga doir F.Fribil va M.Montisorilar ishlab chiqqan bo‘lsa, boshlang‘ich ta’lim uchun O. Dikroli tadqiqotlar olib borgan. 60-70 yillardan boshlab faqat boshlang‘ich ta’limda emas, umumiy o‘rta ta’limda ham foydalanila boshladi. 80-yillarda ayniqsa, ishbop o‘yinlar keng tarqala boshlandi.

Ishbop o‘yinlarning asosiy xususiyati o‘yin rejasining o‘quv maqsadiga yo‘nalganligidadir. Chunki o‘quv maqsadi o‘yin vazifalari doirasida etiladi.

Demak, o‘yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o‘quvchilar hayotni, borliqni, tevarak- atrofni o‘rganadilar va unga moslashadilar.O‘yin paydo bo‘lishi uchun quydagilar muhim sanaladi:

- o‘yin ishtirokchilari bilan bo‘lgan muloqatdan qoniqish hissining paydo bo‘lishi;

- tabiiylik, emotsional hissiyotning vujudga kelishi;

- o‘yin davomida o‘yuvchilarning o‘zining tabiiy extiyojlarini qondirishga harakat qilishi va hokazolardir.

Ijtimoiy- psixologik ahamiyati jihatidan o‘yinlar asosan ikkita vazifani bajaradi;

- ma’lum ijtimoiy bilimlarni egallash;

- zarur ijtimoiy qoidalarni shakllantirish.

Shuningdek, muammo nuqtai nazardan yondashganda, o‘yinlar o‘quvchining ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning ijodiy qobilyatini o‘stiradi.

Ma’lumki, bolalar o‘yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy- psixologik tavsifga ega o‘yinlargan o‘quv jarayonida foydalanish, shak-shubhasiz o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. AdizovB.R.Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.- Toshkent: Fan, 1997.
2. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Qarshi.: Nasaf, 2000.
3. Boltayeva SH. Boshlang‘ich ta’limda o‘kuvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. // Xalq ta’limi, 2004, № 3.
4. www.ziyo.uz

MUSIQA VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Atajonova Shohista Olimboyevna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
tasviriy san’at fani o‘qituvchisi
Baltayeva Feruza Rustamovna
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
musiqa fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515423

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab ta’limida o‘quvchilarning san’atga oid bilimlarini yanada oshirish maqsadida o‘tiladigan amaliy fanlar musiqa va tasviriy san’at darslarida qo‘llaniladigan o‘qitish texnologiyalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim metodi, musiqa, tasviriy san’at, o‘qitish texnologiyalari, interfaol metodlar.

Ta’lim metodi bu o‘qituvchi va o‘quvchining tartibga solingan o‘zaro aloqadagi usuli, o‘qitish jarayonida ta’lim va rivojlanish masalalarini hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Metod (yunoncha atama-aynan nimagadir yo‘l) maqsadga erishish yo‘lini bildiradi. Muayyan ma’noda tartibga solingan faoliyat. O‘qitish metodlari o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Faoliyatning tegishli metodlarisiz ta’limning maqsad va vazifalarini o‘quv materialining muayyan mazmunini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirishga erishib bo‘lmaydi. Usullar axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so‘z orqali ifodalash, ko‘rgazmali va amaliyga bo‘linadi. Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning bilim faoliyatini xarakteriga munosib ravishda quyidagi usullar: tushuntirish - ilyustrativ (informatsion retseptiv) reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot va tadqiqot usullari qo‘llanishi mumkin.

Asosiy metodlar guruhlarining har biri o‘z navbatida guruhchalar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo‘linadi. O‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o‘zi o‘zlashtirish, qabul qilish, anglash, o‘quv informatsiyalarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, birinchi guruh metodlariga so‘z orqali qabul qilish melodlari (og‘zaki metodlar: hikoya, ma’ruza, suhbat va b.), o‘quv axborotini ko‘rgazmali o‘zatish va ko‘rish orqali qabul qilish metodlari (ko‘rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va b.) o‘quv axborotini berish va uni tahlil, kinestezik qabul qilish (amaliy metodlari: mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va b.) kiradi. Ta’limning og‘zaki metodlariga hikoya, ma’ruza,

suhbat va boshqalar kiradi. Bu metodlarning qo‘llanishida o‘qituvchi so‘z vositasida o‘quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o‘quvchilar esa tinglash, eslab qolish va anglash orqali uni faol qabul qiladilar va o‘zlashtiradilar.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchini markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazaga keladigan bo‘lsak, bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va boshqa metodlar.

2. Interfaol ta’lim strategiyalari. “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va boshqa ta’lim strategiyalari. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida, bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”,

“Qanday?” va boshqalar. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg‘ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida, bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, tasviriy san’at va musiqa darslarini yuqoridagi ommaviy interfaol ta’lim metodlari yordamida tashkil qilinsa, nafaqat o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi, balki, darsdan kutilgan natijalarga to‘liq erishiladi. Shunday ekan, har bir zamonaviy pedagog interfaol metodlarni qo‘llagan holda dars o‘tishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Hasanboev J., Homidov £. Pedagogika tarixi. Tos’hkent, G‘.G‘ulom, 2004.

2. JO‘RABEK YARASHEV DILNAVOZ MUROTOVA MUSIQA O‘QITISH METODIKASI (o‘quv qo‘llanma). Buxoro. 2021.

3. www.ziyo.uz.

SHOIRU, SHE'RU, SHUUR-ERKIN VOHIDOV LIRIKASI

Jo‘rayeva Nargiza Tilovmurodovna
Termiz davlat universiteti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7515429

Annotatsiya: O‘zbek she’riyati mamlakat tarixining eng yirik qismini tashkil etadi desak aslo mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ayniqsa, 20-asr o‘zbek adabiyotida o‘zining salmoqli so‘z boyligi va she’riyati bilan alohida o‘rin egallab turgan Erkin Vohidov siymosi tahsinga sazovor. Ushbu maqolda ushbu shoirning lirikasi va so‘z o‘xshatmalariga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: lirika, didaktika, she’riyat, devon, shoir, zamonaviy adabiyot, o‘zbek she’riyati va h.k.

XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o‘ziga xosligi va ko‘p qirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g‘oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi. Hayot haqiqatini murakkabligi va to‘lig‘icha, ziddiyatlari bilan boricha namoyon etish, o‘tkir ijtimoiy masalalarni dadil ko‘tarib chiqish, ma`naviy va jismoniy ruh erkinligini badiiy tasvirlash shoir ijodiyotining asosiy xususiyatlaridan biridir. E.Vohidov ijodi ham tadqiqotchilarni o‘ziga chorlashda davom etganligi ushbu to‘plamdagi maqolalar zalvoridan ayonlashadi. E.Vohidov ijodini o‘rganish yillar o‘tgan sayin yangicha qirralari kashf etilishi orqali diqqat markazidan tushmay kelayotir. Zamonaviy o‘zbek milliy adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri Erkin Vohidov 1936 yil 28 dekabrda Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida tug‘ildi. Otasi Cho‘yanboy Vohidov Ikkinchi jahon urushidan keyin Toshkentga qaytib, tez orada shu yerda vafot etdi. Onasi Roziyaxon Vohidova (Sohiboyeva) ham dunyodan o‘tib, bo‘lg‘usi shoir tog‘asi Karimboy Sohiboyev tarbiyasida qoldi. Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olib, “Yosh gvardiya”, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotlarda, “Yoshlik” jurnalida xizmat qildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Xalqaro aloqalar va munosabatlar qo‘mitasi rahbari, O‘zbekiston Senati a’zosi sifatida faoliyat yuritdi. Uning birinchi she’ri 14 yoshida, 7-sinfda o‘qib yurgan kezlarida chop etildi. “Tong nafasi” (1961), “Mening yulduzim” (1964) kabi dastlabki to‘plamlarini nashr ettirdi. E. Vohidov ijodida g‘azal, qasida, muxammas kabi janrlarga qo‘l urib, mumtoz adabiyot tajribalarini yanada boyitish, yanada mukammallashtirishga intildi. Ayniqsa, “Yoshlik” (1969) devoniga kirgan she’rlar bu jihatdan e’tiborlidir.

Shoir xuddi shu davrdan boshlab dunyo kezdi, dunyoni ko‘rdi, dunyoni tanidi. Ana shu taassurotlari asosida “Tirik sayyoralar” (1978), “Sharqiy qirg‘oq” (1981) kabi she’riy to‘plamlarini yaratildi. Inson taqdiri, uning baxti va kelajagi shoir ijodining bosh mavzuiga aylandi. Uning “Kelajakka maktub” (1983), “Yaxshidir achchiq haqiqat” (1992) to‘plamlariga kirgan she’rlarida haqgo‘y va bedor insonni kamol toptirish g‘oyasi yetakchilik qiladi. Shoirning “Orzu chashmasi” (1964), “Nido” (1964), “Palatkada yozilgan doston” (1966), “Quyosh maskani” (1972), “Ruhlar isyoni” (1980), “Ko‘hinur” (1982) kabi liro-epik asarlari, “Oltin devor” va “Istanbul fojeasi” kabi she’riy dramalari katta ijodiy mehnat mahsuli sifatida xalqimizning ko‘ngil mulkiga aylangan. Erkin Vohidovning to‘rt jildlik “Saylanma asarlar”i, “Orzuli dunyo” (2010), “Tabassum” (2012), “Yangi she’rlar” (2015) she’riy to‘plamlari adabiyot muxlislari uchun bebaho tuhfa bo‘ldi. U 1996 yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov adabiyotimiz va ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan asarlari, shuningdek, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash yo‘lidagi faol xizmatlari uchun “O‘zbekiston Qahramoni” yuksak unvoniga sazovor bo‘ldi.

E.Vohidov g‘azallarida oshiqning dil rozlari, ma‘shuqaning ta‘rif-tavsifi mumtoz adabiyotdagi yanglig‘ har qancha mubolag‘ador, serbo‘yoq bo‘lmasin, undagi timsollar bugunning odami ekani anglashilib turadi. Ular ―zamon zayli‖ni hisobga oladigan, o‘y-fikri, tuyg‘ulari bugungi odamlarga tushunarli bo‘lgan kishilardir. Ma`lumki, mumtoz she`riyatda vaqt tushunchasi ancha nisbiy bo‘lgan. Chunki mumtoz shoirlar o‘tkinchi, bugunning tashvishlari aks etgan mavzularga qo‘l urmaganlar. Shuning uchun ham ularning ijodida o‘z davrining belgilari ko‘zga tashlanib turmaydi. E.Vohidovning g‘azallarida esa bugunning nuqsi aks etadi. Shoirning «Fursating» g‘azali o‘zida davr belgisi, zamondoshlar tabiatini aks ettirishi jihatidan xarakterlidir. G‘azalning birinchi baytidayoq davr ruhi ko‘zga yaqqol tashlanib turadi:

Fursating yetmaydi doim, hech qachon yetgan emas,
Mehnating bitmaydi doim, hech qachon bitgan emas‖.

Bu misralarda davrning tezkor va shiddatli qarqin (sur‘at)i, undan orqada qolmaslik ilinjida halloslab borayotgan chog‘dosh tabiati namoyon bo‘ladi. Keyingi baytda davr ruhi yanada bo‘rttirib ko‘rsatiladi: Chun zamondek bepoyondir ko‘ksing ichra orzu, Fursatu orzuni quvlab hech kishi yetgan emas. Zamonning cheksizligi azaldan ma`lum, ammo davr kishisining orzusi ham chegara bilmasligi ifodasi – shoirning kashfiyoti. Shoir tinimsiz o‘zgarib turadigan insonning hech o‘zgarmas intilishi – kamolot haqida to‘xtalar ekan, uning ham hech qachon erishib bo‘lmas orzu ekanini ishonarli aks ettiradi: ―Intilar borliqni inson barkamol etmoq uchun, Ne ajab, insonni borliq barkamol etgan emas‖. O‘zi komil bo‘lmagani holda borliqni

mukammallashtirishni da‘vo qiladigan inson tabiatidagi chigallik shu yo‘sin tasvirlanadi. Shoirning tasvir mahorati yuqoridagi misralar so‘ngida kelgan «etmoq uchun» va «etgan emas» singari fe’lli birikmalarga zidlash ma`nosini yuklay bilganida ham ko‘rinadi.

E.Vohidov iste`dodi yorqin namoyon bo‘lgan asarlar orasida 1979 yilda yaratilgan «Ruhlar isyoni» dostoni yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Nazrul Islom XX asr boshlarida she`riyatga chaqindek yaraqlab, momaqaldiroqdek gulduros bilan kirib kelgan va Kunchiqish poeziyasi taraqqiyotida o‘chmas iz qoldirgan isyonkor shoir edi. U da’vatkor she`rlari bilan butun Hindistonni larzaga solgan, iste`dodi va hayotini vatani ozodligi, xalqlar birdamligi, erki va baxti yo‘lida fido etgan dovyurak shoirdir. Bosqinchilar va ularning mahalliy yaloqxo‘rlari qilgan adoqsiz tazyiq va qiynoqlar hali o‘ttiz beshga ham kirmagan isyonkor va bo‘ysunmas shoirni ayni ijodi qaynagan paytda aqldan ozdiradi. Oradan yillar o‘tdi, mustamlakachilar shoirning vatanidan quvildi. Mamlakat mustaqillikka erishgach, bir vaqtlar tahqirlangan, jabrlangan shoir qadr topadi, el ardog‘iga sazovor bo‘ladi. Ammo endi u bularni bilmas, chunki uni aqlidan ayirgan edilar. Nazrul Islom yurtidagi o‘zgarishlarni sezmay, shu ahvolda yana qirq yil yashaydi. Dostonda Nazrul Islom fojiy qismatini, shoirning iste`dod va jasorati unga qanchalar qimmatga tushganini, qalbidagi alam-iztirobu tug‘yonlarni butun keskinligi bilan tasvirlanadi. Ayni vaqtda, muallif Nazrul Islom hayoti va qismatini ko‘rsatish asnosida o‘zini qiynab kelgan armonli o‘ylaru ko‘ngil dardlarini ifoda etadi. Doston haqsizlik va adolat, istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste`dod egasining o‘rni haqidagi falsafiy mushohadalar bilan boshlanadi. Chin iste`dod egasining tabiati yaralishdan adolatsizlik, nohaqlik, istibdodga qarshi isyondir. Hamma narsaga chidashi va ko‘nikishi mumkin bo‘lgan iste`dod zo‘rligu istibdodga chiday olmasligini shoir g‘oyat ta`sirchan ifoda etadi: Bu dunyoning quvonchi kam, Dardu g‘ami ziyoda. Ammo g‘amdan qochmoqning ham Tadbiri ko‘p dunyoda. ...Lek olamda bir dard borki, Unga sira najot yo‘q. Bu azobga kim duchorki, Unga kun yo‘q, hayot yo‘q. Bu mashaqqat ichgan bilan Dil tubiga cho‘kmaydi. Uni hech kim yuragidan Hech kimsaga to‘kmaydi. ...U jon bilan ketsa dildan, Sukut qolsa yurakda, Odamzodning ruhi bilan Yashayberar falakda. Bu – shoirning dilin ezgan Istibdodning dardidir. Yurakdan qon bo‘lib sizgan Iste`dodning dardidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://bilimlar.uz/erkin-vohidov-1936-2016/
2. **https://ilmlar.uz/erkin-vohidov-hayoti-va-ijodi-tarjimai-hol-sherlari/**
3. **http://mustaqillik.uz/ru/pages/Erkin_Vohidov**

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TA’LIMIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Mavlyanova Shahodat Djambulovna
Toshkent shahri, Yangihayot tumani
285-maktab Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7524208

Annotatsiya: Maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalaniladigan ta’limiy vositalar, ya’ni dars samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan grafik organayzerlar haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu chizma usullari yordamidan foydalanish uchun “Insert” va “Kaskad” haqida alohida tavsiyalar berilgan.
Kalit so‘zlar: grafik organayzerlar, chizmalar, jadvallar, “Insert”, “Kaskad”.

Ma’lumki, ona tili va adabiyot darslarida innovatsiya va ilg‘or xorijiy tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz grafik tashkil etuvchilar yoki organayzerlar misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Grafik tashkil etuvchilarga “Insert” usuli, “Toifali jadval”, “Konseptual jadval”, “BBB” usuli, “Klaster” sxemasi, “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”, “SWOT-tahlil jadvali”, sxema va diagrammalar: “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Baliq skeleti”, “Muammoli vaziyat” kabilar kiradi. **Organayzer** inglizcha “tashkil etuvchi, grafik tashkil etuvchi” ma’nosini bildiradi. Axborot texnologiyalari sohasi atamasi sifatida ishlatiladi. Aniqrog‘i, Power-point va shu kabi dasturlarda tayyorlanadigan vizual ko‘rgazmali namoyish usuli hisoblanadi. Tahliliy ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari sifatida organayzerlar (grafik tashkil etuvchilar)ning vazifasi muhim hisoblanadi. **Ma’lumotlarni ko‘rgazmali taqdim etish usullari va vositalari**: grafik tashkil etuvchilar. Ushbu bo‘limda ma’lumotlarni tarkiblashtirish va umumlashtirish usul va vositalari, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlikni o‘rnatish; ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash; muammolarni hal etishni rejalashtirish kabi masalalar o‘rganiladi.

Grafik tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi. Ular ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish usul va vositalari, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisalar, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlik o‘rnatishga o‘rgatadi. “Ming marta eshitgandan ko‘ra bir marta ko‘rgan yaxshi” degan naql bor. Og‘zaki ravishda materiallarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 10 foiz bo‘lgan sharoitda dars o‘tish samarasiz bo‘ladi. Mashg‘ulotlarda o‘quv materialni ko‘rgazmali shaklda taqdim etish lozim.

Dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilish kerak. Murakkab mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun “Insert” va «Kaskad» kabi organayzerlardan foydalanishni tavsiya qilaman.

INSERT JADVALI. Insert so‘zi inglizcha joylashtirmoq, belgi qo‘ymoq ma’nosini beradi.

- mustaqil o‘qish, ma’ruza tinglash jarayonida olinadigan ma’lumotlarni bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi;

- oldindan olingan ma’lumotni yangisi bilan o‘zaro bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi. O‘qish vaqtida olingan ma’lumot yakka tartibda taqsimlanadi: matnda belgi qo‘yilgan mos ravishda jadval ustunlariga “joylashtiriladi”:

V – “...” haqida olingan bilim (ma’lumot)ga mos keladi;

_ _ “...” haqidagi bilimga qarama-qarshi;

+ – yangi ma’lumot sanaladi;


? – tushunarsiz qo‘shimcha ma’lumot.

INSERT jadvali			
V	**–**	**+**	**?**

Insert – samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgilashning interfaol tizimi. Insert – avvalgi bilimlarni faollashtirish va matnda belgilash uchun savollarning qo‘yilish muolajasi. Shundan so‘ng, matnda uchraydigan, har turdagi axborotlarning belgilanishi. Insert - matn bilan ishlash jarayonida ta’lim oluvchiga o‘zining mustaqil bilim olishini faol kuzatish imkonini ta’minlovchi kuchli asbob. Insert - o‘zlashtirishning majmuali vazifalarini yechish va o‘quv materialini mustahkamlash, kitob bilan ishlashning o‘quv malakalarini rivojlantirish uchun foydalaniladigan o‘qitish usulidir.

“KASKAD” tarkibiy – mantiqiy sxema iyerarxik g‘oyalar tarkibini aniqlash imkonini beradi. Tizimli, ijodiy, tashliliy mushoshada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi. Juftlarga birlashadi, o‘z sxemalarini taqqoslaydi va qo‘shimchalar kiritadi.

“Kaskad” tarkibiy – mantiqiy sxema



“Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasini tuzish qoidalari

1. “Kaskad”ni tuzish jarayonida tizimli sxema tarkibiy qismi va elementlarini oldinga surish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta mushohada qilishga imkon beradi.

2. G‘oyalarni ishlab chiqishda agarda siz tor yo‘lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizga hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligiga amin bo‘ling.

3. Siz chapdan o‘ngga yozishga o‘rgangansiz. “Kaskad” qurishni o‘ngdan chapga bo‘lishligiga harakat qiling. Buning uchun asosiy g‘oyani varaqning chap qirrasi emas, balki o‘ng qirrasiga joylashtiring. Sxemani tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yakka (juftlikda) sxema tuziladi: asosiy muammo (g‘oya, masala), kichik muammolar yoziladi, keyin muammo yoki masalaning ikkinchi darajali jihatlarini chuqurroq ko‘rib chiqish uchun xizmat qiluvchi “kichik shoxlar” davom ettiriladi. Buning natijasida bitta g‘oya rivojlanishining barcha tomonlari yetarlicha chuqur o‘rganib chiqilishi mumkin. Juftlarga birlashadi, o‘z sxemalarini taqqoslaydi va qo‘shimchalar kiritadi. Umumiy sxemaga jamlaydi. Natijalar taqdimoti.

Xulosa shuki, darsni turli ta’limy vositalar ko‘rgazmalar, jadvallar va organayzerlar yordamida o‘rgatish o‘quvchilarda amaliy ishlash ko‘kmasini shakllantiradi, mustaqil izlanishga chorlaydi natijada dars samaradorligi oshadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi Ona tili, Adabiyot (5-9-sinf), O‘zbek tili (2-9-sinf). Toshkent, 2017-yil.

2. Q.Yuldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.

3. A.Zununov. N. Hotamov. J. Esonov. Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” 1993.

FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI

G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li
O‘z MU JF o‘qituvchisi
Normamatov Azamat Hayrulla o‘g‘li
O‘z MU JF talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7524214

Annotatsiya: Ushbu maqolada franchayzing yani brend nomidan foydalanish, uning vujudga kelishi, iqtisodiyotda tutgan o‘rni, ijobiy va salbiy tomonlari o‘rganilgan holda keltirilgan.Bundan yurtimizda franchayzigga bo‘lgan talablar va uni rivojlantirish istiqbollari tahlili ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: **“**Franchayzing”, “Mahsulot nomidan foydalanish”, Tijorat konsessiyasi, Kommersatsiya, Franchizer.

Rivojlanib borayotgan iqtisodiy davrda mahsulot brendini yoki nomini yaratib uni rivojlantirmasdan turib boshqa bir rivojlangan va o‘z istemolchilari koproq bo‘lgan brend nomidan foydalanib uning mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki sotish mumkin bo‘lib bu tijorat usuli iqtisodiyotda “Franchayzing” deb nom olgan.

Franchayzing inglicha (franchising) so‘zidan olingan bo‘lib”imtiyoz” degan manoni anglatadi yoki tijorat konsessiyai bozor subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar turi; bir tomon (franchayzer) ikkinchi tomonga (franchayzi) tadbirkorlikning ma’lum bir turida ish yuritishning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan biznes modelidan: franchayzerning brendi, savdo belgisi, xom ashyosi va texnologiyalaridan foydalanib, uning nomidan ish yuritishga haq evaziga (akkord; bir yoki ko‘p martalik to‘lov) ruxsat berishi.Franchayzing tushinchasi 1986 yil 28-yanvarda Yevropa ittifoqida tovar belgisidan foydalanish huquqi deb yuritila boshlagan.

Umumiy ma’noda, franchayzing — bu savdo belgisi yoki kommersion belgini ijaraga olishni bildiradi. Franchayzingdan foydalanish franchayzer (franshizani beruvchi) va franchayzi (uni oluvchi) o‘rtasidagi kelishuv bilan tartibga solinadi. Shartnoma mazmuni har xil, oddiydan to juda murakkabgacha bo‘lishi, tovar belgisidan foydalanishning eng kichik tafsilotlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Odatda, shartnomada franchayzingdan foydalanish uchun pul ajratmalar miqdori tartibga solinadi (bu ma’lum bir muddat uchun belgilangan bir martalik yoki sotishning foizidan kelib chiqadigan to‘lov bo‘lishi mumkin. Pul ajratmasi bo‘yicha hech qanday talab bo‘lmasligi ham mumkin, ammo bu holda franchayzi franchayzerdan ma’lum miqdordagi tovarlar ishlar xizmatlarni sotib olish majburiyatini oladi.Misol uchun McDonald’s ning gamburger pishirish texnalogiyasi.

Tovar belgisi -brenddan foydalanish shartlari shartnomalarning alohida bandi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu shartlar juda erkin bo‘lishi ham mumkin masalan, franchayzi ma’lum bir sohada brenddan foydalanish huquqiga ega yoki qat’iy ham bo‘ladi. Masalan: franchayzi do‘konning ichki interyerida javon va qatorlarning rangidan tortib, personalning ish kiyimlarigacha va uskunalardan foydalanishda franchayzerning talablariga qat’iy rioya qilish majburiyatini oladi.

Filip Kotler franchayzingning quyidagi elementlarini alohida ta’kidlaydi- “Franchayzer- o‘z savdo belgisidan foydalanganlik uchun put ajratmasi oladi, ko‘pincha, xom ashyo, butlovchi qismlar yetkazib berish va xodimlarni o‘qitishni ham ta’minlaydi”.

Franchayzi- franchayzer tomonidan ishlab chiqilgan sxema bo‘yicha biznes yuritish huquqini sotib oladi to‘lovlarni to‘laydi. Franchayzi o‘z savdo nuqtasini tayyorlash, ishga tushirish va ishlatish xarajatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Franshiza -bu franchayzerning talablariga javob beradigan biznes yuritishning barcha jihatlari va shartlarini tavsiflovchi tizim.

Paushal to‘lov (nemischa pauschal) — franshizaning qiymati, franchayzi dastlabki bosqichda franchayzerga to‘laydigan belgilangan miqdordagi to‘lov. Odatda bu umumiy boshlang‘ich xarajatlarning 9-11 % ni tashkil qiladi. O‘z ichiga biznes-buk faoliyatni tashkil etish reglamenti, brend-buk korporativ identifikatsiya elementlarini qurish va ulardan foydalanish va reklama qoidalari, xodimlarni boshqarish va o‘qitish, sotish metodikasi, tarkiblar va texnologiyalar, ko‘rsatmalar, hisobotlar, hisob berish shakllari va boshqalarni o‘zichiga, oladi Royalti -franchayzerga tegishli bo‘lgan tovar belgilari, patentlar yoki boshqa mualliflik huquqlaridan foydalanganlik uchun oylik to‘lov. Bu franchayzi aylanmasi daromadidan 2-6 % yoki aylanma daramadga bog‘liq bo‘lmagan miqdorda belgilanishi yoki hatto nolga teng bo‘lishi mumkin. Reklama to‘lovi miqdoridan alohida shaklda to‘lanadi.

Reklama to‘lovi - global reklama va marketing kampaniyalarini o‘tkazganligi uchun franchayzer foydasiga to‘lanadigan oylik to‘lov. Bu aylanma/daromaddan 1-3 % yoki belgilangan miqdorda bo‘lishi mumkin. Royalti to‘lovi miqdoridan alohida shaklda to‘lanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri franchayzing- Hududni cheklagan holda ish faoliyatini amalga oshirish huquqini bir shaxsga bitta korxona uchun berishni anglatadi.

Subfranchayzing- Ushbu shaklga ko‘ra franchayzer subfranchayzerga belgilangan hudud uchun o‘z huquqlarining katta qismini o‘tkazadi. Subfranchayzer bu hududda savdo nuqtalarini ochish va franshizalarni uchinchi shaxslarga sotish huquqini oladi.

Master franshiza- subfranchayzingga juda yaqin bo‘lib, odatda, yirik xalqaro tarmoqlar faoliyatida qo‘llaniladi odatda, belgilangan hududga butun mamlakat yoki

mamlakatlar guruhi kiritiladi.Bosh kompaniyaning huquq va majburiyatlarining faqat bir qismi o‘rta bo‘g‘inga berilgan oldingi shakldan farqli o‘laroq, bu holda franchayzerning vakolatlarini to‘liq va eksklyuziv ravishda master-franshizaga o‘tkazib beriladi.

Yumshoq franchayzing- Bunda potentsial hamkorga biznes ochish uchun zarur bo‘lgan barcha mablag‘larning faqat yarmini kiritishi taklif qilinadi. Ikkinchi yarmini qoplashni boshqaruv kompaniyasi o‘z zimmasiga oladi. Keyinchalik, bu hamkor boshqaruv kompaniyasining ulushini ham sotib olish va franchayzingni yagona egasi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday tizim, masalan, Mail Boxes Etc kompaniyasi ishlaydi. Ba’zi hollarda kompaniyalar hamkoriga faqat yangi korxona faoliyatini va joriy xarajatlarni boshqarishni qoldirib, franchayzing ochish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning 100 % gacha bo‘lgan qismini o‘z zimmalariga olishlari mumkin.

Tovarli- Asosan savdo sohasida qo‘llaniladi. Franchayzi franchayzer tomonidan yoki uning tovar belgisi ostida ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish huquqini oladi. Franchayzing shartnomasi savdo texnologiyasini, xizmatlar va tovarlar assortimentini, ishlab chiqaruvchining tovar belgisidan foydalanishning aniq qoidalarini tartibga soladi. Masalan, ma’lum kompaniyaning poyabzal yoki kiyim-kechaklari sotadigan firma do‘koni.

Ishlab chiqarishda- Franchayzi franchayzerning tovar belgisi ostida mahsulot ishlab chiqarish va sotish huquqini oladi. Franchayzi texnologiya va asosiy xom ashyoni olgan holda, ishlab chiqarish jarayoniga qo‘yiladigan talablar, mahsulot hajmi, uning sifati, sotish rejalari, xodimlarning malakasi va hisobotlari haqida kelishib oladi.

Xizmat ko‘rsatishda- Franchayziga franchayzerning tovar belgisi ostida xizmat ko‘rsatishning ma’lum bir turi bilan shug‘ullanish huquqi beriladi, bunda, franchayzer o‘z hamkorini asbob-uskunalar, reklama va marketing texnologiyasi bilan ta’minlaydi. Qo‘llab-quvvatlashdan tashqari, franchayzer ishlarni nazorat qiladi. Xizmat ko‘rsatish franchayzingiga kiyimlarni kimyoviy tozalash tarmog‘ini misol keltirish mumkin.

Biznes formatli- Franchayzer hamkoriga nafaqat savdo huquqini, balki ushbu turdagi biznesni tashkil etish uchun ham beradi. Hujjatlarda tadbirkorlik kontseptsiyasi aniq belgilanib, xodimlarni o‘qitish bo‘yicha batafsil yo‘riqnomalar, interyer dizayniga, xodimlarning kiyim-kechaklari qo‘yiladigan talablar ko‘rsatilgan bo‘ladi. Reklama siyosati, ish yuritish va tovar yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar tartibga solinadi.

Xulosa qilib aytish mumkunki shu kabi yo‘nalishlarda olib boriladigan franchayzinglar har ikkala tashkilot uchun katta foyda keltiradi va tez rivojlanishiga turtki bo‘ladi.Eng muhimi tog‘ri kelishuvga erishish va bozordagi talabni o‘rganish

lozim.Franchayzing tushunchasi yetib bormagan va hanuzgacha o‘rganilmayotgan hududlarda tashkil etish va shu haqda makumot tarqatish va foydalanishiga imtiyozlar ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi..

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.

2. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 105-110.

3. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1A. – С. 56-59.

4. O’G’Li N. D. R., Qizi T. D. Z. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 1-4.

5. Gaybulayev Sarvar Uktam ugli, Saitov Sirojiddin, & Davlatboyeva Sojida Oybek qizi. (2022). SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 115–119. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/358

6. Nizametdinov Ali Akramovich, Gaybullayev Sarvar, & Honkelov Yassim. (2022). THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 95–99. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/354

7. G'aybullayev S. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

8. G’aybullayev Sarvar O’ktam o’g’li, Xaydarov Bahrom, & Jarasheva Go’zal Bahodir qizi. (2022). THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 287–293. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/388

9. Anorboyeva Durdona Shodiboy qizi, & Sarvar G’aybullayev. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 86–89. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/401

10. Gaybullayev Sarvar, Saitov Sirojiddin, & Pulatova Mashhura Xushnudbek qizi. (2022). FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS

WAGE. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 125–129. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/360

11. Sarvar G’aybullayev. (2022). THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(11), 116–126. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/313

12. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

13. Sarvar O'ktam o'g G. et al. SYSTEMATIC-SITUATION APPROACH IN MANAGEMENT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 999-1008.

14. G’aybullayev Sarvar, Xaydarov Bahrom, & Anorboyeva Durdona. (2022). O’ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 63–69. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/396

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI

G‘aybullayev Sarvar
O‘zMU JF o‘qtuvchisi
Xayrullayev Nodirbek
O‘zMU JF talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7524218

Annotatsiya: Maqola qo‘shilgan qiymat solig‘i tarifi, QQSning O‘zbekistondagi foiz stavkalari, shu yillar ichida QQS to‘lovchilariga berilgan imkoniyatlar va talablar, QQSning foizi ko‘tarilsa yoki tushsa bu O‘zbekiston iqtisodiyotiga va aholi daromadlariga qanday ta’sir qilishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS), infratuzilma, aksiz solig‘i, Soliq kodeksi, subsidiya, kreditlar, kompensatsiyalar , sanoat, qishloq xo‘jaligi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) — umumdavlat soliq turi; ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning bir qismini davlat byudjetiga olish shakli. Tovar va xizmatlardan olinadigan bilvosita (egri) soliqlar tarkibiga kiradi. Birinchi marta fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif qilingan, 1960-yilda Kod-dIvuar Respublikasida soliq tizimiga kiritilgan. O‘zbekistonda 1992-yildan boshlab qo‘llaniladi. Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish va import qilish aylanmasi Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan ob’yekt hisoblanadi. Sotish bo‘yicha Qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan aylanma sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida, narxlar va tariflarni, aksiz solig‘ini hisobga olgan holda belgilanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan aylanma mablag‘ soliq ob’yektining turiga qarab, o‘ziga xos usulda aniqlanadi. Masalan; ishlab chiqarilgan tovarlar yuklab jo‘natiladigan qismining qiymati, amalga oshirilgan qurilish, ta’mirlash, ilmiy tadqiqot, konstruktorlik, texnologik, qayta ta’mirlash va boshqa shunga o‘xshash ishlar qiymati Qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladi. Xizmatlar ko‘rsatilganda esa transport vositalari yordamida bajarilgan ishlar qiymati, ijara, vositachilik haqi, infratuzilma, reklama va boshqa xizmatlar qiymati shu soliq ob’yekti bo‘ladi. Aksiz to‘lanadigan tovarlarni Qo‘shilgan qiymat solig‘isga tortishda uning ob’yekti jo‘natilgan aylanmaga aksiz solig‘ining qiymati qo‘shilgan holda aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasida Qo‘shilgan qiymat solig‘i asosan, 2023-yilga qadar 15,0 % li stavka bo‘yicha undiriladi. Shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ayrim oziq-ovqat tovarlari bo‘yicha Qo‘shilgan qiymat solig‘i kamaytirilgan stavkalarda to‘lanishi mumkin. Stavkalar va bunday tovarlarning ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha to‘lovlar soliq turi bo‘yicha hisobot taqdim etilgan muddatdan so‘ng 5 kun orasida davlat byudjetiga o‘tkaziladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashning boshqa muddatlarini ham belgilashi mumkin. Import qilinayotgan tovarlar bo‘yicha Qo‘shilgan qiymat solig‘i bojxonada rasmiylashtirilgunga qadar yoki rasmiylashtirish paytida to‘lanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish va to‘lash tartib qoidalari O‘zbekiston Respublikasining „Soliq kodeksi“ (65—79-moddalari) bilan tartibga solinadi.

O‘zbekistonda QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirilib, tadbirkorlar ixtiyorida yiliga 14 trln so‘m qoladi. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida iqtisodiy islohotlar qat’iy davom ettirilib, ichki imkoniyatlar to‘liq safarbar qilinib, xususiy sektor yanada qo‘llab-quvvatlanishini ta’kidladi.[18]

Birinchi navbatda, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, barcha tuman va shaharlarni bir maromda rivojlantirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi. 2023-yildan tuman va shaharlar mavjud sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib 5 ta toifaga ajratiladi.

Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi. Ular uchun soliq stavkalari har xil bo‘ladi. Biznesga soliq yukini kamaytirish bo‘yicha ishlar davom ettiriladi. Jumladan, 1-yanvardan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasini 15 foizdan 12 foizga pasaytirish hisobiga tadbirkorlar ixtiyorida yiliga kamida 14 trillion so‘m mablag‘ qoladi. Ilg‘or tajribalar asosida soliq va bojxona ma’murchiligi jiddiy isloh qilinadi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasi pasaytirilishi munasabati bilan onlayn nazorat-kassa texnikalari orqali beriladigan fiskal cheklarda stavkasi 12 % ko‘rsatilishi kerak. Bu haqda Davlat soliq qo‘mitasi xabar berdi.

“Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilingani munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni Prezident tomonidan imzolandi. Unga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

Qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushiriladi (bunda soliq stavkasining 3 foiz punktga pasaytirilishi natijasida tadbirkorlar ixtiyorida 14 trln. so‘m mablag‘ qolishi mumkin).

[18] Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasidan.

Jismoniy shaxslar o‘z daromadlarini ipoteka kreditlarini qoplashga yo‘naltirganda soliqqa tortilmaydigan daromadlar miqdori amaldagi yillik 15 mln so‘mdan 73,6 mln so‘mgacha oshiriladi;

Bunda, uy-joyning qiymatiga qo‘yilgan talab (300 mln so‘m) bekor qilinadi.

Bundan tashqari, soliq qarzini mol-mulk hisobidan undirishga qaratishning belgilangan muddati 60 kungacha (amalda 30 kun) uzaytiriladi;

Kichik va o‘rta biznes toifasiga kiruvchi tadbirkorlar uchun soliq to‘lovlarini 6 oyga foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash huquqi beriladi;

Amalda Markaziy bank asosiy stavkasi (15 foiz) asosida foizlar hisoblanadi.

Avvalroq, ushbu qonunning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi muhokamasidan so‘ng advokatlik tuzilmalarini qo‘shimcha qiymat solig‘i to‘lovchilariga aylantirmaslik qaroriga kelingan edi.

Davlat byudjetidan qaytarilgan QQS 12,7 trln so‘mdan oshdi. Qayd etilishicha, jami 8 424 ta ariza bo‘yicha 4 833 korxonaga 12 773, 5 mlrd so‘m miqdoridagi summa qaytarilgan.

Hududlar kesimidagi ko‘rsatkichlar quyidagicha[19]:

–Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha DSI – 7 416,6 mlrd so‘m (124 ta korxona);
–Qoraqalpog‘iston R. – 94,6 mlrd so‘m (308 ta korxona);
–Toshkent sh – 1 799,4 mlrd so‘m (596 ta korxona);
–Andijon – 589,6 mlrd so‘m (622 ta korxona);
–Buxoro – 201,9 mlrd so‘m (446 ta korxona);
–Jizzax – 182,1 mlrd so‘m (75 ta korxona);
–Qashqadaryo – 292,5 mlrd so‘m (308 ta korxona);
–Navoiy – 64,2 mlrd so‘m (206 ta korxona);
–Namangan – 261,6 mlrd so‘m (508 ta korxona);
–Samarqand – 537,6 mlrd so‘m (150 ta korxona);
–Surxondaryo – 62,7 mlrd so‘m (325 ta korxona);
–Sirdaryo – 172,5 mlrd so‘m (127 ta korxona);
–Toshkent v. – 651,3 mlrd so‘m (258 ta korxona);
–Farg‘ona – 337,7 mlrd so‘m (533 ta korxona);
–Xorazm – 105,0 mlrd so‘m (247 ta korxona).

Sohalar kesimida:

–Ishlab chiqaruvchilar – 7 107,8 mlrd so‘m (1 119 ta korxona);
–Chakana savdo – 1 390,6 mlrd so‘m (801 ta korxona);
–Ulgurji savdo – 946,0 mlrd so‘m (204 ta korxona);
–Qurilish – 848,0 mlrd so‘m (112 ta korxona);
–Qishloq xo‘jaligi — 613,0 mlrd so‘m (2 020 ta korxona);
–Import qiluvchilar – 549,0 mlrd so‘m (173 ta korxona);

[19] O’zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida

–Boshqalar – 1 319,1 mlrd so‘m (404 ta korxona).

Qoplab berilgan jami QQS o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 trln so‘mga ko‘p.

2022-yil 5-may kuni imzolangan tegishli Qonun bilan Soliq kodeksiga ayrim o‘zgartirishlar kiritildi:

Unga ko‘ra, O‘zbekistonga o‘simlik yog‘i, kungaboqar va zig‘ir urug‘i, soya danagini olib kirish, shuningdek o‘simlik yog‘ini ishlab chiqarish va (yoki) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha uzaytirildi. Ilgari 2022-yil 30-aprelgacha edi.

Shuningdek, go‘shtni (mol go‘shtini, qo‘y go‘shtini), tirik hayvonlarni (molni va qo‘yni) va ularni so‘yishdan olingan mahsulotlarni, kartoshkani realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma, shuningdek ularni O‘zbekistonga olib kirishda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha uzaytirildi.

Tovuq go‘shti, muzlatilgan baliq va tirik parrandalarga qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyoz 2022-yil 30-aprelgacha etib o‘zgartirishsiz qoldirildi.

Moliya vaziri o‘rinbosari Dilshod Sultonov QQSning 12 foizga tushishi ortidan narxlarning pasayishini «ehtimoldan yiroq» deb atadi. Uning fikricha, kompaniyalar «soliq stavkasi pasayishidan oladigan foydani xaridorlarga berishi dargumon». Uning aytishicha, raqobatbardosh bozorlardagina narxlar tushishi mumkin.

Kelgusi yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasini 15 foizdan 12 foizga tushirish narxlarga ta’sir qiladimi? O‘zbekiston moliya vaziri o‘rinbosari Dilshod Sultonov «Gazeta.uz»ga bergan intervyusida ushbu savolga javob berdi. 2023 yilgi soliq siyosatiga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida avvalroq xabar bergan edik.

“Narxlarga keladigan bo‘lsak, ularning arzonlashuvi raqobatbordosh bozorlarda mumkin, qolganlarida esa bu dargumon, chunki kampaniyalar soliq stavkasining pasayishidan olinadigan barcha daromadlarni xaridorlarga berishi dargumon”[20].

2019 yilda QQS stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirilganda iste’mol tovarlari va xizmatlarining mutlaq ko‘pchiligi narxlari pasaymagan edi.

«Narxlarning qisqa muddatli pasayishi kuzatilgan bo‘lsa ham, u uzoq davom etmadi va bir yil ichida avvalgi darajaga qaytdi. Bu, birinchi navbatda, iste’molchilarning talab va taklifdan kelib chiqib, amaldagi narxni to‘lashga tayyorligi bilan bog‘liq edi”[21]

Hullas qo‘shilgan qiymat solig‘i olishda avval boshda 2000 yilda 20 % etib belgilangan . lekin keyin 2019 yilga kelib tadbirkorlarga yengillik yaratish maqsadida 20 foizda 15 foizga tushurildi. Yuqorida aytib o‘tilganidek Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida iqtisodiy islohotlar qat’iy davom ettirilib, ichki imkoniyatlar to‘liq safarbar qilinib, xususiy sektor

[20] Molya vazirligining rasmiy sahifasi
[21] Soliq qo’mitasi rasmiy sahifasi

yanada qo‘llab-quvvatlanish uchun 15 foiz qo‘shilgan qiymat solig‘i 12 foizga tushurildi. Buning hammasi aholi daromadlarini yaxshilash hamda o‘zbekistondagi narxlarni oz bo‘lsada pasaytirish yoki narxlarni keskin ko‘tarilib ketishini oldini olish uchun imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabyotlar:

1. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.

2. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 105-110.

3. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 56-59.

4. O’G’Li N. D. R., Qizi T. D. Z. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1-4.

5. Gaybulayev Sarvar Uktam ugli, Saitov Sirojiddin, & Davlatboyeva Sojida Oybek qizi. (2022). SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 115–119. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/358

6. Nizametdinov Ali Akramovich, Gaybullayev Sarvar, & Honkelov Yassim. (2022). THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 95–99. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/354

7. G'aybullayev S. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

8. G’aybullayev Sarvar O’ktam o’g’li, Xaydarov Bahrom, & Jarasheva Go’zal Bahodir qizi. (2022). THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 287–293. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/388

9. Anorboyeva Durdona Shodiboy qizi, & Sarvar G’aybullayev. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI. *Journal*

of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 86–89. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/401

10. Gaybullayev Sarvar, Saitov Sirojiddin, & Pulatova Mashhura Xushnudbek qizi. (2022). FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(12), 125–129. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/360

11. Sarvar G’aybullayev. (2022). THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *1*(11), 116–126. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/313

12. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

13. Sarvar O'ktam o'g G. et al. SYSTEMATIC-SITUATION APPROACH IN MANAGEMENT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 999-1008.

14. G’aybullayev Sarvar, Xaydarov Bahrom, & Anorboyeva Durdona. (2022). O’ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 63–69. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/396

TALABA YOSHLARNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHQLARNING AHAMIYATI

Qodirov Abubakr Rashodjon o‘g‘li
O‘zDJTSUFF,“Umumkasbiy, gumanitar va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538457

Annotasiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish bolalar va o‘smirlarda ruhiy va ma’naviy tetiklikni shakllantiradi, vatanparvarlik va Vatanni sevish his-tuyg‘ularini shakllantish ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, mashg‘ulot, jismoniy tarbiya darslari.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish sog‘liqni mustahkamlash, shuningdek o‘sib kelayotgan yosh avlodini uyg‘un rivojlantirish jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanishini ta’kidlab, barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o‘rniini ko‘rsatib berdilar. Sog‘lom avlodni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola organizmining shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ta’siri beqiyos hisoblanadi. Inson organizmi muntazam ravishda harakatlarga biologik ehtiyojni sezadi.

Insonning taraqqiy etishda, shakllanishida faol harakat, ayniqsa jismoniy harakat eng muhim omillardan biridir. Bu qator olimlarning tajriba va kuzatuvlaridan ma’lumki, optimal harakatlanish bolalarning jismoniy rivojlanishi va qobilyatining oshishi uchun imkoni yaratadi. Agar harakatchanlik xaddan tashqari oshirilsa, jismoniy mashqlarning foydasi pasayadi va organizmga salbiy ta’sir etadi, harakatchanlikning haddan tashqari oshishi yosh shug‘ullanuvchilarga qattiq ta’sir ko‘rsatadi

Bo‘lajak avlod – davlat boyligi. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, maxallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, maxalla-yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Insoniyat ko‘p yillar davomida yosh avlodni sog‘lom tarbiyalash masalasiga ham ijodiy, ham amaliy yondashib kelgan

Bu harakatlar jismoniy kamolotga erishishda va intellektual rivojlanishda faol biologik stimul vazifasini bajaradi. Organizmning intensiv o‘sish va rivojlanish davri bolalik va o‘smirlik vaqtiga to‘g‘ri keladi. Bola organizmida o‘sish jarayonining passiv holatini kuzatish shu narsaga olib keladiki, o‘smirlik davriga kelib tayanch-harakat apparati va ichki organlarda kasallik alomatlari kuzatiladi. Bolada ruhiy diskomfort shakllanadi. Bugungi kunda respublikamizning sog‘lom va garmonik

rivojlangan fuqarosini shakllantirishni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining bolalar sog‘lig‘i va tashqi muhitning noqulay ta’sirlariga qarshi turish qobiliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatish to‘g‘risida ilmiy asoslangan tadqiqotlar mavjud.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish bolalar va o‘smirlarda ruhiy va ma’naviy tetiklikni shakllantiradi, vatanparvarlik va Vatanni sevish his-tuyg‘ularini shakllantiradi. Jismoniy tarbiya va sport bolaga va o‘smirga juda ko‘p narsa berishi mumkin. U jisman rivojlanish, jismoniy sifatlar va harakat malaka, ko‘nikmalarni takomillashuvi, organizm zahiralari va ish qobiliyatining ortishi, ko‘pgina kasalliklarga qarshi immunitetining kuchayishi sifatida yuzaga chiqishi mumkin.

Agar bolaning jismoniy qobiliyatlari va harkat malakalari o‘stirishga yoshlikdan asos solinsa, ulg‘aygan sari shu qobiliyatlar samarali shakllana boradi. Ma’lumki, jismoniy sifatlar insonda tug‘ilganidan boshlab shakllana boradi. Lekin bolada shu sifatlarning qay darajada shakllanishi, oddiy yoki murakkab harakatlarni o‘zlashtirib olishi faqatgina u yashab kelayotgan muhitga emas, balki bolada muayyan jismoniy ko‘nikmalarni qanday vositalar yordamida rivojlantirishga ham bog‘liqdir. Jismoniy mashqlarni to‘g‘ri qo‘llash, ularni bolalar qanday o‘zlashtirayotganligini nazorat qilib borish shu bolalardagi jismoniy sifatlarni, uning qaddi-qomati, jismoniy va harakat malakalari taraqqiyoti to‘g‘ri yo‘nalishda shakllanib borishga imkon yaratadi. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida kichik maktab yoshi davrida bolaning jismoniy ko‘nikmalari va hayotiy harakat malakalari milliy va haraktli o‘yinlar yordamida samaraliroq rivojlanishi isbotlab berilgan. Shuningdek, jismoniy harakatlarning turi, yo‘nalishi va qanday maqsadga qaratilganligiga (kasb, ro‘zg‘or ishi, sport, harbiy faoliyat va hokazo) ga qarab, har bir jismoniy hatti-harakatning shu harakat ijrosidagi o‘rni turlicha bo‘ladi. Shunday bo‘lsada, sport turlarida shu jismoniy sifatlarning integral rivojlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ammo ko‘pincha, barcha hattiharakatlar faoliyati jarayonida ayrim jismoniy sifatlarning ustuvorligi darhol ko‘zga tashlanadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida jismoniy tarbiyaning yetakchi vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Bu yosh avlodni jismoniy tarbiyasining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Sog‘liqni mustahkamlash, o‘quvchilarni chiniqtirish, ularning to‘g‘ri jismoniy rivojlanishiga va yuqori aqliy ish qobiliyatlarini saqlab turishga ko‘maklashish;

- Jismoniy sifatlarni tarbiyalash (egiluvchanlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, va chidamlilik) hamda hayotiy zarur harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, to‘siqlardan oshib o‘tish, saf tayyorgarligi;

- Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus bilim va ko‘nikmalar bilan o‘quvchilarni qurollantirish.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish jarayonida o‘quvchilarda ular uchun zarur bo‘lgan maqsad sari intilish, tashabbuskorlik,

qat’iyatlilik, botirlik, intizomlilik kabi irodaviy sifatlar, shuningdek o‘zaro do‘stlik va jamoa mehnatini qadrlash, vatan himoya qilish kabi tuyg‘ular shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.

2. Hasanboyev J, Hasanboyeva O, Turapova M. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - Toshkent.: Badiiy adabiyot, 2002.

2. Mahkamjanov K., Salamov R., Ikromov I., Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. -Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2008

BOLANING RIVOJLANISHIDA TA’LIM JARAYONI BILAN JISMONIY TARBIYA BIRLIGI VA AHAMIYATI

Tuxtasinov Bobir Maxammadali o‘g‘li
O‘zDJTSUFF,“Umumkasbiy, gumanitar va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538463

Annotasiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish bolalar va o‘smirlarda ruhiy va ma’naviy tetiklikni shakllantiradi, vatanparvarlik va Vatanni sevish his-tuyg‘ularini shakllantish ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, to‘siqlardan oshib o‘tish, saf tayyorgarligi, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, mashg‘ulot, jismoniy tarbiya darslari.

Sog‘lom avlodni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola organizmining shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ta’siri beqiyos hisoblanadi. Inson organizmi muntazam ravishda harakatlarga biologik ehtiyojni sezadi. Bu harakatlar jismoniy kamolotga erishishda va intellektual rivojlanishda faol biologik stimul vazifasini bajaradi. .Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish sog‘liqni mustahkamlash, shuningdek o‘sib kelayotgan yosh avlodini uyg‘un rivojlantirish jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanishini ta’kidlab, barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o‘rniini ko‘rsatib berdilar.

Organizmning intensiv o‘sish va rivojlanish davri bolalik va o‘smirlik vaqtiga to‘g‘ri keladi. Bola organizmida o‘sish jarayonining passiv holatini kuzatish shu narsaga olib keladiki, o‘smirlik davriga kelib tayanch-harakat apparati va ichki organlarda kasallik alomatlari kuzatiladi. Bolada ruhiy diskomfort shakllanadi. Bugungi kunda respublikamizning sog‘lom va garmonik rivojlangan fuqarosini shakllantirishni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining bolalar sog‘lig‘i va tashqi muhitning noqulay ta’sirlariga qarshi turish qobiliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatish to‘g‘risida ilmiy asoslangan tadqiqotlar mavjud.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish bolalar va o‘smirlarda ruhiy va ma’naviy tetiklikni shakllantiradi, vatanparvarlik va Vatanni sevish his-tuyg‘ularini shakllantiradi. Jismoniy tarbiya va sport bolaga va o‘smirga juda ko‘p narsa berishi mumkin. U jisman rivojlanish, jismoniy sifatlar va harakat malaka, ko‘nikmalarni takomillashuvi, organizm zahiralari va ish qobiliyatining ortishi, ko‘pgina kasalliklarga qarshi immunitetining kuchayishi sifatida yuzaga chiqishi mumkin.

Ruhiy salomatlik orqali jismoniy salomatlikni ham saqlash va boshqarish mumkinligi g‘oyasi yangi bo‘lmay, u XX asr boshlaridayoq psixolog va psixiatr mutaxassislar diqqatini o‘ziga tortgan. Olimlar shuni ta’kidlashganki, sog‘lom inson bemordan farqli ravishda o‘zidagi jami psixik jarayonlar, xolatlar va qobiliyatlarni boshqarishi mumkin

Shaxs tomonidan salomatlikni psixologik nuqtai nazaridan boshqarish o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: maqsad-muddaoni qo‘yish, o‘zidagi mavjud ma’lumot va axborotlarni tahlil etish, mustaqil qarorlar qabul qilish, ijrosini ta’minlash va nazorat qilish. Har bir alohida bosqichda shunday o‘ziga xos jarayonlar ro‘y beradiki, ular oxir-oqibat salomatlikni ta’minlaydi. Masalan, odamning o‘z oldiga aniq hayotiy mo‘ljallarni qo‘ya olishi, kelgusida qanday kasbkorga ega bo‘lishiga oid aniq tasavvurlarning mavjudligi, hayotda tasodifan qandaydir mavqega ega bo‘lish emas, balki o‘z sa’yi-harakatlari, hayotiy intilishlari tufayli o‘rnini topishini anglashi kabilar o‘ta muhim bo‘lib, insonning salomatligi, o‘zini yaxshilar orasida yaxshi his qilishni ta’minlaydi

Bu yosh avlodni jismoniy tarbiyasining vazifalariga quyidagilar kiradi: - Sog‘liqni mustahkamlash, o‘quvchilarni chiniqtirish, ularning to‘g‘ri jismoniy rivojlanishiga va yuqori aqliy ish qobiliyatlarini saqlab turishga ko‘maklashish;

- Jismoniy sifatlarni tarbiyalash (egiluvchanlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, va chidamlilik) hamda hayotiy zarur harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, to‘siqlardan oshib o‘tish, saf tayyorgarligi;

- Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus bilim va ko‘nikmalar bilan o‘quvchilarni qurollantirish. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish jarayonida o‘quvchilarda ular uchun zarur bo‘lgan maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, botirlik, intizomlilik kabi irodaviy sifatlar, shuningdek o‘zaro do‘stlik va jamoa mehnatini qadrlash, vatan himoya qilish kabi tuyg‘ular shakllantiriladi.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilinishini avvalo to‘g‘ri fikrlashdan boshlash lozim. Bizni fikr yuritishimiz, o‘z hayotimizga to‘g‘ri munosabat bildirishimiz, ertangi kundagi kelajagimiz uchun qayg‘urishimiz mavjud emas ekan, bu hol o‘zgalar nazoratidagi hatti-harakatimiz bilan to‘g‘rilanmaydi. Doimiy jismoniy faollik insonni kuchg‘ayratga undash bilan birga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham shakllantiradi. Oila muhitida ota-ona o‘zi ibrat tariqasida farzandini sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom fikrlashi bilan tarbiyalasa, bu qadriyat bola uchun hayotining ajralmas bir qismiga aylanib qoladi.Bugungi kundagi sog‘lom hayot kechirishga jismonan va ruhan tayyor bo‘lish masalasi davlat siyosati doirasida ahamiyat berilayotgan masalalardan biridir. O‘z imkoniyatlariga xolis baho bera oladigan va hayotdagi turli qiyinchiliklarni o‘z irodasi, jismoniy mehnatlari va to‘g‘ri xulosa qila olishi bilan ruhan o‘zini o‘zi boshqarish orqali yenga oladigan kishilarda turli xastaliklarga

nisbatan chidamlilik yuqori darajada bo‘ladi. Insondagi ruhiy holat mustahkam bo‘lsa, jismoniy holatini boshqarish, undan samarali foydalana olish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. -Toshkent.: Fan va texnologiya. 2008.

2. Goncharova O. V. Yosh sportchilarning jismoniy qobilyatlarini rivojlantirish. -Toshkent, 2005.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI

Karimova Gulhayo Botirjon qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali
Umumkasbiy, gumanitar va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538465

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari, jismoniy tarbiya darslari mazmunini ilmiy asosda tashkil qilish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendentsiyalarini ishlab chiqish, bunda innovatsion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga mo‘ljallanganligi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, texnologiya, faoliyat, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, baholash, barkamol shaxs, kafolatlangan natija.

O‘zbekistonda ta’lim sohasida pedagogik amaliyotning turli tomonlarini qamrab olayotgan kuchli innovatsion impuls harakati davom etmoqda: ta’lim sifatini oshirish, natijalarini oldindan belgilash, innovatsion, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, interfaol o‘qitish, ta’lim menejmentiga qaratilgan yondashuvlar vujudga kelmoqda.

Shu jihatdan olganda, quyidagi xolatlar innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatining mazmuni va maqsadini yangicha ko‘rishga talab kuchayganligini bildiradi:

- birinchidan, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan buyuk ma’naviyatimizni tiklash, sog‘lom turmush tarzini barcha fuqarolar, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalish qilib belgilanishi, ijtimoiy xayotimizning barcha soxalaridagi kabi uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni zamon talablari va jahon andozalari asosida tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ular tarbiyalayotgan yoshlarda jismoniy sifatlar, yuksak ma’naviy madaniyat, ahloq va ma’rifat fazilatlarini shakllantirish va singdirish muammolarining yechimini davr taqozo etishi;

- ikkinchidan, davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri - ma’naviy jixatdan barkamol, jismoniy va ruhiy jixatdan sog‘lom, Vatan sarxadlarini ximoya qilish

uchun jismonan chiniqqan, fidoyi insonni tarbiyalash, ta’lim va maorif tizimini takomillashtirish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ma’naviy va ruhiy jixatdan yangi avlodni voyaga yetkazishga ijtimoiy zarurat tug‘ilishi;

- uchinchidan, milliy ma’naviyatimizni tiklash borasida olib borilgan, davom etayotgan ishlar, xalq ta’limining tubdan isloh qilinayotgani jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog‘lom avlod tarbiyasiga keng katta e’tibor qaratilishi tendentsiyasining kuchayishi;

- to‘rtinchidan, universal texnologiyalar bilan bog‘lik globallashuv jarayonida uzluksiz ta’lim tizimida jismoniy tarbiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar asosida talqin qilinishiga ijtimoiy zarurat tug‘ulishi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga jismoniy tarbiya mazmunini ilmiy asosda o‘rgatish, uning tashkiliy va texnologik asoslarini modernizatsiyalash, kelajakda rivojlanish tendentsiyalarini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Bunda innovatsion faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanishi hamda uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘likligi, yoshlarni ijtimoiy munosabatlar tomon yo‘llashi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga zamin yaratadi.

Bugungi kunda pedagogika soxasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish - «o‘qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo‘ldi.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘lik. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoxlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya - ma’lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma’lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Demak, innovatsion texnologiyalarning asosiy negizi – o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun oldindan ta’lim jarayonini loyixalashdir.

Bugun ta’lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma’qullanmoqda:

- faoliyat yo‘nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi);

- kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan);

- o‘zgarishlar ko‘lamiga ko‘ra (lokal, modulli, tizimli);

- kelib chiqish manbaiga koʻra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi - sarflangan mablagʻ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman oʻz-oʻzidan paydo boʻladigan yangiliklardan farqli oʻlarok, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi oʻzgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni yaratish zaruratining oshishi, pedagogik (ta’lim, tarbiya) jarayonda oʻquvchi faoliyatini boshqarish uchun loyixalangan jismoniy tarbiya darslarining barkamol shaxs tarbiyasiga yoʻnaltirilishi bilan uzviy bogʻliqlikda amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyat oʻqituvchining xamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat boʻlib, u shaxsning kasbiy, metodik maxoratini sifatli qayta koʻrish demakdir.

Oʻqituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi uch bosqichda amalga oshiriladi:

• yangilikni pedagogik faoliyatda qoʻllashdan oldingi davrdagi oʻqituvchi faoliyatini taxlil qilish;

• innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini taxlil qilish;

• pedagogik jarayonga yangilik kiritilib boʻlgandan keyingi davrdagi faoliyatni taxlil qilish.

Ma’lumki, shaxsning xislat va fazilatlari faoliyat koʻrsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi xisoblanadi. Shu sababli oʻqituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki yangilik insonga ulugʻvorlikdan koʻra koʻprok zavq bagʻishlaydi.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – oʻqituvchining yangilikka intiluvchanligi, oʻz ustida mustaqil ishlash koʻnikmasi va malakasini shakllantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashgʻulotlarni oʻtkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat - ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan maxsulot yaratishdir. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi boʻlib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyixaga, loyixani texnologiyaga aylantirishga yoʻnaltirilgan faoliyatdir.

Jismoniy tarbiya oʻqituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda quyidagi yoʻnalishlar inobatga olinadi:

• yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlik;

• bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining Davlat ta’lim standartlari (DTS)da ko‘rsatilgan o‘quvchilarning egallashi lozim bo‘lgan minimal talablarni ularda shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatga ijodiy yondashishga o‘rgatish;

• ijodkorlikka asoslangan faoliyatni tashkil qilish.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish – o‘qituvchi faoliyatini jahon andozalariga mos xolatda tashkil etishga imkon tug‘diradi. Bunda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi innovatsion faoliyati yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlash quyidagicha kechadi: mo‘ljallangan yangilikni yalpi va uning alohida bosqichlari muvaffaqqiyatini bashorat qilish; yangilikni boshqa innovatsiyalar bilan qiyoslash, ulardan samaradorini tanlab olish, ularning eng axamiyatlisi va aniqlik darajasini aniqlash; yangilikni tatbiq etishning muvaffaqiyatlilik darajasini tekshirish; yangilikni tatbiq etadigan tashkilotning innovatsion qobiliyatiga baho berish.

Bunda o‘qituvchining innovatsion faoliyati uning shaxsiy kompetentligida ham o‘z ifodasini topadi.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatda quyidagi qobiliyatlarini namoyon etadi:

• dars mashg‘ulotlarida ijodiy motivatsiyani qo‘llaydi, kasbiy faoliyatni baholaydi;

• o‘quvchilarning ijodiy o‘zaro faoliyatiga hamkorlik qiladi;

• qat’iyatlik, mas’uliyatlik va halollik bilan ishini tashkil etadi;

• innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruratni aniqlaydi;

• ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorgarlik ko‘radi;

• shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtiradi va boshqalar.

Innovatsion faoliyatda o‘qituvchi ilg‘or, sermaxsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bulishi lozim. Innovatsion faoliyat motivatsion, texnologik va refleksiv qismlardan tashkil topadi. O‘qituvchini bu faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshiriladi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha xarakat qilishga o‘rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda taxsil oluvchilarning bilish faoliyati va uni boshqarish aloxida axamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining innovatsion faoliyati natijasida o‘quvchilarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar soxasi atroflicha o‘rganilib chiqiladi, maktab va sinfdan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo‘ljallangan uzluksiz didaktik tizimni ta’minlaydigan metodik majmualar yaratiladi; turli musobaqalar, sog‘lom turmush tarzini reklama qiluvchi

tarbiyaviy tadbirlar: suxbatlar, kechalar, sport-shoular uyushtirilib, quvchilarning sport turlariga qiziqishlari inobatga olinadi, sport to‘garaklariga jalb qilinadi, taxsil oluvchilarning jismoniy, ruxiy hamda intellektual qobiliyatlari o‘stiriladi; oiladagi, sinf va maktabdagi pedagogik hamda psixologik muxit atroflicha o‘rganilib, ularning hamkorligi rivojlantiriladi.

Demak, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi innovatsion faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bulg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashda muayyan me’yorlardan foydalanish talab qilinadi. Bunday me’yorlar yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlarini qamrab oladi.

Shunday qilib, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta’lim tizimida sog‘lom ijodiy muxitni yaratish, o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, taxsil oluvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushoxada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish katta axamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarga tayangan holda o‘qituvchilar uchun yangilik xisoblanmish texnologiyalar orqali diqqatni jamlash, erkin mushoxada yuritish, ishonchli qaror qabul qilishga erishiladi. Innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchi va taxsil oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini ifoda etadi. Ular bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda muayyan metod, usul va vositalar asosida samarali boshqarish tizimi maqsadga yo‘naltiriladi. Kafolatlangan natija - jismoniy tarbiya hamda jismoniy va ma’naviy yetuklik masalasini ijobiy hal qilishga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Masharipov I. Sport psixologiyasi. - Samarqand: SamDU nashr-matbaa markazi, 2013. -98-b.
2. Mahkamjonov K.M. Tayyorlov sinflarida jismoniy tarbiya darslari. - T.: «O‘qituvchi», 2011. -94-b.
3. Nasriddinov F.N., Shaternikov E.K. Inson omilini shakllantirishda jismoniy tarbiya va spotr - T.: «O‘qituvchi», 2003. -102-b.
4. Usmonxujaev T.S., Arzumanov S.G., Qodirov V.A. Jismoniy tarbiya. - T.: «O‘qituvchi», 2013.
5. O‘rinova Feruzaxon Uljayevna. Nazirova Gulasal Toxirjon qizi. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi. Journal of advanced research and stability. “Academic excellence on science and research”. Special issue | 2022. 660 -667

JISMONIY MADANIYATNI SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Latipova Nigoraxon Isakovna
O‘zDJTSUFF,“Umumkasbiy, gumanitar va
tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538469

Annotasiya: Ushbu maqolada umumiy va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiluvchi shaxs ijtimoiy-kasbiy funksiyalarni bajarishida organizmni ichki quvvat zahiralari aso-sida rivojlantirish, boyitish, tashqi muhitning turli ta’sirlariga tez moslasha olish xususiyatlarini shakllantirish aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsiy gigiyena qoidalari, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, harakat faoliyati, mashg‘ulot, jismoniy tarbiya darslari.

Jismoniy kamolotga erishish sog‘lom turmush tarzi jismoniy madani-yati tarkibida rasional kun tartibi uning kundalik, haftalik, oylik, yillik, kerak bo‘lsa, umr oxirigacha «optimal» deb belgilangan harakat fa-olligi darajasi bilan bog‘liqdir. Unga oid nazariy va amaliy bilim-ma-lakalar sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mashg‘ulotlari orqali shakllanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan asoslangan o‘ziga xos turmush tarzi tarkib topmoqda. Bunday barqaror taraqqiyotni belgilovchi muhim omil sog‘lom hayot, millat salomatligi negizini tashkil qiladi.

Umumiy va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiluvchi shaxs ijtimoiy-kasbiy funksiyalarni bajarishida organizmni ichki quvvat zahiralari aso-sida rivojlantirish, boyitish, tashqi muhitning turli ta’sirlariga tez moslasha olish xususiyatlarini shakllantirish qobiliyati sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati deb e’tirof qilinadi.

Barqaror turmush tarzini sog‘lom asosga qurish fenomeni antik davrdan to shu kungacha turli ilmiy-nazariy ta’rif va talqinlarga ega. Uning hozirgi ta’rifida sog‘lom turmush tarzining jismoniy madaniyati, barkamol avlod tarbiyasi mazmuni o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Muskullarni faollashtirishning o‘ta muhimligi, samarali (optimal) jismoniy harakatlarning salomatlikka ijobiy ta’siri qanday namoyon bo‘-ladi? Bu masalani tadqiqotchi Yu.I.Evseyev (2008) “Faol ishlayotgan mushak-lar, muskullar, impulьslar oqimini yuzaga keltirish nazariyasi” asosida izohlaydi. Bunda harakatdagi bu impulьslar organizmda modda almashinuvi, asab sistemasi va boshqa barcha organlar faoliyatini barqarorlashtirish, to‘qi-malarning kisloroddan foydalanish holatini yaxshilash, tanada ortiqcha yog‘ hosil bo‘lish va to‘planishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda

tashqi muhitning zararli ta’sirlaridan organizmni himoyalanish qobiliyatini kuchaytiradi, degan xulosa kelib chiqadi.

Agar harakat faoliyatiga jalb qilingan mushaklar guruhi yetarli darajada tonus, taranglik yoki zaruriy darajada rivojlanganlik, jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lmasa im-pulьslarning ichki organlarga ta’siri sust bo‘lishi, organlar ishi normal kechishiga salbiy ta’sir qilishi, rivojlangan mushaklar esa faqat chiroyli ko‘rinish, adl qaddi-qomad uchun yetarli emasligi o‘z-o‘zidan ayon. Jismoniy kamolotga befarq qarovchi, harakatni yoqtirmaydigan turmush tarzi bilan hayot kechiruvchi yoki sust harakatlanuvchi shaxs mushaklari rivojlanmagan-ligi oqibatida impluьslarda quvvat darajasi va uning ta’sir kuchi pasaya-di, bu narsa bosh miya, so‘ng boshqa ichki organlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada nerv hujaylari quvvat zahirasi, immunial himoya darajasi keskin pasayib, oshqozon-ichak trakti, osteoxandroz, radikulit va boshqa kasalliklarga chalinish xavfi kuchayadi, modda almashinuvi bo‘ziladi, yog‘ hu-jayralari ko‘payadi, tana massasi ortadi. Bu degani vazn ortishi, yurak, oyoq, qo‘l, bo‘g‘inlar, nafas va boshqa a’zolar faoliyati qiyinlashadi, organizmda hayotiy zahiralar tez va besamar sarflanadi demakdir. Binobarin, “jismoniy madaniyat – harakatlar zanjiri. Qachonki, bu zanjir uzilsa, inson umri ham uziladi”.

Kasallikning turi sifatida “gipodinamiya” (kam harakatlanish), “gi-pokeneziya” (sust harakatlanish) hozir keng tarqalgan. Asrimizning asosiy xususiyatlaridan biri zamondoshimiz harakat faolligining cheklanib qolganligidir. Bundan 100 yil avval 96% mehnat mushaklar kuchi va quvvati hisobiga bajarilgan (akademik I.A.Berg) bo‘lsa, hozir inson faoliyatining 99% ni mexanizmlarga yuklatilgan. Gipodinamiya, gipokeneziya, chegaralangan jismoniy yuklamalar organizm funksional holati kamayib ketishiga olib kelmoqda, ruhiy sustkashliklar natijasida bu jarayon yanada tezlashib bormoqda. Uzoq umr ko‘ruvchilar hayot tarzini o‘rganish ular orasida o‘ta harakatchanligi bois umuman pessimistlar, har narsadan kamchilik axtaruvchilar, hayotdan norizo, jahldor, dimog‘dor, odamlar kamligi aniqlangan. Demak, “Jahldorlar uzoq yashamaydi” degan ibora bejizga aytilmagan.

Jismoniy kamolotga erishishdagi faollik talab darajasida bo‘lsa, sub’ektning emosional holati yuqori, kayfiyati yaxshi bo‘ladi, yuzida qizillik, muskullarida “xursandchilik” jo‘sh urib turadi, binobarin, jismoniy mashq bilan shug‘ullanish inson muskullariga tetiklik bag‘ishlaydi, organizmning jismoniy yuklama, tizimli mashqlarga ko‘nikishi ta’minlaydi. Bu - sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyatini egallashning dastlabki qadami hisoblanadi. Shunday qilib, shakllanayotgan yosh avlod sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati sohibi sifatida o‘zida jismoniy va ma’naviy go‘zallikni uyg‘unlashtirmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2-tom. 2018.

2. Rahmonov A. Sog‘lom turmush tarzi tarbiya vositasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 48 b.

3. “Sog‘lom avlod uchun” jurnal 2010 yil 4-9 son 30-26 bet.

4. Azizxodjayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU, 2003.

BOLANING RIVOJLANISHIDA TA’LIM JARAYONI BILAN JISMONIY TARBIYA BIRLIGI VA AHAMIYATI

Tuxtasinov Bobir Maxammadali o‘g‘li
O‘zDJTSUFF,“Umumkasbiy, gumanitar va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538477

Annotasiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish bolalar va o‘smirlarda ruhiy va ma’naviy tetiklikni shakllantiradi, vatanparvarlik va Vatanni sevish his-tuyg‘ularini shakllantish ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, to‘siqlardan oshib o‘tish, saf tayyorgarligi, jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, mashg‘ulot, jismoniy tarbiya darslari.

Sog‘lom avlodni rivojlantirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola organizmining shakllanishida jismoniy tarbiya va sportning ta’siri beqiyos hisoblanadi. Inson organizmi muntazam ravishda harakatlarga biologik ehtiyojni sezadi. Bu harakatlar jismoniy kamolotga erishishda va intellektual rivojlanishda faol biologik stimul vazifasini bajaradi. .Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish sog‘liqni mustahkamlash, shuningdek o‘sib kelayotgan yosh avlodini uyg‘un rivojlantirish jarayonining ajralmas bir qismi hisoblanishini ta’kidlab, barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportning o‘rniini ko‘rsatib berdilar.

Organizmning intensiv o‘sish va rivojlanish davri bolalik va o‘smirlik vaqtiga to‘g‘ri keladi. Bola organizmida o‘sish jarayonining passiv holatini kuzatish shu narsaga olib keladiki, o‘smirlik davriga kelib tayanch-harakat apparati va ichki organlarda kasallik alomatlari kuzatiladi. Bolada ruhiy diskomfort shakllanadi. Bugungi kunda respublikamizning sog‘lom va garmonik rivojlangan fuqarosini shakllantirishni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining bolalar sog‘lig‘i va tashqi muhitning noqulay ta’sirlariga qarshi turish qobiliyatiga muhim ta’sir ko‘rsatish to‘g‘risida ilmiy asoslangan tadqiqotlar mavjud.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish bolalar va o‘smirlarda ruhiy va ma’naviy tetiklikni shakllantiradi, vatanparvarlik va Vatanni sevish his-tuyg‘ularini shakllantiradi. Jismoniy tarbiya va sport bolaga va o‘smirga juda ko‘p narsa berishi mumkin. U jisman rivojlanish, jismoniy sifatlar va harakat malaka, ko‘nikmalarni takomillashuvi, organizm zahiralari va ish qobiliyatining ortishi, ko‘pgina kasalliklarga qarshi immunitetining kuchayishi sifatida yuzaga chiqishi mumkin.

Ruhiy salomatlik orqali jismoniy salomatlikni ham saqlash va boshqarish mumkinligi g‘oyasi yangi bo‘lmay, u XX asr boshlaridayoq psixolog va psixiatr mutaxassislar diqqatini o‘ziga tortgan. Olimlar shuni ta’kidlashganki, sog‘lom inson bemordan farqli ravishda o‘zidagi jami psixik jarayonlar, xolatlar va qobiliyatlarni boshqarishi mumkin

Shaxs tomonidan salomatlikni psixologik nuqtai nazaridan boshqarish o‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: maqsad-muddaoni qo‘yish, o‘zidagi mavjud ma’lumot va axborotlarni tahlil etish, mustaqil qarorlar qabul qilish, ijrosini ta’minlash va nazorat qilish. Har bir alohida bosqichda shunday o‘ziga xos jarayonlar ro‘y beradiki, ular oxir-oqibat salomatlikni ta’minlaydi. Masalan, odamning o‘z oldiga aniq hayotiy mo‘ljallarni qo‘ya olishi, kelgusida qanday kasbkorga ega bo‘lishiga oid aniq tasavvurlarning mavjudligi, hayotda tasodifan qandaydir mavqega ega bo‘lish emas, balki o‘z sa’yi-harakatlari, hayotiy intilishlari tufayli o‘rnini topishini anglashi kabilar o‘ta muhim bo‘lib, insonning salomatligi, o‘zini yaxshilar orasida yaxshi his qilishni ta’minlaydi

Bu yosh avlodni jismoniy tarbiyasining vazifalariga quyidagilar kiradi: - Sog‘liqni mustahkamlash, o‘quvchilarni chiniqtirish, ularning to‘g‘ri jismoniy rivojlanishiga va yuqori aqliy ish qobiliyatlarini saqlab turishga ko‘maklashish;

- Jismoniy sifatlarni tarbiyalash (egiluvchanlik, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, va chidamlilik) hamda hayotiy zarur harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, to‘siqlardan oshib o‘tish, saf tayyorgarligi;

- Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus bilim va ko‘nikmalar bilan o‘quvchilarni qurollantirish. Shunday qilib, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘illanish jarayonida o‘quvchilarda ular uchun zarur bo‘lgan maqsad sari intilish, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, botirlik, intizomlilik kabi irodaviy sifatlar, shuningdek o‘zaro do‘stlik va jamoa mehnatini qadrlash, vatan himoya qilish kabi tuyg‘ular shakllantiriladi.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilinishini avvalo to‘g‘ri fikrlashdan boshlash lozim. Bizni fikr yuritishimiz, o‘z hayotimizga to‘g‘ri munosabat bildirishimiz, ertangi kundagi kelajagimiz uchun qayg‘urishimiz mavjud emas ekan, bu hol o‘zgalar nazoratidagi hatti-harakatimiz bilan to‘g‘rilanmaydi. Doimiy jismoniy faollik insonni kuchg‘ayratga undash bilan birga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham shakllantiradi. Oila muhitida ota-ona o‘zi ibrat tariqasida farzandini sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom fikrlashi bilan tarbiyalasa, bu qadriyat bola uchun hayotining ajralmas bir qismiga aylanib qoladi.Bugungi kundagi sog‘lom hayot kechirishga jismonan va ruhan tayyor bo‘lish masalasi davlat siyosati doirasida ahamiyat berilayotgan masalalardan biridir. O‘z imkoniyatlariga xolis baho bera oladigan va hayotdagi turli qiyinchiliklarni o‘z irodasi, jismoniy mehnatlari va to‘g‘ri xulosa qila olishi bilan ruhan o‘zini o‘zi boshqarish orqali yenga oladigan kishilarda turli xastaliklarga

nisbatan chidamlilik yuqori darajada bo‘ladi. Insondagi ruhiy holat mustahkam bo‘lsa, jismoniy holatini boshqarish, undan samarali foydalana olish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - T.: O‘zDJTI nashriyot-matbaa. 2005.
3. Mahkamjonov K. M. Tayyorlov sinflarida jismoniy tarbiya darslari. - Toshkent.: O‘qituvchi. 2011.

SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNI OILADAGI O‘RNI

Sharipov Maxmud Rasulovich
O‘zDJTSUFF,“Umumkasbiy, gumanitar va
tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538481

Annotasiya: Ushbu maqolada oilada sog‘lom turmush tarzzini shakllantirishda Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish inson organizmini mustahkashi, ish qobiliyatini o‘stiradi, sog‘lom hayot tarzidagi ehtiyojini qondiradi. Bu esa uzoq yillar davomida salomatlikni ijobiy bo‘lishiga olib kelishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, mashg‘ulot,oilada jismoniy tarbiya.

Sog‘lom oilada sog‘lom farzand tug‘iladi, shaxs sifatida shakllanadi. Yurtimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq aholini salomatligini mustaxkamlash, ayniqsa, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan sog‘lom hamda ma’nan yetuk avlodni tarbiyalash masalasiga ustuvor vazifa sifatida e’tibor qaratilmokda. Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda turli xil sport majmualari qurilib yoshlarimizga topshirilgan. Masalan suzish. tennis, gimnastika, kurash, og‘ir atletika va yengil atletika sport mashg‘ulotlaridan foydalanib kelmoqda. Oilada ona doim farzand tarbiyasida bo‘ladi.

Sog‘lom oila, sog‘lom ona, sog‘lom bola, sog‘lom turmush tarzi tushunchalarini anglab yetish o‘quv maskanlarida sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishga odatlanish, sog‘lom bolani voyaga yetkazishning poydevori desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Onalarimiz oilada tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib, sog‘lom muhitni yaratsagina oilaning kelajagi porloq bo‘ladi. Oilada bola dunyoga kelganidan ona parvarishda bo‘ladi. Har bir ona bolasining yoshligidan har-xil jismoniy harakatlarga o‘rgatadi. Oilada bola tug‘ilgandan so‘ng ma’lum bir chaqaloqlik davridan jismoniy mashqlar bajarib tez-tez cho‘miltirilsa bola sog‘lom harakatchan, immun sistemasi yuqori, organizmi chiniqib o‘sib ulg‘ayadi. Bundan tashqari ayollarning o‘zi ham jismoniy mashqlar bilan shug‘ullansa oilasining kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Ko‘pincha farzand ona bilan bo‘lganligi sababli uni jismoniy sog‘lom bo‘lib o‘sishida jismoniy madaniyat va sport bilan shug‘ullanishini nazoratga olishi maqsadga muvofiq bo‘lardi. Oilada bo‘lgan ayollarning farzand tarbiyasidagi o‘rni nafaqat o‘z oilasiga balki, mahallasi va butun bir jamiyatga ta’sirini ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishda bola organizmining yoshi va jinsi birinchi

navbatda hisobga olinishi kerak. Shunda bunday shug‘ullanish ijobiy ta’sir qiladi. Bunga asosiy sabab bola organizmining o‘sish va rivojlanishida bir qator morfologik, fiziologik, biokimyoviy o‘zgarishlar sodir bo‘lib turishidir. Bu o‘zgarishlarning namoyon bo‘lishida, birinchidan, irsiy xususiyat, ikkinchidan, muhit omillari muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismidir. Shuningdek, insonning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sohalardan biridir. Ma’lumki, jismoniy tarbiya va sport har tomonlama barkamol insonni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish inson organizmini mustahkamlaydi. Ish qobiliyatini o‘stiradi, sog‘lom hayot tarzidagi ehtiyojini qondiradi. Bu esa uzoq yillar davomida salomatlikni ijobiy bo‘lishiga olib keladi. Jismoniy harakat insonning ruhiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. U salbiy, ruhiy ta’sirlar, aqliy charchashni bartaraf etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Jismoniy mashqlar natijasida bola organizimida qon aylanishi yaxshilanadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining kundalik maxsus qirralaridan biri bo‘lgan tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari va gigiyenik omillar deganda quyidagilarni tushunishimiz kerak: havo, quyosh nuri, suv jismoniy tarbiya jarayonida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari tarzida tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Hayotiy ehtiyoj, muhit insonni turli sharoitda moddiy ne’mat yaratish, yashashga majbur qiladi.

Bu jarayonga o‘quvchilarni tayyorlash, ko‘nikish hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tabiatning in’omi—havo, suv, quyosh nuri inson ish qobiliyatini oshirish, salomatligini mustahkamlashning asosiy vositasidir. Oilada bola tarbiyasi uning jismoniy va ma’naviy sog‘lom bo‘lib yetishishini o‘z vaqtida bosqichma-bosqich amalga oshirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga yanada kengroq jalb qilinsa oila sog‘lom bo‘ladi, sog‘lom bola dunyoga keladi. Buning uchun mahalla va xotin-qizlar qo‘mitalarining faolligini oshirish, oilalar bilan doimiy ishlashni yanada kuchaytirish lozim.

Fikrimizning dalili sifatida hozirgi oilalarga e’tibor bersak ota-onalar farzandlarini bo‘sh vaqtida har–xil sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishga shart sharoitlar qilib qo‘yganlar. Shuning o‘zi ham onalarimizning sog‘lom turmush tarzini tushunib yetganidan dalolat beradi. Shuni aytish mumkinki, oilada sog‘lom muhitni yaratish ko‘pincha onalar qo‘lidadir. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, jamiyat ravnaqida, ozod va obod yurt bo‘lib rivojlanishida , intelektual, iqtidorli, sog‘lom komil yoshlarni tarbiyalash biz onalar bo‘ynidagi mas’uliyat desak xato qilmagan bo‘lar edik.

Xulosa kilib aytganda oilada sog‘lom turmush tarzini shakillantirish maqsadida farzandlarini biron-bir sport turi bilan muntazam shug‘ullanishlarini istagan ota-onalar avvalo o‘zlari sportga mehr qo‘yishlari lozimdir. Agar sport ota-onalarning

ham kundalik ehtiyojiga aylansa oilada, sog‘lom turmush tarzini shakillantirishga erishiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2019.
2. Sharipov Sh. S. va boshq. Kasbiy ta’lim pedagogikasi. Metodik qo‘llanma. - T.: TDPU, 2005.
3. Hasanboyeva O. va boshq. Maktabgacha pedagogika. Toshkent.: Ilm-Ziyo. 2011.

QARAQALPAQ TILINDEGI FRAZEOLOGIZMLERDE ARALAS QOLLANILǴAN SANLIQLAR

Atabaeva Gózzal
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti
Qaraqalpaq til bilimi kafedrası stajyor oqıtıwshısı
https://doi.org/10.5281/zenodo.7533042

Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmleri quramında sanlıqlardıń qollanılıw ózgesheliklerin, atqaratuǵın xızmetlerin kóriwimizge boladı. Házirgi qaraqalpaq tilinde sanlıqlar frazeologizmlerdiń quramında aralas túrde de qollanıladı.

Frazeologiyalıq sóz dizbekleri sostavı sanlıq, atlıq, feyil sózlerdiń qatar dizbekleri keliwinen jasaladı. Bunday jaǵdayda dizbektiń ulıwma mánisi sanlıq sózdiń átirapında soǵan baylanıslı dúzilip, kóbinese feyil hám kelbetlik sózlerdi payda etedi. Frazeologiyalıq dizbeklerdiń ishindegi sanlıq sózler sol dizbeklerdiń jasalıwında tiykarǵı uyıtqı (baza) boladı. [1]

Ilimpaz B.Yusupova bir sanlıǵınıń frazeologizmler quramında qollanılıwınıń mánilik túrlerine toqtap ótedi. Frazeologizmler mánilik jaqtan da, qurılıslıq jaqtan da, sonıń menen birge, basqa da ózgeshelikleri menen belgili bolsa, frazeologizmler quramında sanlıqlardıń keliwi hám olardıń waqıt, ólshem, muǵdar, kólem, uzınlıq, awırlıq h.b mánilerdi bildiriwi ayrıqsha qızıǵıwshılıq tuwdıratuǵın másele bolıp tabıladı. «Bir» sanlıǵı tek bir sóz benen dizbeklesip kelip turaqlasıw nátiyjesinde de, sonıń menen birge bir neshe sózler menen dizbeklesip keliw arqalı turaqlasıp, bir mánige iye bolıp keledi degen pikirdi bildiredi.[2]

Sh.Qudiyarova túrkiy tillerdegi sanlıq frazeologizmlerdiń mánileri hám qollanılıwı haqqında aytıp “Bir sanınıń qatnasıwında zattıń nárseniń az, jaqın ekenligin bildiretuǵın dizbeklerde tilimizde kóplep ushırasadı” degen pikirdi aytıp ótedi[3].

Frazeologizmlerdiń quramında bir hám eki sanlıǵı, bir hám mıń sanlıǵı, eki hám tórt sanlıǵı, bes hám altı sanlıǵı, jeti hám bir sanlıǵı, segiz hám bir sanlıǵı, on hám toǵız sanlıǵı, júz hám mıń sanlıqlarınıń aralas túrde qollanıladı hám hár qıylı mánilerge iye boladı.

Bir sanlıǵı frazeologizmler quramında eki, jeti, segiz, mıń sanlıqları menen aralas qollanılǵanın kóriwimizge boladı. Mısal: Haqıyqatında da *eki báne bir sebep* penen jiberdime, yaki zárúrlik solay boldı ma, qáytkende de, Ismayılǵa Moskva saparı úlken quwanısh bağıshladı (M.Nızanov. Ashıq bolmaǵan kim bar. 72-b). Bul mısaldaǵı frazeologiyalıq sóz dizbegi teńles eki komponentli bolıp *esabın tawıp, sebep tawıp* mánisin bildirip tur.

-Meniń de ákem diyxan edi, sońǵı jıllardaǵı suwsızlıq sebep, *biri eki bolmadı*. (K.Karimov.Aǵabiy.Qısıwmet.84-b) Bul mısaldaǵı frazeologiyalıq sóz dizbegi *jarımadı, bir aylıǵı bir aylıǵına jetpedi* mánisin bildiredi.

-Kimdi kórseń: *birewin ekew etiwge*, ekewin on etiwge, júzin mıńǵa, mıńın millionǵa jetkeriwge asıǵıp, eki iynin julıp jep baratır.(K.Raxmanov. Payǵambar jasındaǵı kúyew). Bul mısaldaǵı frazeologizm *tapqan tabısın kóbeytiw, arttırıw* mánisinde qollanılǵan.

Sóytip *eki jartı bir pútin bolıp* jay jańartıwdı basladı. (G.Esemuratova. Shıǵarmaları.II tom.104-b.) Bul mısaldaǵı frazeologizm *birikti, shańaraq qurdı* mánilerin bildirip tur.

-Háá solayma?!-dedi ol jelpárrigi shıǵıp. -Kim seni qulatıp júrgen? Maǵan atın ayt, sóylesip... *eki ayaǵın bir etikke tıǵıp* qoyayın! (K.Raxmanov. Aqıbet romanı.13-b) Bul mısaldaǵı frazeologizm *qorqıtıw, aytqanın qıldırıw* mánilerinde qollanılǵan.

Eki sózinıń birinde “zakon”, “kodeks”, “jınayat”, “kassaciya”, “appelyaciya” qusaǵan sózlerdi keltiredi.(O.Ábdiraxmanov.Tańlamalı shıǵarmaları.2009.13-b) Bul mısaldaǵı frazeologizm *bir nárseni qayta-qayta ayta beriw* degen mánini bildirip tur.

Bir shoqıp jeti qaraw-saqlıq udayına saqlıqta júriw mánisin bildiredi.

Birine mıńdı bersin, mıńınıń buyırıwın bersin. (Nurlı tilekler.Tashkent. 2020.17-b) Bul mısaldaǵı frazeologizm *nesiybeń mol bolsın* degen tilek mánisin bildiredi..

Ata-babalardıń “*bir esik jabıq bolsa mıń esik ashıq*” degenindey, Ullı Watan esigi keń ashılıp Áyseni bawırına aldı (G.Esemuratova.Tańlamalı shıǵarmaları.VII tom.71-b). Bul mısaldaǵı frazeologizm *adam ómirinde qıyınshılıqlı, awır kúnler bolıwı menen birge jarqın keleshektiń, jaqtılı, quwanıshlı kúnlerdiń de bar ekenligi* mánisin bildirip tur.

-Tuxım taslasań *biriń mıń bolǵay*. (K. Karimov. Aǵabiy. IV11-b) Bul mısaldaǵı frazeologizm *zúráátiń mol bolsın* degen tilek mánisin bildiredi.

Eki hám tórt sanlıqları da bir frazeologizm quramında qollanıladı. Mısalı: Tómenshik, *eki kózi tórt bolıp*, ya tórkinnen xabar bilmey, ya túsken elatınan teń qurbı tappay, ishi dártke tolıp júrgen bolmasın. (T.Qayıpbergenov.Qaraqalpaq qızı.112-bet) Bul mısaldaǵı frazeologizm *intizar bolıp kútiw* mánisin bildirip tur.

Altı hám jeti sanlıqlarınıń frazeologizm quramında somatizmler menen keliwi ushırasadı. Mısalı: *Ayaǵı altı, qolı jetew bolıp*, jelip-júgirip xızmet etsin. (Nurlı tilekler.Tashkent. 2020 31-b). Bul tilek toy aldınan bolajaq kelinge bildiriletuǵın tilek. Bul mısaldaǵı frazeologizm qurılısı boyınsha teńles eki komponentli bolıp *shaqqan bolsın* degen tilek máni bildirip tur.

Jeti hám bir sanlıqlarınıń frazeologizmler quramında aralas qollanıladı. Mısal: Men saǵan isenemen, sonda da *jeti ólshep bir kese ber* Mámbet Kamalovich (A.Abdiev. Elzaxanım. 43-b). Biraq, *jeti ólshep, bir kesip* degendey qıyalında qayta-qayta pisirip, jazbasa bolmaytuǵın halda, júregińdi jarıp shıqqanday etip aytpaǵıń

kerek! (K.Allambergenov. Muhabbat muzaları.Tashkent. 2020. 54-b).Bul mısallardağı frazeologizm teńles eki komponentli bolıp *puxta oylaw* mánilerinde qollanılıp tur.

Segiz hám bir sanlıqlarınıń frazeologizm quramında aralas qollanılǵanın kóriwimizge boladı. Mısalı: Abay Moskvada uzaq turıp qalsa, óziniń teńi-tayı joq adam ekenligin dáliyllew talap etiletuǵın bolǵanlıqtan, ózin “*segiz qırlı, bir sırlı*” jigit etip kórsetiw ushın mákan tabıwǵa tuwra keledi.(O.Ábdiraxmanov.Tańlamalı shıǵarmaları. 248-b). Bul mısaldağı frazeologizm teńles eki komponentli bolıp *sheber, qolınan hár is keletuǵın adam* mánisin bildirip tur.

On hám toǵız sanlıqları da frazeologizmler quramında jekke siyrek qollanıladı. Mısalı:

Xalıq isi ushın beldi bekkem buwaman
Hújdan múlkin hadallıqqa juwaman
Men de sizdey el mápi dep entelep
On tolǵatıp toǵız ret tuwaman.
(I.Yusupov. Begligińdi buzba sen. 90-bet.)

Bul qosıq qatarlarında *on tolǵatıp toǵız ret tuwaman* frazeologizmi xalıq tágdiri ushın qayǵırıp, janın qıynap xızmet qılaman degen mánisti ańlatıp, *qayǵırıw, qıynalıw* degen mánisti bildirip tur.

Frazeologizmler quramında júz hám mıń sanlıǵı aralas qollanıladı. Mısal:

Júzden júyrik shıqqan, tulparlar mıńnan
Áwmetlerin bergen bir allam qollap

(G.Shamuratova. Kewil tuyǵıları. 16-bet) Bul frazeologizm *hasıl, jaqsı zattıń kóptiń ishinen shıǵıwı, alǵır* mánilerin bildiredi.

Frazeologizmler quramında mıń sanlıǵı menen eki sanlıǵınıń aralas qollanılıwı da ushırasadı. Mısalı: *Mıńsan eki táshwish, mınsan eki jumıs, mıńsan eki qayǵı* frazeologizmleri.

Qaraqalpaq tiliniń leksikasın arnawlı túrde izertlegen ilimpaz E.Berdimuratov adamnıń dene múshelerine baylanıslı frazeologiyalıq sóz dizbekelerine “kóz”, “til”, “awız, “júrek”, “ayaq” sózlerine baylanıslı frazeologizmlerdi atap ótedi.[3] Frazeologizmler quramında aralas qollanılatuǵın sanlıqlar menen birge adamnıń múshe atamalarına baylanıslı sózler sanlıqlardıń da qollanılıın kóremiz.Mısal: eki *kózi* tórt bolıw; *ayaǵı* altı, *qolı* jetew bolıw; eki *ayaǵın* bir etikke tıǵıw; eki *kózi* esikte, *bası altaw emes, jetew shıǵar.*

Qaraqalpaq tilindegi frazeologizmlerde sanlıqlardıń aralas túrde qollanılıwı mánilik jaqtan hár qıylı bolıp keledi. Keltirilgen mısallardan biz frazeologizmler quramında bir hám eki sanlıǵınıń, eki hám tórt sanlıǵınıń, jeti hám bir, segiz hám bir, bir hám mıń sanlıqlarınıń ónimli qollanılǵanlıǵın kóriwimizge boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ешбаев. Ж Қарақалпақ тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги. Нөкис. Қарақалпақстан баспасы.1985.17-б.

2.Юсупова.Б. «Бир» санлығының фразеологизмлерде жумсалыўы. Қарақалпақ тили фразеологиясының актуаль мәселелери. Нөкис. Қарақалпақстан. 2011.110-б.

3.Қудиярова.Ш.Туркий тиллердеги санлык фразеологизмлердиң мәнилери ҳәм қолланылыўы.-Түркий филологиясының актуаль мәселелери.Әжинияз атындағы НМПИ киши баспаханасы.2008, 23-б.

5. Бекбергенов А. Қарақалпақ тилинде санлықлар. Нөкис, 1976.

ZEBO MIRZONING DARDGA YO‘G‘RILGAN ISHQ SATRLARI

Matchanova Mastura
Urganch davlat universiteti magistratura bo‘limi
221-adabiyotshunoslik guruhi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538485

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyati vakili Zebo Mirzo va uning ijodida ishq mavzusining talqini masalasiga to‘xtalib o‘tilgan.

Annotation: This article focuses on the representative of modern Uzbek poetry, Zebo Mirzo, and the interpretation of the theme of love in his works.

Аннотация: Данная статья посвящена представителю современной узбекской поэзии Зебо Мирзо и вопросу трактовки темы любви в его творчестве.

Kalit so‘zlar: Zebo Mirzo, poeziya, ishq , ko‘ngil,dard

Key words: Zebo Mirza, poetry, love, heart, pain

Ключевые слова: Зебо Мирза, поэзия, любовь, сердце, болью

She’r dard orqali yaraladi. Shoirlar bu olamga kirib kelar ekanlar, qalb kechinmalarini go‘zallik va ezgulik olami bo‘lgan she’riyatda betakror ifodalaydilar. Ijodkorlar inson qalbi va ruhidagi nozik tuyg‘ularni, go‘zal kechinmalarni anglashga, ularni so‘z vositasi orqali go‘zal tarzda namoyon qilishga intiladilar. She’rlariga go‘zal dard ingan, o‘z she’rlari bilan inson qalbini zabt eta olgan shoiralarimizdan biri Zebo Mirzodir.

Insonni yuksaltiradigan, uni poklaydigan, uni baxt yoki baxsizlikka yetaklaydigan his ham muhabbatdir. Ishq mavzusi hech qachon o‘zgarmaydigan mavzu hisoblanadi, inson mavjud ekan, muhabbat va ishq mavzusi hech qachon o‘zgarmaydi.

Aytadilarki, insonga berilgan, faqat insonlardagina mavjud bo‘lgan buyuk tortiq bu ruhiyatdir. Muhabbatning vatani ham ruhiyatdir. U insonning ruhida, qalbida, ichki olamida pinhoniy yashaydi.

Otashman,
Dengizman,
Samoman,
Nurman,
Jism-u jahoningni o‘rtayveraman,
Ayt, qanday topasan, qochmoqqa imkon,
Men seni xudodan so‘rayveraman.

Shoiraning ushbu satrlarida ham qalbi muhabbatga limmo-lim bo‘lgan, muhabbat otashidan joni ichiga sig‘mayotgan, muhabbati bilan mahbubining “jon-u jahonini o‘rtayotgan” oshiq holati bayon qilingan.

O‘tdi bahor ,
O‘tdi xazonlar,
Uzun tunlar ko‘z yummay o‘tdim.
Kelmasingiz bilsam-da ammo,
Kelasiz deb umidvor kutdim.

Yaratganning bizga bergan, biz uchun tortiq qilgan har bitta ne’mati aziz. Yaratgan har bir yaratgan ne’matiga insonni bog‘lab qo‘yar ekan, bu bog‘liqlikning oti esa muhabbat ekan. Muhabbat tuyg‘usi hamma hammaga ham nasib qilmaydigan, hammaning boshiga ham qo‘navermaydigan baxt qushidir.

Yuqoridagi misrada ham yoriga sadoqat tuyg‘usidan bir umr uni kutgan, sog‘inch sargardonligidan tunlari hatto kiprik qoqmay o‘tgan vafodor oshiq holati aks ettirilgan.

Oshiq qalb sevgan kishisi uchun hamma narsaga tayyor bo‘ladi, uning so‘zlaridan , uning ishlaridan mo‘jiza qidiradi.

Ishq yog‘dudir yurakka oqqan,
Qaydan bilsin zulmat sochganlar.
Bizni anglar, bizni ko‘rarlar,
Ko‘zni yumib, dilni ochganlar.

Bu satrlarda shoira muhabbatning sirini, oshiq qalbini faqatgina qalb ko‘zgusi bilan idrok qilishni nazarda tutmoqda.Bu misralardan biz, ishqning yurakka quyiluvchi bir nur ekanligini, bu nurni esa dil bilan his qilish kerakligini ajoyib tarzda tasvirlab bergan.

“Biz qaraymiz, ammo juda ko ‘p narsani ko‘rmaymiz…Bizga berilganlari –tush kabi oniy, taxayyul osmonidan, tasavvur ko‘zgusiga bir lahza tushib o‘tgan nur soyalaridir”.Shoira ijodiga sinchiklab nazar solinsa, birinchi navbatda uning ko‘ngil kishisi ekanligi, she’rlarida ko‘ngil manzaralari, qalb manzaralari aks etganligini ko‘rish mumkin. Uning asl she‘rlarini ko‘ngil mavjlari deyish mumkin. She‘rlari pokiza ko‘ngilning holatini ifodalash ehtiyoji va natijasi o‘laroq yuzaga kelgan:
Bilaman men uning tengi emasdim,
Lekin sevdim tengsiz muhabbat bilan.
Hijron tunlarida
bor edi qasdim,
Men uni o‘qidim yoniq dard bilan.
Qachondir yurakka jazillab bosgan,
Ishq edi – Quyoshning tosh uzra yo‘li.
Bilaman: men unga hech kim emasman,

U – menga Tangrining uzalgan qo‘li!

She’r hamisha darddir. Kamdan-kam holatlarda shodlikdan she’r paydo bo‘ladi. Shoira ushbu misralarida xulosa bermaydi, xolis tasvirlaydi. Har qanday so‘z belgi, har qanday so‘z ma’lum bir vazifani bajaradi. Hattoki insonning dardi, alami ham unga Yaratgan tomonidan berilgan bir sinoat, sinov ekanligini, hasratga, g‘am-anduhga chulg‘angan inson doimo Tangrini yod etadi, g‘amlaridan xalos etmoqlikni so‘raydi. Shoiraning aynan *“U – menga Tangrining uzalgan qo‘li!”* misralari mana shu fikrlarimizni o‘zida mujassam etgan satrlar desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Ayriliqning o‘ziga xosligini ifodalovchi so‘zlar shoira tuyg‘ularining go‘zal tasviri orqali yanada mukammallashadi. Shoira she’rlari pokiza tuyg‘ular, ismsiz dardlarning ifodasi. Ulardan sokin ohang taraladi. Mungli bu ohang tuyg‘ular bezovtaligidan, ruhiyat tovlanishlaridan yuzaga keladi. Hasratzada ko‘ngil mavjlari kitobxon qalbini ham larzaga soladi.

Na yog‘du bo‘loldim, na oyman to‘lgan,
Shamollar poyida o‘ynagan xasman.
Yomg‘irlar qo‘lida titrab ezilgan,
Bir xazon bargchalik sevilganmasman…
Bilaman, u menga taqdir etmagan,
Umidlar haqqiga umrimni qo‘ydim.
O‘z bag‘rini o‘ygan shamday alamli
Jimgina yondim-u, jimgina kuydim

Zebo Mirzo she’rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko‘pincha so‘nggi bandda beriladi. Lirik qahramon o‘z qismatining g‘amboda ekanligidan nolib kelar ekan, tuyg‘ular junbushi borgan sari pog‘onama-pog‘ona yuksalib boraveradi. Shoira Zebo Mirzo faqat o‘z shaxsiy hayoti qobig‘ida qolishi mumkin bo‘lmagan darajadagi ijodkordir. Shoira tasvirlagan qalb kechinmalari tashqi olamda ro‘y berayotgan voqelikka munosabat sifatida namoyon bo‘lganligini kuzatish mumkin. Lirik kechinma, qalb torlari va uning nozik jihatlarini bir butun holda tasvirlash ijodkor mahoratining yetakchi xususiyatidir.

Bugungi o‘zbek she’riyatini biz “ko‘ngil she’riyati” deb atashimiz mumkin. Chunki bu she’riyat inson qalbining eng nozik hislarini o‘zida aks ettirmoqda. Zeroki, ko‘ngil olamiga kirish va uning taftish qilinmagan qirralarini ilg‘ash va uni ifodalash ijodkorlarning iqtidor mahoratida namoyon bo‘lmoqda. Shoiraning har bir she’rini o‘qir ekanmiz ularning naqadar qizg‘in ilhom bilan yozilganligiga amin bo‘lamiz. Bu she’rlarni shunchaki o‘qib bo‘lmaydi. Ijodkor she’rlarida go‘zal tashbehlar, yorqin ifoda tarzi, badiiy obraz va detallarning mohirona tasvirlanishi shoira ko‘ngildagi inja tuyg‘ularni qanchalik teran aks ettira olishini ko‘rsatib turibdi. Shoira ijodining muxlislar tomonidan e’tirof etilishining asosiy sababi ham ularda inson hayotining

eng og‘ riqli va ayni damda eng go‘zal nuqtalarining nafis so‘zlar bilan to‘laqonli aks ettirganligidadir.

Shoirlar tomonidan kuylanib kelingan azaliy mavzu bo‘lgan muhabbat mavzusi Zebo Mirzoning ijodida yetakchi o‘rinda turadi. Shoira o‘z she’rlarida bu tuyg‘uning biz bilmagan qirralarini ochib beradi. Uning she’rlarini o‘qir ekanmiz qalbimizda ajib hislar uyg‘onadi. Bu ijod namunalari bizni muhabbatning go‘zal va sirli olamga olib kiradi. Bu olamning o‘ziga xos iztiroblari va shirin azoblarini shoira dilidan bizning dilimizga ko‘chiradi va biz o‘z-o‘zidan ijodkor bilan sirdosh bo‘lib qolamiz.

Shoira o‘zining 2011-yilda nashr qilingan “Ishq” nomli she’riy to‘plamiga ana shunday she’rlardan bir qanchasini kiritgan. Jumladan shoiraning “Yolg‘izlik” nomli she’rida uning ko‘ngil armoni chuqur aks etgan:

Siz baxtlisiz…
Aqldan ozib.
Men jimman
Ishq-umrimga qafas.
Yuragimni ezg‘ilab bosib,
Yillar o‘tdi …yillar…
Men emas!

Yuqoridagi she’rni o‘qir ekanmiz, inson qalbining mehr-u muhabbatga naqadar tashna ekanligini his qilamiz. Shoira sevilmasdan o‘tgan umriga achinadi. Va u bu umrning o‘ziga begona ekanligini, muhabbatsiz o‘tgan umr bu shunchaki begona yillar ekanligini o‘zi esa sevgan insonining nigohi tushgan birgina lahzada abadiy qolganini yozadi.

Qo‘lingizga tutsa ham olloh
Yuragimga chiqmaysiz ega.
Siz sevilib baxtlisiz biroq.
Men baxtiyor emasman nega?

Baxt azaliy tortiq, lekin unga hamma ham erisha olmaydi. Baxt har kim uchun har xil o‘lchovda namoyon bo‘ladi. Sevilish baxti esa – bu eng yuksak in’om, baxt sharafidir. Shoira baxtli va baxtsiz deb ikki insonga ta’rif berar ekan, aslida ikkalasi ham baxt sururidan bebahra ekanligini tan olmaydi. Chunki kimnidir qalbi senda bo‘lsa-yu, sen unga muhtojlik sezmasang, undan quvonch lazzatini tuymasang – buni baxt deyish mumkinmi? Butun qalbing bilan intilgan inson seni hislaringga befarq bo‘lsa, bundan ortiq azob bormi? Biroq eng dahshatlisi mehrga ,muhabbatga muhtoj bo‘lib yashashdir. Ayniqsa sen qadrlagan inson seni qadringga yetmasa senga mehr ko‘rsatmasa, bundan-da yomoni bo‘lmasa kerak.

tufayli umuminsoniylik kasb etadi.

Zebo Mirzo ijodi chinakam ko‘ngil she’riyatidir. Unda asosiy e’tibor murakkab tuyg‘ ular tadrijini akslantirishga qaratiladi. Shoiraning “Ishq” nomli to‘plamidan

o‘rin olgan she’rlarda uning qalami jozibasini yaqqol his etish mumkin. Mazkur kitobdagi “Jannat azobi” nomli she’ri ana shunday badiiyat namunalari sirasiga kiradi: “Baribir,

Sen borsan yermi, samoda,
Taqdir qilichida ayirsa ham vaqt.
Bizlar uchrashamiz yorug‘ dunyoda,
Sevgilim, ko‘rishmoq o‘zi buyuk baxt”.

Yuqoridagi ijod namunasida shoira muhabbat kechmishini ta’riflar ekan, chin oshiq uchun diydor emas, balki o‘z yorining qayerdadir mavjud ekanligini his qilib yashamoq unga cheksiz saodat bag‘ishlashini bayon qiladi. Banddagi oshiqlar orasini taqdir qilichi bilan kesyotgan vaqt tasviri o‘ta ta’sirchan ifodalangan. Poetik fikrlarni yangicha talqin qilish va she’riyatga o‘zgacha obrazlar hamda badiiy tasvir vositalarini kiritish Zebo Mirzo ijodida teran ko‘rinadi.

Xulosa qilib atadigan bo‘lsak ,inson har bir narsaga mehr – muhabbat ko‘zi bilan boqishi kerak, zero insonning o‘zi bu dunyodan bir kun o‘tib ketar, ammo mehr va muhabbat tuyg‘usi hech qachon so‘nmaydi. Shoira ijodida muhabbat mavzusi juda teran va yuksak badiiyat bilan tasvirlanadi.

MAKTABGACHA TA’LIMDA AQLIY TARBIYANING VAZIFASI

Jamalova Nigarxan Kidirbaevna-
Qoraqalpog’iston Respublikasi Nukus tumani
13-sonli MTT direktori

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi va bolani bilimlarni egallab olishlari, ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko`nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvaffaqqiyatli o`qishlari uchun bo`lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manbalari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta’lim, tarbiya, aqliy rivojlanish, aqliy tarbiya, aqliy mehnat, kitob, bilim, malaka, ko`nikma

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo`lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o`quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida [rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o`zlashtirib olish, ularni jamg`arish, ijodiy tafakkurni rivojiantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo`lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko`rsatkichlari hisoblanadi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha ta’lim yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko`rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko`nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta’im yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to`g`risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo`lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo`lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba’zi bir sabab natijali bog`lanishlarni bilib oladigan bo`lib qoladilar. Ularda o`quv faoliyatining dastlabki ko`rsatkichlari shakllanadi. Shuning uchun bog`cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta’limi bo`ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun ko`rgazmali harakatli, ko`rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so`z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi.

Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo`lgan va muhim

bo`lmagan tomonlarini ajratishga o`rgatish lozim. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqea hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his qilib, diqqat bilan tomosha qilishni ktizatishda namoyon bo`ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo`lgan savollarga o`z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo`llab, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo`l qo`ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog`chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo`ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik - fahm-farosatlilik, tanqidiy ko`z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko`nikma va malakalarni rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo`lmagan belgilarni ajratib ko`rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko`nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo`lib, bolaning bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga mashg`ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o`simliklar yoki hayvonlar to`g`risida ma’lum bir tasavvurga ega bo`ladilar. Ilk va bog`cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo`lgan qiziqish juda tez o`sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir.

Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo`lgan har qanday xohishini sezishlari va rag`batlantirib borishlari kerak. Aqliy tarbiya vazifalari bolani maktab ta’limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko`nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvaffaqqiyatli o`qishlari uchun bo`lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo`lib xizmat qiladi. Odamning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko`pgina vazifalarni hal etishda qo`llaniladigan keng ko`lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta’minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo`shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko`ra bilishni shakllantirishga yordam beradi.

Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko`nikmalarini, kitob bilan ishlash ko`nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog`liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni

tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo`lgan bir qancha vazifalarni o`z ichiga oladi. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko`rsatkichining yuqoriligida ko`rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "ILK QADAM" - Maktabgacha tálim muassasasining davlat dasturi T.: 2018.
2. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. - T.: O`zbekiston, 2010.

MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNING IZCHILLIGI

Iqlasova Elmira
Qoraqalpog’iston Respublikasi Nukus tumani 2-sonli
MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o’stirishda izchil olib boriladigan vazifalar, talablar yoritilib, nazariy va amaliy ma’lumotlar ochib berilgan.

Kalit so’zlar: kommunikativ, bilish, tartibga solish, faol, passiv, nutq, til.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta'Iim va tarbiya berislida eng asosiy vazifalardan biri bolalarga ona tilini o'rgatish, nutqini rivojlantirish, nutqiy munosabatga, muomalaga o’rgatishdir. Tovush va so’zni tug’ri talaffuz etish bola shaxsining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshidagi bolaning nutqi tashqi olam bilan bog’langan holda uchta vazifani bajaradi:

1) kommunikativ;
2) bilish;
3) tartibga solish.

Nutqning kommunikativ vazifasi bolada juda erta paydo bo’ladi. Bolaning ilk bor aytgan birinchi so’zi kommunikativ vazifani bajaradi. Keyinchalik esa bu so’z bolaning atrofdagi kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji o’sib borgani sari nutq sifatida takomillashib boradi. Ikki yoshdan boshlab bola o’z istak xohishini atrofdagi kishilarga tushunarli tarzda ifodalay oladi, o’ziga qarata aytilgan nutqni, so’zlar ma’nosini tushuna boshlaydi. Uch yoshdan keyin bola ichki nutqni egallaydi. Bu vaqtda nutq uning uchun muomala vositasi bo’libgina qolmay, balki boshqa vazifani - bilish vazifasini bajara boshlaydi; yangi so’zlar va so’z shakllarini o’zlashtira borib, tevarak - atrof haqidagi, predmet va hodisalar, ular o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Shuni ta’kidlab o’tish lozimki, bolaga qaratilgan nutq uning xulq - atvorini tartibga solib turuvchi, qilinadigan ishlarni rejalashtirishga undovchi vositadir.

Maktab yoshiga yetgan bolalarning nutq va tafakkurining rivojlanganlik darajasiga qo’yiladigan talablar:

- Nutqining rivojlanganligi va so’z boyligiga oid:
- Tovush, so’zlarni aniq va to’g’ri talaffuz etish;
- 3000 dan ortiq so’zni tushunish va bilish;
- Rasmga qarab gap tuzish;
- Ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;

- Eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so’zlab berish;
- Ifodali nutqqa ega bo’lish;
- Tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so’zlab berish;
- Turli mavzudagi, kichik hajmdagi 6 ta she’rni yoddan aytish;
- Ota-ona, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular bo’yicha qisqacha hikoya tuzish;
- Kattalar va o’rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etish; Kattalar va o’rtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega bo’lish.

Kelajagimiz ertasi, bo’lgan bolalarni juda kichkinaligidaan boshlab go’zal ona tilimizning ifoda imkoniyatlaridan bahramand qilib borish, ularni to’g’ri talalffuz me’yorlari bilan tanishtirish, so’zlarni tanlab, maqsadga muvofiq ishlata olish, o’z fikrini sodda, ixcham, aniq qilib tasvirlashga o’rgatish, tilning tozaligiga e’tibor berishni o’rgatib borish zarur. Nutq o’stirish mashg’ulotlari bolalar nutqini o’stirishda katta imkoniyatlarga ega bo’lib, bu faoliyat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tavsiya qilingan ta’lim markazlarida dastur asosida olib boriladi.

YUQORI SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULARDAN FOYDALANISH VA “OLTIN NISBAT” QOIDASI

Abduqayumova Nilufar Jaloldinovna
Andijon viloyti Buloqboshi tuman 1-son kasb-hunar maktabi
Matematika fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik dasturiy vositalar tasvirlangan: o'quv dasturlari, trenajyorlar dasturlari, dasturlarni nazorat qilish, test dasturlari, axborotma'lumot dasturlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va matematikani onlayn maktablarda o'qitishning turli bosqichlarida foydalanishning maqsadga muvofiqligi, oltin nisbat qoidasi haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: oltin nisbat, dasturiy vositalar, testlar, nazorat qilish, onlayn va a’nanaviy o'qitish.

Bugungi kunda axborot faoliyatining roli sezilarli darajada oshib bormoqda va uning ichida inson tomonidan axborotni faol, mustaqil ravishda qayta ishlash, texnologik vositalardan foydalangan holda turli vaziyatlarda ijodiy va yangi qarorlar qabul qilish. Bu holat umumta'lim maktablarini o'qitish tizimiga sezilarli o'zgarishlar kiritadi. O'zgarishlardan biri maktab o'quvchilarida axborot-kommunikatsiya bilimlarini shakllantirish zarurati bilan bog'liq. Ushbu turdagi malakani shakllantirishning samarali vositasi pedagogik dasturiy vositalarni o'qitish jarayonida o'qituvchidan foydalanishdir.

Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) - bu o'quv dasturlari, namoyish dasturlari, o'yinlar, har xil testlar, matn fayllari shaklida murakkablik darajasida vazifalar to'plami va boshqalar.

Matematika darslarida o'quv dasturi o'quvchilar tomonidan yangi materiallarni o'rganishda, dastlabki aniqlash va takroriy o'qitish bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yuqori sinflar uchun repetitorlik bosqichida o'qituvchi odatda muvaffaqiyatsiz o'quvchilar bilan yoki biron bir sababga ko'ra ko'rib chiqilayotgan materialdagi bo'shliqlarga ega bo'lganlar bilan ishlashda o'quv dasturlarini qo'llaydi. Keyingi o’n yillikda matematika fanini o’qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo’nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o’rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o’yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. .

Ko’p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o’z kasbi bilan bir vaqtda


ma`lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90- yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo’lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

Mulohazalar algebrasi asosiy tengkuchliliklari mavzusini o‘qitishda «Aqliy xujum», «Klaster» texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilar fikrini bilish, yo‘naltirish jarayoni yakunida elektron matndagi tayyor klasterni ko‘rsatish mumkin. Turli ranglardan foydalanilganiga o‘quvchilar e’tiborini qaratib, uning sababini so‘rash o‘quvchilar mustaqil fikrini shakllantiradi, kiritilayotgan tushunchalarning mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Asosiy tushunchalarni kiritish va kiritilgan tushunchalarga doir misollarni, har bir o‘quvchi yakka yoki juftlikda mustaqil ishlashi uchun topshiriqlarni keltirishda gipermatnga yashiringan multimediya imkoniyatlaridan foydalanilgan slaydlarni o‘qituvchi nutqi davomida namoyish etish bilan bu tushunchalarning o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga erishiladi. Yangi mavzuni tushuntirish davomida mulohazalar ustida bajariladigan amallar, mulohazalar algebrasi asosiy tengkuchli formulalari keltirilib, ulardan birining isboti tushuntiriladi. Shu o‘rinda barcha tasdiqlarning isbotlari gipermatnga kiritilgan bo‘lsa, o‘qituvchi o‘quvchilardan qaysi bir xossani isbotlash qiyinroq tuyulishini so‘rab, ular tanlagan tasdiq isbotini namoyish etadi.

Masalan slaydda chinlik jadvallarining xarakat o‘rnatilgan: Gipermatnga joylashtirilgan matn, chizmalar tayyor holda namoyon bo‘lmasdan, o‘qituvchi doskaga chinlik jadvalini tuzishda yoki isbotni yozishidagi tezlikni saqlab qolganholda chizma yoki isbot matnining ketma-ket hosil bo‘lishi maqsadga muvofiq. O‘qituvchi isbotni yozish, chizma chizishga ketadigan vaqti va e’tiborini o‘quvchilarga qaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi va har bir o‘quvchining yangi tushunchalarni o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quv faoliyatini nazorat qila oladi.

Eni “Oltin nisbat” qoidasi bilan tanishsak.

Oltin nisbat



Leonardo da Vinchining yaqin do‘sti bo‘lgan italyan matematigi Luka Pacholi (1445-1517) o‘zining *Divina Proportione* deb nomlangan risolasini chop etgan edi. Bu risola nomini «Ilohiy proporsiya» deb tarjima qilish mumkin. Unda hozirda oltin kesma deb nomlanadigan va ko‘pchilikka yaxshi tanish bo‘lgan nisbat haqida so‘z boradi. Yunon alifbosidagi φ harfi bilan belgilanadigan mazkur oltin nisbat matematikada va tabiatda ham juda hayratlanarli darajada ko‘p uchraydi. Oltin nisbatni tasavvur qilishning eng oson usuli bu – shunday kesmani ko‘z oldiga keltirish kerakki, uni ikki qismga shunday tarzda

bo‘linadiki, bunda, kesmaning to‘liq uzunligining uning katta bo‘lagiga nisbati, ushbu katta bo‘lakning kichik bo‘lakka nisbatiga teng bo‘ladi. Ya'ni, buni $(a+b)/b=b/a$ ifoda orqali bayon qilish mumkin. Va bu nisbat doim 1,61803... qiymatga teng chiqadi.

Agar to‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari nisbati oltin nisbat qiymatiga teng bo‘lsa, unda, bunday to‘g‘ri to‘rtburchakni ham oltin to‘rtburchak deyiladi. Bunday oltin to‘rtburchakdan kvadrat qirqib olinsa, unda yana bir oltin to‘rtburchak hosil bo‘ladi. O‘sha kichik oltin to‘rtburchakdan ham yana bir kvadrat qirqib olinsa, unda yanada kichikroq boshqa bir oltin to‘rtburchak hosil bo‘ladi va bu jarayonni cheksiz davom ettirish mumkin.

Agar boshlang‘ich oltin to‘rtburchakdan yuqori o‘ng burchakdan quyi chap burchakka diagonal tortilsa, keyin esa, kichik oltin to‘rtburchakdagi quyi chap burchakdan yuqori o‘ng burchakka diagonal tortilsa, unda, ushbu ikki diagonallarning kesishuv nuqtasi, o‘sha dastlabki eng katta oltin to‘rtburchakdan hosil bo‘ladigan barcha kichik oltin to‘rtburchaklarning tutashadigan joyi bo‘ladi. Boz ustiga, ushbu ikki diagonalning o‘zaro nisbati ham oltin nisbatga teng bo‘ladi! O‘sha kichik oltin to‘rtburchaklarning tutashish joyini esa ba’zan shoirona qilib «Ilohiy ko‘z» ham deyishadi.

Oltin to‘rtburchak – undan kvadrat qirqib olinganda ham o‘ziga o‘xshash oltin to‘rtburchak hosil bo‘ladigan yagona to‘g‘ri to‘rtburchakdir. Agar hosil bo‘lgan shakllarning qirralarini birlashtirilsa, bunday chiziq logarifmik spiralning approksimatsiyasini hosil qiladi va ushbu spiral o‘sha «ilohiy ko‘z» atrofida aylanadi. Logarifmik spirallarni esa tabiatda har joyda uchratishdi mumkin: chig‘anoqlar ham, hayvonlarning shoxi ham, hatto quloq burmalari ham shunday spiral shaklida bo‘ladi. Bu berilgan fazoni eng ravon va qulay shaklda to‘ldirish usulidir. Shuningdek, bunday spiral qurilishi uchun minimal materiallar talab qilinadigan va shu bilan birga, shakl jihatdan juda mustahkam bo‘lgan strukturadir. Kengaygan sayin u o‘lchamlarini kattalashtirib boradi, lekin, shaklan esa doim o‘sha ko‘rinishda qoladi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умарова У.У. “Муносабатлар. Бинар муносабатлар” мавзуси бўйича маъруза ва амалий машғулотлари учун “Ажурли арра” ва “Домино” методлар // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 982-988.

2. Умарова У.У. Мулоҳазалар устида мантиқий амаллар мавзусини ўқитишда «Кичик гуруҳларда ишлаш» методи // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 803-809.

3. Умарова У.У. “Формулалар ва уларнинг нормал шакллари” мавзусини ўқитишда ўйинли методлар (pp. 810-817).

NEFT YO‘LDOSH GAZLARINI KATALITIK PIROLIZLAB NANOUGLEROD OLISH REAKSIYASI TEZLIGIGA TURLI OMILLARNING TA’SIRI

Tavbayeva Zarina Rustam qizi
Andijon viloyati Buloqboshi tumani 1-son kasb-hunar maktabi
kimyo fani o‘qituvchisi
tavbayevaz@gmail.com
Shukurov Jasur Xoshimovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
tayanch doktorant
shukjasni@gmail.com

Annotatsiya: Neft yo‘ldosh gazlarini katalitik pirolizlab nanouglerod olish reaksiyasida 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS va 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu ·2%Mo/YUKS tarkibli katalizatorlar ishtirokida nanouglerodli qatlamlar hosil bo‘lish tezligiga metanni katalitik pirolizlash jarayonining turli parametrlarining ta’siri o‘rganilgan. Katalizatorlar ishtirokida nanouglerod hosil bo‘lishiga harorat ta’siri bo‘yicha tajribalar natijalariga ko‘ra, katalizator 1 soat ishlashi davomida 500, 550 va 650℃ haroratlarda mos ravishda 7,2; 17,5; 22.2 g/g_{kat} ni tashkil etgan. 2,5 soat davomida 9 g massali katalizatorlar ishtirokida, qatlamining 0,8 sm atrofida qalinlikdagi miqdorlarida, metanning chiziqli tezligi 250 sm/daq bo‘lganda turli haroratda nanouglerodning hosil bo‘lishi o‘rganilganda 650℃ da 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS da 598 g/soat nanouglerod hosil bo‘lishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Neft yo‘ldosh gazlari, katalizator, jarayonni o‘tkazish haroratlari, nanouglerod, chiziqli tezlik, tekstur xarakteristika, mahsulot unumi.

EFFECT OF DIFFERENT FACTORS ON THE SPEED OF NANOUGLEROD REACTION OF CATALYTIC PYROLYZING OF METHANE IN OIL SATELLITE GASES

Annotation: 14% Ni·4% Co·7% Fe·6% Cu / YUKS and 14% Ni·4% Co·6% Fe·4% Cu·2% Mo / YUKS in the reaction of petroleum gases by catalytic pyrolysis the effect of various parameters of the process of catalytic pyrolysis of methane on the rate of formation of nanocarbon layers in the presence of catalysts was studied. According to the results of experiments on the effect of temperature on the formation of nanocarbon in the presence of catalysts, the catalyst was operated for 1 hour at

temperatures of 500, 550 and 650 ℃, respectively, 7.2; 17.5; 22.2 g / gkat. 14% Ni ·4% Co·6% Fe·4% Cu ·2% Mo / YUKS 598 g / h nanoglerode formation was found.

Keywords: Petroleum gases, catalyst, process temperatures, nanocarbon, linear velocity, texture characteristics, product yield.


KIRISH

Hozirgi kunda yangi uglerodli materiallar-uglerod nanotrubkalari va fullerenlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumki neft yo‘ldosh gazlari (NYG) quyi molekulyar uglevodorodlardan iborat bo‘lib, butun dunyoda metanning parchalanishidan nanouglerod olishda samarali katalizatorlar ishlab chiqarishga katta miqdorda mablag‘ sarflanadi [1,2,3]. Bu yondashuvning keng tarqalishi uglevodorod manbasining nisbatan arzonligi bilan bog‘liq. Fullerenlarning elektronikada qo‘llanilishi ularning yarimo‘tkazgich xususiyatlari bilan bog‘liq. Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki, bunday kompozit materiallarning optik xususiyatlari ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi. Shu sababli, bugungi kunda yangi uglerodli materiallar-fullerenlar [4], uglerod nanotrubkalari [5] va gibrid grafen/uglerodli nanotrubkalar [6] kabi uglerodli nano tuzilmalar ko‘plab ajoyib mexanik, optik, elektr va issiqlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ularni ko‘plab sanoat dasturlarida, bunday kompozit materiallar etarlicha katta mustahkamlikka va tribologik xusiyatlarga ega bo‘lib, ulardan nanotranzistorlar deb ataluvchi va boshqazamonaviy va kelajak nanoelektronika elementlarini olishda foydalanish mumkin ayniqsa nanotexnologiya sohasida foydalanish uchun istiqbolli materialga aylantiradi. Mutaxassislar birinchi navbatda uglerodli nanotrubkalar, hamda tarkibida uglerod bo‘lgan kompozitlarning mexanik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratishadi. Ko‘pgina tadqiqotlar uglerod nanotrubkalarining fizik shaklini aniq nazorat qilishga muvaffaqiyatli urinishdi [7]. Uglerodli nanotrubkalar asosidagi kompozit materiallarning yorug‘likni yutish koeffitsienti birga teng ekanligi yoki ma’lum geometriyali uglerod nanotrubkalri to‘g‘ri zonali yarim o‘tkazgichlar bo‘lib, ulardan optoelektronikada keng foydalanish mumkin. Xususan, diametri, grafen qatlamlari soni, nuqsonlar zichligi, uzunligi va boshqalar kabi turli xil o‘sish parametrlarining hosil bo‘lgan nanotrubkalarning xususiyatlariga ta’siri o‘rganildi [8]. Bundan tashqari, nanouglerod trubkalarining o‘z-o‘zidan yig‘iladigan grafen parchalari [9], nanouglerod trubkalarida grafen qatlamlarining kimyoviy bug‘lanishi [10] va oddiy mexanik aralashtirishga, gibrid (grafen/uglerodli nanotrubkalar) tuzilmalarni tayyorlashga ko‘plab yondashuvlar taklif qilingan. Fullerenlar-uglerodning shakllaridan biri bo‘lgan monomolekulyar birikma bo‘lib, uglerod atomlaridan tashkil topgan qavariq berk ko‘pyoqlardir. Mutaxassislar fullerenlardan mikro, nanoelektronika (uglerod trubkalari bilan bir qatorda) va meditsina sohalarida keng foydalanishga umid qilishmoqda. Uglerod manbai sifatida etilen, atsetilen va metan

hozirgi vaqtda eng ko‘p ishlatiladi. Nano o‘lchovli o‘tuvchi metall zarrachalari, oksidi yoki metall shakli yoki aralashmasi katalizator sifatida muvaffaqiyatli ishlatilgan [11]. Ular orasida Fe, Ni va Co tez eriydiganligi va yuqori haroratda uglerod atomlari uchun yuqori tarqalish tezligi tufayli eng ko‘p ishlatiladigan katalizatorlardir [12]. Ma’lum qilinishicha, temir katalizatori uglevodorodlarning parchalanish jarayonida yuqori katalitik faollikka ega, bu uglerodning yuqori samaradorligiga olib keladi [13]. Bundan tashqari, kobalt katalizatoridan foydalanish nanouglerod trubkalarining grafitlangan bo‘lishiga olib keladi, lekin ularning o‘tkazuvchanligi juda past [14]. Temir yoki kobalt asosidagi katalizatorlarga molibden qo‘shilishi ularning katalitik xususiyatini oshiradi va ingichka nanouglerod trubkasining sintezini rag‘batlantiradi. Nanotrubkalar va fullerenlar [15] ning olinish tarixi bir necha o‘n yilliklarni o‘z ichiga oladi; ularning tabiati va xususiyatlarini tushunishning eng muhim bosqichlari so‘nggi sharhlar va kitoblarda yaxshi ifodalangan [16]. Ishda 2 xil katalizatorda $CH_4 \xrightarrow{500-650℃ \text{ va kat}} C_{nanouglerod} + 2H_2$ reaksiyasi bo‘yicha metanning katalitik pirolizlab vodoroddan tashqari, reaksiya paytida qimmatbaho mahsulot - nanotolali uglerod hosil bo‘ladi, uni kompozit materiallarga to‘ldiruvchi sifatida, o‘tga chidamli materiallar sintezi uchun reaktiv sifatida ishlatish mumkin. So‘nggi yillarda bu sohada salmoqli rivojlanish kuzatilmoqda.


TAJRIBA QISMI

Ishda O‘zbekiston Respublikasi, Navoiy viloyati, Navbahor tumanidan keltirilgan bentonitdan olingan yuqori kremniyli seolit (YUKS) va organik modda masalan, glitsin va limon kislotasi aralashmasining havoda ≥500℃ haroratlarda o‘zaro ta’sirlashishidan hosil bo‘lgan kompozit ishlatildi. NYGlari tarkibidagi metanni katalitik pirolizlab nanouglerod olish reaksiyasi uchun laboratoriya sxemasi tuzildi (1-rasm).



1-rasm. Neft yo‘ldosh gazlaridan nanouglerod olish sxemasi: 1-magnetron; 2-reaktor; 3-katalizator 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS; 4-metan gazini kirish joyi; 5-reaksiya mahsulotlari tushadigan kamera; 6-uglerod nanozarrachalari tutqichi; 7-vodorod va qoldiq gazlarni chiqish joyi.

Nanouglerod olish kinetikasini o‘rganish uchun ichki diametri 60 mm va uzunligi 400 mm bo‘lgan, yuboriladigan gaz aralashmasini bir maromda qizdirish uchun 100 mm ga nasadka bilan to‘ldirilgan va pastki yon tomonidan gaz kiritish uchun shtutser bilan jihozlangan oqimli reaktor yig‘ildi. Reaktorni qizitish elektropech bilan amalga oshirildi, uning harorati laboratoriya avtotransforatori yordamida boshqarildi. Reaktorning sxemasi quyidagi 2–rasmda keltirilgan.



2-rasm. Nanouglerod hosil bo‘lishi kinetikasini o‘rganish uchun eksperimental qurilma sxemasi

1 – reaktor; 2 – torsion tarozi VT-500; 3 – katalizatorli qayiqcha; 4 – gaz fazani kiritish uchun shtutser; 5, 6 – difmanometr; 7 – laborator avtotransformator; 8 – xromel-alyumelli termopara; 9 millivoltmetr; 10, 11 – bir yo‘lakli kran; 12, 13 – rotametr RM-0,25G; 14, 15 – manometrli reduktolar; 16, 17 – gaz manbai.

Nanouglerodning o‘ziga xos sirt yuzasi (S_{sol}) va g‘ovakliligi (G‘) Brunauer-Emmett-Teller (BET) usuli yordamida Micromeritics (AQSH) kompaniyasining ASAP 2020 asbobida azotning past haroratli adsorbsiyasi bo‘yicha aniqlandi. Azotning adsorbsiyasi - desorbsiya izotermlari 77 K haroratda P/P_s = 0,0–1,0 nisbiy bosim oralig‘ida qayd etildi. S_{sol} qiymati P/P_s = 0,05-0,30 da adsorbsion izotermaga asoslangan BET usuli bilan baholandi. Mezog‘ovaklar hajmi va ularning o‘lchamlari bo‘yicha taqsimoti Barrett, Joyner va Xalenda (BJH) usuli yordamida P/P_s = 0.35-0.95 da, mikroporalar uchun bu parametrlar P/P_s = 0,00 ÷ 0,01 diapazonida azot adsorbsiyasi-desorbsiya izotermasi orqali topilgan.

Rentgen fazaviy tahlil DRON-5M markali difraktometrda, nikel filtr bilan filtrlangan misning xarakterli nurlanishi (K_α chiziq) foydalanildi, 20 kV tasvirga olish rejimida o‘tkazildi. Uglerodning strukturaviy va morfologik xususiyatlari skanirlovchi va yorituvchi elektron mikroskoplari yordamida o‘rganildi. Skanirlovchi elektron mikroskopiyada JSM-6460 mikroskopi ishlatildi. YOrituvchi elektron mikroskopik (YoEM) tasvirlar JEOL JEM-2010 elektron mikroskopi yordamida olindi. Yorituvchi elektron mikroskop 200 kV tezlashtiruvchi kuchlanishda ishlaydi va 0,14 nm o‘lchamdagi panjaraga ega. Derivatografik tahlil havo muhitida F. Pulik,

Y. Paulik va L. Erdey sistemasi derivatografida haroratni 1 dan 10℃/daq gacha ko‘tarish haroratida amalga oshirildi.

Gaz aralashmalarini qo‘shimchalardan tozalash va namdan quritish uchun seolit asosidagi filtrdan foydalanildi. Reaksiyaning gaz moddalarining sifatiy va miqdoriy tarkibi gazoxromatografik usulda "Xromatek-Kristall 7000" xromatografida tahlil qilindi.

TAJRIBA NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI


650℃ haroratda va 9 g massali katalizatorda metanning 170 sm/daq chiziqli tezligida jarayon davomiyligining ortishi bilan nanouglerodning unumi ortib boradi va 200-240 daqiqadan so‘ng doimiy qiymatga erishiladi (1-jadval).

1-jadval

Nanouglerodning unumiga jarayon davomiyligining ta’siri (650℃ harorat, 9 g massali 14%Ni*4%Co*7%Fe*6%Cu/YUKStarkibli katalizator, gaz oqimining tezligi 170 sm/daq)

Jarayon davomiyligi, daq	Mahsulotning nanouglerod unumii, g/g
10	0,2
50	0,8
90	3,8
130	6,7
150	8,9
200	12,5
240	17,6

Olingan mahsulotning o‘lchami 15-60 nm va tozalik darajasi 96% ni tashkil etadi. Sintez qilingan nanouglerodning JSM-6460 elektron mikroskopi yordamida olingan mikrotasviri 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKSkatalizatorda metan pirolizi mahsuloti mikrotasviri (harorat 650℃, metanning chiziqli tezligi 170 sm/daq, katalizator massasi 9 g)

Katalizator qavati qalinligining nanouglerod unumiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tajriba natijalari 2-jadvalda keltirilgan. Ularni olish uchun katalizatorning turli miqdorlari bir xil yuzada bir tekis qatlam bilan taqsimlandi va reaktorda gaz yo‘nalishi bo‘yicha ularning massasi ortishi yoki kamayishi bilan reaktorga joylashtirildi. Tajribalar 650℃ haroratda va gazning 170 sm/daq chiziqli tezligida 240 daq davomida o‘tkazildi. Gaz oqimi bo‘yicha katalizator qanday tartibda joylashganiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki qatlam qalinligining qiymatiga bog‘liq bo‘lib, nanouglerod unumi qiymatiga ta’sir qilmaydigan qalinlik 1,4 sm dir. Keyingi tadqiqotlarda ichkidiffuzion sohaga to‘g‘ri kelmasligi uchun tajribalar 1 sm ga teng qalinlikda o‘tkazildi.

2-jadval

Katalizator qavati qalinligining nanouglerod unumiga ta’siri (harorat 650℃, gazning 170 sm/daq chiziqli tezligi, tajriba davomiyligi 150 daq, katalizator - 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS)

№ konteynerlar	Katalizator massasi, g	Katalizator qavati qalinligi, sm	Mahsulot unumi, g/g
Reaktorda metan oqimi harakatlanishi yo‘nalishi bo‘yicha massa ortishi tartibida katalizatorning joylashishi			
1	20,1	0,5	58
2	29,7	0,7	72
3	40,1	0,9	95
4	60,2	1,4	123
5	80,7	1,8	143
Reaktorda metan oqimi harakatlanishi yo‘nalishi bo‘yicha massa kamayishi tartibida katalizatorning joylashishi			
1	19,6	0,5	53
2	29,7	0,7	74
3	41,1	0,9	93
4	59,2	1,4	112
5	79,7	1,8	135

Nanouglerod hosil bo‘lish tezligiga gazning (metan) chiziqli tezligining ta’siri katalizator qavatining 1 sm qalinligida, jarayonni o‘tkazishning 550 va 650℃ haroratlarida 10-40 sm/daq oraliqda o‘rganildi. O‘tkazilgan tajriba natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKSkatalizatorda metanning turli chiziqli tezliklarida 150 g/g nanouglerod unumiga erishish vaqti

Tajriba №	550°C		Tajriba №	650°C	
	metanning chiziqli tezligi, sm/daq	vaqt, sekund		metanning chiziqli tezligi, sm/daq	vaqt, sekund
1	59,0	1835	1	82,6	780
2	88,5	1255	2	176,9	550
3	118,0	1290	3	206,4	280
4	206,4	1200	4	235,9	330
5	235,9	2390	5	294,9	1715

Gazning chiziqli tezligi oshirilganida 150 g/g nanouglerod unumiga erishish jarayoni tezligi ortadi, so‘ngra gaz tezliklarining qandaydir oralig‘ida vaqt doimiy qoladi, ma’lum vaqtdan keyin yana o‘sishda davom etadi. Harorat ortishi bilan jarayonning tezligi gazning chiziqli tezligiga bog‘liq bo‘lmasdan gazning kichik tezliklarida, nanouglerod hosil bo‘lish jarayoni tezligi reaktor orqali o‘tadigan metanning kam miqdori bilan ushlab turiladi.

Chiziqli tezlikning bu qiymatlarida jarayonning eng katta tezligi ta’minlanadi va metan tezligining eng katta chetlanishlari nanouglerod hosil bo‘lish tezligiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Shuning uchun keyingi tadqiqotlar metanning 250 sm/daq chiziqli tezligida o‘tkazildi.

14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKSkatalizatorda nanouglerod hosil bo‘lishiga harorat ta’siri bo‘yicha tajribalar gaz harakatining 250 sm/daq chiziqli tezligida, katalizatorning 9 g massali va qatlamining 0,8 sm atrofida qalinlikdagi miqdorlarida 500, 550 va 650°C haroratlarda amalga oshirildi. Bu tajribalar natijalari 4-jadvalda berilgan. Haroratning ko‘tarilishi bilan nanouglerod hosil bo‘lish tezligining ortishi sodir bo‘ladi.

4-jadval

14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKSkatalizatorda turli haroratda nanouglerodning hosil bo‘lishi (katalizator massasi 9 g, metanning chiziqli tezligi 250 sm/daq)

vaqt, daq	Nanouglerodning massasi, g/g_{kat}		
	500°C	550°C	650°C
5	0	0	0
10	0,02	0,25	0,62
15	0,1	1	2,12

20	0,25	1,75	3,9
25	0,67	2,44	4,86
30	1,07	3,32	5,21
35	1,49	4,14	6,41
40	1,98	4,76	·7,48
45	2,23	5,2	8,55
50	2,73	5,77	9,63
55	3,22	6,14	10.96
60	3,72	6,45	11,75
65	4,21	6,52	12.87
70	4,71	7.56	14.02
75	5,04	8.49	15.68
80	5,45	10.42	17.16
85	5,87	11.36	19.2
90	6,2	13.54	22.8
95	6,9	15.21	21.3
100	7,19	17.34	21.2

Shu bilan birga ushbu ishda 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS tarkibli katalizatorning katalitik faolligi ham sinab ko‘rildi. Bu katalizator oldingi bilan solishtirilganda 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS tarkibli katalizatorga nisbatan faolroq bo‘lib chiqdi va u ishtirokidagi tajribalar ancha past haroratlar oralig‘ida o‘tkazildi.

Gaz oqimi chiziqli tezligining jarayon tezligiga ta’sirini 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS katalizatorda jarayonning o‘rtacha tezligini tajriba boshlanishidan so‘ng 20 daq o‘tib hisobladik. Oldingi katalizatordan farqli ravishda, gaz oqimi chiziqli tezliklarining tadqiq qilinadigan oralig‘ida jarayon tezligining gaz tezligiga bog‘liqligi faqat ikki sohaga ega: birinchi sohada ya’ni gaz oqimining kichik chiziqli tezliklarida metanning chiziqli tezligi oshirilganida nanouglerod hosil bo‘lish tezligi oshishi kuzatildi, ikkinchi sohada esa ya’ni gazning 20 sm/daq dan yuqori tezliklarida jarayonning tezligi reaktorda metanning chiziqli tezligiga bog‘liq emas. Jarayonni gaz oqimining 250 sm/daq kam bo‘lmagan chiziqli tezliklarida o‘tkazish talab etiladi. Keyingi tadqiqotlar metanning 250 sm/daq chiziqli tezligida o‘tkazildi. Haroratning nanouglerod hosil bo‘lish tezligiga ta’siri tadqiqotlari 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS katalizatori 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKSdan farqli ekanligini ko‘rsatdi. Pastroq haroratlarda u yuqori unum bilan nanouglerod olishga imkon beradi. Eksperimental tadqiqot natijalari 5-jadvalda keltirilgan.


5-jadval

2,5 soat davomida 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS va 14%Ni·4%Co·6%Fe·4% Cu·2%Mo/YUKS katalizatorida turli haroratda nanouglerodning hosil bo‘lishi (katalizator massasi 9 g, metanning chiziqli tezligi 250sm/daq)

№	Katalizator tarkibi % massa ulushda	Gaz	Reaksiya harorati	C ning unumi g/soat
1	**14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS**	CH_4	500±10^{0}C	234
2	**14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS**	CH_4	550±10^{0}C	492
3	**14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS**	CH_4	650±10^{0}C	560
4	14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS	CH_4	500±10^{0}C	382
5	14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS	CH_4	550±10^{0}C	554
6	14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS	CH_4	650±10^{0}C	598

Olingan nanouglerodning tekstur xarakteristikalari


14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS katalizatorning 9 g miqdorida 560℃ haroratda, tajriba boshlanishidan keyin 2 soat o‘tib metanning 250 sm/daq chiziqli tezligida olingan mahsulotning mikrotasvirlari 3-rasmda keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, mahsulot asosan 10 dan 90 nm gacha diametrli va qariyb 97% tozalikdagi nanougleroddan iborat. Mikrotasvir elektron mikroskopi yordamida olingan.



4-rasm. 14%Ni*4%Co*6%Fe*4%Cu*2%Mo/YUKS tarkibli katalizatorning skanirlovchi elektron mikroskopda olingan mikrofotosurati


4-rasmda (a, b) sintez qilingan katalizatorlarning adsorbsiya-desorbsiya azot past haroratli izotermasi ko‘rsatilgan. Adsorbsiya izotermalari de Bur klassifikatsiyasi bo‘yicha IV turga xos bo‘lib, mezog‘ovaklarda kapillyar kondensatlanish jarayoni boshlanganligidan darak beradi va kapillyar-kondensatsion gisterezis xalqasi

boshlanishiga mos keladi. Gisterezis xalqasi shakli nazariy va amaliy kimyo xalqaro ittifoqining klassifikatsiya bo‘yicha N^3 tipga mos keladi, bu material strukturaviy qatlamida tirqish va yassi parallel izlar borligini bildiradi. Izotermada P/P_0 = 0-0,05 oraliqda mezog‘ovaklarda monomolekulyar adsorbsiya va mikrog‘ovaklarda adsorbsiya –mikrog‘ovaklarning hajmiy to‘lishi kuzatiladi. P/P_0 = 0,05 da mezog‘ovaklarda mono- va polimolekulyar adsorbsiya kuzatiladi. P/P_0 = 0,05-0,4 soha polimolekulyar adsorbsiyani ifodalaydi, bu BET tenglamasida solishtirma sirt-yuzasi (S_{sol}) ni aniqlashda ishlatiladi. Adsorbsiya izotermasida P/P_0 = 0,4-1,0 oraliq mezog‘ovaklarda kapillyar kondensatsiya sodir bo‘lishini xarakterlaydi. R/R ≈1 bo‘lganda izotermada sorbsion egrilik keskin ortadi, bu katalizator tarkibida katta zarralar borligi, (6-rasm, a, b) egrilik zarralar o‘lchami kattalashganini ko‘rsatadi. Katalizator sirtining solishtirma yuzasi 95m^2/g va 50-120m^2/g o‘zgarish diapazoniga ega. Zarraning yig‘indi hajmi 0,22sm^3/g, zarra diametri 8,6nm.



a-dastlabki katalizator; b-ishlov berilgan katalizator

5-rasm. 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS tarkibli katalizatorning adsorbsiya-desorbsiya izotermalari



a-dastlabki katalizator; b-ishlov berilgan katalizator

6-rasm. 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS tarkibli katalizatorda o‘lchami bo‘yicha g‘ovaklarning taqsimlanishi

Xulosalar: Shunday qilib 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS va 14%Ni·4%Co·6%Fe·4% Cu·2%Mo/YUKS tarkibli katalizator joylashgan reaktorda nanouglerodli qatlamlar hosil bo‘lish tezligiga metanni katalitik pirolizlash jarayonining turli parametrlari: katalizator qavati qalinligi, gaz faza harakatlanish tezligi, jarayonni o‘tkazish haroratlarining ta’siri bo‘yicha eksperimental ma’lumotlar olingan. 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKS katalizatorda nanouglerod hosil bo‘lishiga harorat ta’siri bo‘yicha tajribalar gaz harakatining 250 sm/daq chiziqli tezligida, katalizatorning 9 g massali va qatlamining 0,8 sm atrofida qalinlikdagi miqdorlarida 500, 550 va 650℃ haroratlarda amalga oshirildi. Tajribalar natijalariga ko‘ra, katalizator 1 soat ishlashi davomida 500, 550 va 650℃ haroratlarda mos ravishda 7,2; 17.5; 22.2 g/gkat ni tashkil etdi. 2,5 soat davomida 9 g massali katalizatorlar ishtirokida, metanning chiziqli tezligi 250 sm/daq bo‘lganda turli haroratda nanouglerodning hosil bo‘lishi o‘rganilganda 14%Ni·4%Co·7%Fe·6%Cu/YUKSda 650℃ da 560 g/soat nanouglerod 14%Ni·4%Co·6%Fe·4%Cu·2%Mo/YUKS da esa 598 g/soat nanouglerod hosil bo‘lishi aniqlandi.

Adabiyotlar:

[1] Kuvshinov G. G., Popov M. V., Solovev E. A. i dr. // Evropeyskiy issledovatel. 2012. Vыp. 36, No 12-1. S. 2102.

[2] Puchkov L. A., Vorobev B. M., Vasyuchkov YU. F. // Gornыy informatsionno-analitiche-skiy byulleten. 2006. No 1. S. 210.

[3] Kuvshinov G. G., Mogilnykh Yu. I., Kuvshinov D. G. et al. // Proceedings of the 11-th World Hydrogen Energy Conf., Stuttgart (Germany), 1996. P. 2.

[4] Bannov A. G., Kuvshinov G. G. // Materialovedenie. 2011. No 10. C. 47.

[5] Krutskiy YU. L., Bannov A. G., Sokolov V. V. i dr. // Ros. nanotexnologii. 2013. No 3-4. S. 22

[6] Reshetenko T. V., Avdeeva L. B., Ismagilov Z. R. et al. // Applied Catalysis A: General 2003. Vol. 247. P. 51.

[7] Kuvshinov G. G., CHukanov I. S., Krutsky Y. L. et al. // Carbon. 2009. Vol. 47. R. 215.

[8] Handbook of Nanophysics. Clusters and Fullerenes, edited by Klaus D. Sattler (CRC Press, Taylor and Francis Group, LLC, 2010).

[9] Graphene. Synthesis and Applications, edited by Wongbong Choi and Jo-won Lee (CRC Press, Taylor and Francis Group, LLC, 2012).

[10] B.S. Murty, P. Shankar, Badlev Raj, B.B. Rath, James Murday, Textbook of Nanoscience and Nanotechnology (Springer University Press, India, 2013).

[11] Springer Handbook of Nanomaterials, edited by Robert Vajtai (Springer-Verlag, Berlin,2013).

[12] Carbon Nanomaterials, Second Edition, edited by Yuri Gogotsi and Volker Presser (CRC Press, Taylor and Francis Group, LLC, 2014).

[13] Debaprasad Das, Hafizu Rahaman, Carbon Nanotubes and Graphene Nanoribbon Interconnects (CRC Press, Taylor and Francis Group, LLC, 2015).

[14] Carbon Nanomaterials Sourcebook, Vol. 1. Graphene, Fullerenes, Nanotubes, and Nanodiamonds, edited by Klaus D. Sattler (CRC Press, Taylor and Francis Group, LLC, 2016).

[15] Structure and Multiscale Mechanics of Carbon Nanomaterials, edited by Oscar Paris, CISM International Centre for Mechanical Sciences 563 (Springer, Wien, CISM, Udine, 2016).

[16] R. Sure, R. Tonner, P. Schwerdtfeger, A systematic study of rare gas atoms encapsulated in small fullerenes using dispersion corrected density functional theory // J. Comp. Chem. 36 (2015) 88.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISHDA TURLI XIL USULLARDAN FOYDALANISH

Malikova Muslima
Andijon viloyati Buloqboshi tuman 1-son kasb-hunar maktabi
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fani darslarida o`quvchilarning bilimini oshirish haqida, Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo’lishi uchun o’quvchilarda o’z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko’nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozimligi haqida so`z boardi.

**Kalit so`zlar:** ona tili, adabiyot, o`qitish, o`rgatish, o`quvchi, o`qituvchi, shakllantirish, ko`nikma, bilim berish.

Ma`lumki, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo‘llab, o‘quvchilarga chuqur bilim berish boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo‘llashga o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi esa, o‘quvchilarga aniq yo‘nalish berish, to‘g‘ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o‘qituvchi o‘quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to‘g‘ri xulosani aytadi, natijada o‘quvchi o‘z xatosini tushunib, fikrlashdan to‘xtamaydi va ular o‘rtasidagi doimiy faollik ta’minlanadi. Ma’lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo‘lib, 1-sinf o‘quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o‘quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O‘quvchilarga rasmli topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og‘zaki nutqini o‘stirib, lug‘at boyligini oshiradi.

Maktablarda ona tili o’rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo’ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko’p qirrali bo’Iib, ularni bajarish o’quvchilar ongini o’stirishga, ularga g’oyaviysiyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo’naltirilgan. Ona tilini o’rgatish natijasida o’quvchilarda o’z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq,

mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to’g’ri yoza olish ko’nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o’quv predmeti sifatida o’zbek tilining o’ziga xos xususiyati bo’lib, o’quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo’naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog’liq holda amalga oshiriladi.Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o’zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so’zlarning o’zgarishi va gapda so’zlarning bog’lanishi haqidagi (grammatik, ya’ni morfologik va sintaktik); so’zning morfemik tarkibi va so’z yasalish usuliari haqidagi (so’z yasalishiga doir); so’zlarning leksiksemantik guruhi haqidagi (leksikologik); o’zbek tilining to’g’ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so’z yasalishiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo’iadi. Bundan tashqari, o’zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko’nikma va malakalarni ham o’z ichiga oladi. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo’lishi uchun o’quvchilarda o’z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko’nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o’stirish ko’rsatmasi grammatik materialni o’rgatishda o’quvchilarning tilimizdagi har bir so’z turkumi yoki so’z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo’llashni talab etadi, ya’ni grammatik nazariya grammatik to’g’ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o’stirishga amalda tatbiq etish uchun o’rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o’stirish darsning mazmunida va qo’llanilgan vazifalar turlarida o’z aksini topadi.

Grammatik, so’z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o’rganishni nutq o’stirish bilan bog’lash o’quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o’stirish jarayoni ularning tafakkurini o’stirish bilan bog’liq.

Ona tili darsi o’quvchilar taffakurini o’stirish ustida ishlash maqsadiga yo’naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o’rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o’zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o’tkazish tushuniladi. Masalan, “O’zakdosh so’zlar” tushunchasini shakllantirish uchun so’zlarning leksik ma’nosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma’nolarida umumiylikni va ularda bir xil o’zakning mavjudligini) bilish lozim. o’quvchilar tafak-kurini o’stirish uchun o’qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa tur-larini tanlaydi, darsning materialini va uni o’zlashtirishda o’quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

Tilni o’rganish jarayonida o’quvchilarda boshqa ko’pgina o’quv predmetlari uchun umumiy bo’lgan ko’nikmalar (predmetlararo ko’nikmalar) ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi. Pedagogikada bunday predmetlararo ko’nikraalarga

analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasawur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko’nikmalarni o’quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga muvofiq ishlash ularning o’quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga tmkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko’nikmalar bilan predmetlararo ko’nikmalar, birbiridan ajratilmagan holda o’quvtarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o’quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko’nikmalar maktab dasturlari va davlat ta`lim standartida qayd etilgan.

Adabiyot murakkab va ko‘p qirrali o‘quv fanidir. U o‘quvchilarni hayot bilan tanishtiradi, ularda atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini, Vatanga, xalqiga sadoqatli bo‘lish tuyg‘usini rivojlantiradi. Ta’kid-langan sifatlarni o‘quvchilarda shakllantirish vazifasi adabiyot o‘qituvchisi zimmasida bo‘ladi. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘z fanini, maktab va o‘quvchilarni yaxshi bilishi, o‘quvchiga DTS talablari asosida berilishi zarur bilim va ko‘nikma haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi, o‘z fani mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchi shaxsiyatidagi rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan muayyan bir usul va tartibda ish olib borishi zarur.

Shuni ta'kidlash muhimki, «Ona tili va adabiyot» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangiyangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili va adabiyot» darslarining o'rni beqiyosdir. Shuningdek,hozirgi davrda XXI asr pedagogidan nafaqat nazariy bilim balki shu bor bilimni o'quvchilar ongiga samaraliroq usullar orqali yetkazish, berilgan bilimning oson, puxta va tez o'zlashtirilishiga zamin yaratish, o'quvchilar ongida mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va ravonlikni shakllantirish ham talab etilmoqda. Albatta bunday vazifalar innovatsion texnologiyalar, turli xil interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo`lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo`lgan insonlargina jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo`ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. zarur, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganiladi. O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari, nazoratchisi hamdir. O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi. Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi bunday

texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, o‘quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:

1. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxssislari tayyorlash texnologiyasi. – T.: «Nizomiy TGPU». 2000. - 52 b.

2. Haydarova O.Q.Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008.

3. Ibrohimov A. Bizkim, O’zbeklar... T., "Sharq", 1999.

4. Nishonaliyev U. Ta’lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta’limi. 1999. № 6. 28-31 b.

5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000. - 80 b.

6. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash texnologiyalari. Toshkent: 2000 y. - 46 b.

ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА КИТОБАТ САНЪАТИ

Абдуллаев Равшанжон Иномжон ўғли
ЎзР ФА Тарих институти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7607118

Аннотация: Ушбу мақолада Қўқон хонлигида китобат санъатининг равнақ топиши, хонликда мавжуд кутубхоналар ва китобдорлар ҳақидаги айрим мулоҳазалар баён этилган.

Калит сўзлар: Қўқон, китобат, кутубхона, хаттот, китобдор, қоғоз.

Ўрта Осиё хонликлари маданий ҳаётининг ривожланишида китобат санъати муҳим ўрин эгаллайди. Қўлёзма китобларни яратиш ва уларни зийнатлаш билан боғлиқ бўлган ушбу соҳа Қўқон хонлиги мавжуд бўлган даврда ҳам бир қадар равнақ топган эди. Малумки Қўқонда Умархон ҳукмронлиги йилларида илм-фан тараққий этиб, ўзига хос бўлган Қўқон адабий муҳити вужудга келади. Кўплаб мактаб ва мадрасалар бунёд этилади. Ўз навбатида бу жараёнлар хонликда китобларга бўлган эҳтиёжнинг ортишига сабаб бўлади. Шу тариқа хонликда китобат санъати билан боғлиқ бўлган бир қанча соҳалар ривожланиб боради. Аввало китоб тайёрлаш учун зарур ашё қўғоз тайёрлаш ҳунари қарор топди. XVIII асрда Ўрта Осиё давлатларида юз берган сиёсий инқироз ва танглик туфайли бутун Ўрта Осиёда маданий ҳаёт ва унинг муайян қисми бўлган қоғоз ишлаб чиқариш инқирозга юз тутди. Хусусан, турли урушлар, қўзғалонлар, хонликлар ўртасидаги низолар Самақанд қоғозгарлик мактабини таназзулга олиб келди. Аксинча бу даврда сиёсий жиҳатдан барқарор бўлиб бораётган Қўқонда қоғозгарлик ривож топа бошлади. Бу ерга самарқандлик усталар кўчиб ўтдилар. Шу тариқа Қўқон қоғоз ишлаб чиқариш устахоналари бутун Ўрта Осиёда, яъни Туркистонда – Орол денгизидан то Хитой чегараларигача бўлган ҳудудда қоғоз таъминотига эгалик қила бошладилар [1]. Қўқонда тайёрланган қоғоз Ўрта Осиёда машҳур ҳисобланган ва илм аҳли орасида қадрланган. XVIII аср бошларида Қўқонда иккита қоғоз ишлаб чиқариш корхонаси мавжуд бўлиб, уларнинг бири шаҳарнинг “Мўйи Муборак” дарвозаси яқинида, иккинчиси шаҳар яқинидаги Чорку қишлоғида жойлашган эди [2]. Қўқон қоғози ўзининг сифати, чидамлилиги, нафислиги билан алоҳида ажралиб турган. Қўқон қоғози хонлик бозорларининг қадрли маҳсулотларидан бўлган. XIX аср 70-йилларида савдогарлар Қўқон обжувозида 24 варақдан иборат бир даста қоғозни 15 коп. дан олиб, бозорда 20–30 коп.дан сотганлар. Қўқонда мавжуд бўлган икки корхона йилига 150000 варақлик, 2000 руб.га тенг қоғоз ишлаб чиқарган [3].

Сифатли Қўқон қоғозига талабнинг юқорилиги сабабли бухоролик ижод аҳли асосан ушбу қоғоздан фойдаланган ва ҳукмдорлар ҳам ўз мактубларини кўпроқ Қўқон қоғозига битганлар. Хусусан, амир Ҳайдар (1800–1825)нинг 139 варақ, 279 мактубдан иборат Қўқон қоғозига насталиқ хатида ёзилган мактублар тўплами бизнинг давримизгача сақланиб қолган [4].

Қоғоз ишлаб чиқаришнинг йўлга қўйилиши хонликда китобат санатининг ҳам ривожланишига замин яратди. Қўлёзма китоблар бир неча касб эгаларининг ҳамкорликдаги меҳнати натижасида юзага келган. Дастлаб қоғозгар қоғозни маълум бичимда, турли рангда тайёрлаб берган. Бир неча ёзув услубини эгаллаган хаттот эса матнни қоғозга кўчириб чиққан. Хаттотлар ўз ишларига юксак дид билан ёндашганлар. Ўрта Осиёнинг бошқа шаҳарларида бўлгани каби Қўқон шаҳрида ҳам кўплаб истеъдодли хаттотлар бор эди. Улар ўзларига хос хаттотлар мактабини ташкил қилганлар, чунки уларнинг ўз услублари мавжуд бўлиб, бошқа шаҳар хаттотларидан ажралиб турар эдилар. Уларнинг яна бир хусусияти шунда эдики, Қўқон хаттотларининг кўпчилиги ҳам шоир, тарихчи, миниатюрачи эди. Улар ўзларининг асарлари билан Қўқон хаттотлик касбини миллий санъат даражасига кўтардилар [5]. Ана шундай хаттотлардан бири Муҳаммад Латиф бўлиб, у 1813-йили настаълиқ хати билан Навоийнинг “Чор Девон”ини кўчирган. Девон ғоят хушхат, жадваллари зийнатли, зарҳал лавҳалидир [6]. Мирзо Шариф Дабир ҳам ўз даврининг машхур хаттотларидан бўлиб, XIX асрнинг биринчи ярмида яшаган, машҳур Мир Имод каби китобат қилувчи хат устасидир. У 1836 йили Қўқонда Муҳаммад Алихон буйруғи билан Фузулийнинг девонини настаълиқ хатида ниҳоятда гўзал кўчирган. 1837 йилда Фузулийнинг сайланган ғазалларини ҳам жуда ихтимом билан зебо настаълиқ хати билан кўчирган. Кўчирилган ҳар икки саҳифадаги ғазаллар бир доира ичига жойлашган. Доирани қуёш расмига ўхшатиб, нурафшон гуллар билан безаган, олтин ҳал билан зийнатланган. Мирзо Бобокалон Хўқандий Муҳамад Ризо парвоначи Иста-Равшанийнинг ўғли бўлиб, у Абдулвосит Манзур томонидан 1870 йили форс тилида Қўқон хони Худоёрхонга аталиб маснавий тарзида ёзилган “Тазкираи Султоний” номли китобни гўзал настаълиқ хати билан кўчирган. Мир Афзал Ҳўқандий эса Абу Наср Фароҳийнинг “Нисоб ус-Сибён” луғатини гўзал настаълиқ хати билан ҳошиясига олиб кўчирган. Булардан ташқари яна кўплаб хаттотлар номини келтириш мумкин. Шунгдек хаттотлар мактаб ва мадрасалар учун дарслик сифатида қўлланиладиган китобларни ҳам кўчиришар эди.

Хаттотлар томонидан кўчирилган китоблар нақкош ва мусаввирлар қўлига ўтиб, улар китоб саҳифаларига турли нақшлар, асар мазмунидан келиб чиқиб миниатюралар ишлаган, саҳифаларни ҳошиялар билан ўраган. Ўта қимматли қўлёзмалар музаҳҳиб қўлига ҳам топширилган. У саҳифалар,

ҳошияларни зарҳал ранг билан безаган. Бу ишлар битилгандан кейин саҳҳоф(муқовасоз) китобни жилдлаган [7]. Қўқонда муқовасозлик ҳунари ҳам ривожланган бўлиб, XIX асрга оид маълумотларда, “энг яхши муқовасозлар Қўқондадир” дейилган. П.И.Пашино маълумотларига кўра, XIX аср 60-йилларида Қўқонда мураккаб бўлмаган муқовалаш асбоблари тайёрланган ҳамда бундай асбобларни ушбу соҳа бўйича Қўқон билан рақобатчи бўлган Самарқанддан ҳам топиш қийин бўлган. Наманган Қўқон каби муқовалаш ҳунари ривожланган шаҳарлардан бўлиб, бу ерда чарм ва қоғоздан яратилган муқовалар Ўрта Осиёнинг йирик марказлари – Самарқанд ва Хивада тайёрланган муқовалардан қолишмас эди [8].

Қўқон хонлигида китобат санъатининг равнақ топиши, кўплаб қўлёзма китобларнинг яратилиши хонликда кутубхоналарнинг ташкил топишига асос бўлиб хизмат қилди. Манбаларда қайд этилишича Ўрта Осиёнинг бошқа давлатлари каби Қўқон хонлигида ҳам кутубхоналар хон саройи, мадрасалар, масжидлар қошида ташкил этилган эди. Шунингдек бой заминдорлар, маърифатпарвар давлат амалдорлари, айрим вилоятлар ҳокимлари ўз мулкларида шахсий кутубхоналар барпо этганлиги ҳақида маълумотлар учарайди.

Хонликдаги энг йирик кутубхона Қўқон хонларининг сулолавий сарой кутубхонаси эди. Тарихий анъана асосида кутубхона барча маърифатпарвар хонлар томонидан қўлёзма китоблар билан тўлдирилиб борилган. Айниқса Умархон ва унинг рафиқаси Нодирабегим даврида қўлёзма китобларни йиғиш ва уларни кўпайтириш ишига алоҳида аҳамият берилган.

Қўқон хонлигида сарой кутубхонасига алоҳида эътибор берилганлигини хонликнинг сарой бошқарув тизимида китобдор лавозимидаги амалдор фаолият юритганлигидан ҳам билиш мумкин. Хон ўзининг саройи (Ўрда)га эга бўлиб, хонлик ҳудудида шундай унвон ва мансабларни, вазифа ва мартабаларни жорий этганди. Хусусан хонликда ўрта мартабали унвонларга китобдор, рисолачи, баковул, мирзабоши, сармунший кабилар кирар эди [9].

Умархон ҳукмронлиги даврида илк бор китобдор ловозими таъсис этилиб, Мулла Мирза Қаландар Мушриф ушбу лавозимга тайинланган. Мулла Мирза Қаландар Мушрифдан сўнг унинг фарзандлари ҳам китобдорлик мансбида сарой кутубхонасини бошқарганлар. Бу ҳақда манбаларда қуйидагича маълумот учрайди: Муҳаммад Алихон даврида Мирза Айюб Беҳжат сарой кутубхонасига китобдор лавозимига тайинланади. “Мирза Айюб Беҳжат - Мирза Қаландар Мушрифнинг ўғлидур. Булар Исфара қарясинда бўлиб мулкдор, мансабдор кишилар эди. Хон саройида китобдорлик мансаби буларга берилганидан буларнинг авлоди китобдор лақабини ўзларига ифтихор фамилия этиб юритадилар [10].

Хонликда сарой кутубхонасидан ташқари, масжид ва мадрасалар қошида ҳам кутубхоналар фаолияти йўлга қўйилганлиги ҳақида юқорида такидланган эди. Бу хусусида А.А.Семёнов шундай ёзади: Қўқон хонлигининг Қўқон, Андижон, Марғилон, Наманган шаҳарларидаги мадрасаларда, Бухородаги каби бой бўлмаса ҳам, ҳар ҳолда кутубхоналар бор эди”. Ушбу кутубхоналар вақф мулкларидан келадиган даромадлар, шунингдек давлатманд кишиларнинг ҳадялари ҳисобига бойитиб борилган. Шарқ қўлёзма асарлари кутубхонаси Андижон беги (Худоёрхоннинг ўғли) Насриддиннинг саройида ҳам бўлган. Шунинг учун ҳам Қўқон юриши иштирокчиси А.Л.Кун 1875 - йили мумкин қадар кўп китоб, қўлёзма ва хужжатлар йиғиш мақсадида Андижонга келган. Шарқ қўлёзмалари мажмуалари Наманган, Марғилон беклари ҳамда бошқа беклар томонидан ҳам тузилган.

Хулоса қилиб айтганда Қўқон хонлиги даврида Ўрта Осиёда узоқ йиллардан бери ривожланиб келаётган китобат санъати юксалиб, ҳар томонлама равнақ топиб борган. Бу давр китобат санъати намуналари бугунги кунда юртимизнинг ва жаҳоннинг кўплаб музей, кутубхоналарида сақлаб келинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1- Ибрагимов Б., Эсонов З. Фарғона ҳунармандчилик мактаби. – Тошкент: 2010.

2- Федченко А. Оби джуазъ-писчебумажная фабрика в Кокане....

3- Мадраҳимов З Қўқон хонлигида савдо муносабатлари Тарих фанлар номзоди. ...дисс. – Тошкент: 2009.

4- Тилавов Ш. Амир Ҳайдар мактублари тарихий манба сифатида // Шарқшунослик. – Тошкент: 1997. – №8.

5- Исабоева Г. XIX асрда Қўқон хонлигида маданий ҳаёт: Тарих фанлар номзоди. ...дисс. – Тошкент: 2006.

6- Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Фан, 1971.

7- Ахунжанов Э. Кутубхонашунослик, архившунослик, китобшунослик: назарияси ва тарихи. – Тошкент: Тафаккур-Бўстони, 2011

8- Мадраҳимов З Қўқон хонлигида савдо муносабатлари Тарих фанлар номзоди. ...дисс. – Тошкент.: 2009.

9- Воҳидов Ш.Х. XIX аср охири XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши: Тарих фанлари доктори ... дисс. – Т.: 1998. – 71-б.

10- Қайюмов Пўлотжон. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти // Нашрга тайёрловчи Азиз Қаюмов. – Т.: Тамаддун, 2011. – 29-б.

11. O‘G‘Li, A. R. I. (2022). QO ‘QON XONLIGIDA MALIKALAR NOMI BILAN BOG ‘LIQ MADRASALAR. *Science and innovation*, *1*(C4), 222-225.

12. Абдуллаев, Р. (2020). Қўқон адабий муҳити намоёндаси маҳзуннинг ҳаёти ва фаолияти хусусида мулоҳазалар. *Oriental Art and Culture*, (II), 36-40.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ФРАНЦУЗ ШАРҚШУНОСИ Э. ШАВАННҢ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ТУРКЛАР ТАРИХИГА ОИД АЙРИМ МАЪЛУМОТЛАР Жаҳонгир Остонов	4
2.	ENERGETIKA TIZIMI VA ATROF-MUHIT EKOLOGIYASI MUAMMOLARI G.Y.Gadoyeva D.A.Karimova	8
3.	INTERFAOL METODLAR SAMARADORLIGI Madiyarova Shohista Sabirjanovna, Kuljonov Rasulbek Xudoyorovich	11
4.	STYLISTIC FEATURES OF ORATORICAL STYLE Джумабаева Barno Bahadirovna	15
5.	TASVIRDAGI OB'EKTLARNI CHEGARA VA SOHALARINI AJRATISHNING USULLARI VA TAHLILI Muxammadxo‘jaev Isroilxo‘ja Isroilovich	18
6.	HOZIRGI KUNDA AHOLI O`RTASIDA KENG TARQALGAN KIRIYESHKILARNING TOKSIKOLOGIK XUSUSIYATINI O`RGANISH F.A.Usmonova, O.T.Azizov.	21
7.	PECULIARITIES OF STYLISTIC DEVICE OF SIMILE IN I.YUSUPOV’S AND BYRON’S POETRY Pirmagambetova J.K.	24
8.	СИНТЕЗ И СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ НЕКОТОРЫХ 3d-МЕТАЛЛОВ 1,3-ДИБЕНЗИЛХИНАЗОЛИН-2,4-ДИОНА С ЦИНКОМ Каримова ГавхарШовкатжановна	28
9.	COGNITIVE AND SEMANTIC FOUNDATIONS OF PRESUPPOSITION IN THE STORIES OF ERNEST HEMINGWAY AND ABDULLA KAHHAR Sotvoldieva Muyassar Mahammatobbosovna, Yusupova Sabohat A’zamjonovna Sotvoldiyeva Umida Mahammatobbosovn	40
10.	ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍNDA KORRUPCIYAǴA QARSÍ MINEZ-QULÍQTÍ QOSHAMETLEWDIŃ XALÍQARALÍQ-HUQÍQÍY TIYKARLARÍ Tursinbaev Miraddin Dauletova Maryam	43
11.	OZON QATLAMI VA UNING INSONIYAT UCHUN AHAMIYATI Maxmudova Durdona Muxritdinovna	48
12.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA MUZEYLARNING O‘RNI Soyilova Gulshan Adilovna	52
13.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOBXONLIK KO‘NIKMALARINI TARG‘IB QILISH Jumayeva Nafisa Baxtiyorovna	54
14.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHINI SHAKLLANTIRISH Absamatova Shohida Xikmatovna	56
15.	AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDA KOMIL INSON MUAMMOSI Qosimov Ubaydullo Axrorovich	58
16.	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISH Hamidova Nilufar Sayfiddinovna	64

17.	O‘ZBEK TILIDA YUKLAMALAR Xudaybergenova Guliyor Saidnazarovna Sultanova Xolida Bahodirovna	67
18.	“SUHBAT” VA “SINKVEYN” METODLARINING QO‘LLANILISHI Matyakubova Rayxan Tulibayevna Sultanova Muyassar Djumanazarovna	70
19.	ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI Bo‘ronova Xolida	73
20.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH METODIKASI Bo‘ronova Nargiza	75
21.	ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ Матякубова Наргиза Бахтияровна	78
22.	FARIDA AFRO‘Z SHE’RIYATINING MAVZU DOIRASI Saida Kurbanova Polvonnazarova Mashhura	83
23.	SHAVKAT RAHMON IJODIDA PRETSEDENT BIRLIKLARNING ANTROPOSENTRIK TADQIQI Ismatova Mahliyo Ulug‘bek qizi	89
24.	Tursunmurodova Gulsara Muxitdinovna BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	92
25.	Rashidova Sohiba Abdulxamitovna ADABIYOT SAN’ATI INSON YARATGAN BETAKROR MO‘JIZA	95
26.	GEOGRAFIYA FANI HAQIDA BILASIZMI? Sultanova Xasiyat Aminbayevna Ròzimova Mahinur Fahriddinovna	98
27.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNING AHAMIYATI Radjapova Oksana Aleksandrovna	101
28.	BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘YINLARNING AHAMIYATI Rustamova Nasiba Maxmudovna	104
29.	MUSIQA VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI Atajonova Shohista Olimboyevna Baltayeva Feruza Rustamovna	107
30.	SHOIRU, SHE'RU, SHUUR-ERKIN VOHIDOV LIRIKASI Jo‘rayeva Nargiza Tilovmurodovna	110
31.	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA TA’LIMIY VOSITALARDAN FOYDALANISH Mavlyanova Shahodat Djambulovna	113
32.	FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li Normamatov Azamat Hayrulla o‘g‘li	116
33.	QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘INING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI G‘aybullayev Sarvar Xayrullayev Nodirbek	121
34.	TALABA YOSHLARNI SOG‘LOMLASHTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHQLARNING AHAMIYATI Qodirov Abubakr Rashodjon o‘g‘li	127

35.	BOLANING RIVOJLANISHIDA TA’LIM JARAYONI BILAN JISMONIY TARBIYA BIRLIGI VA AHAMIYATI Tuxtasinov Bobir Maxammadali o‘g‘li	130
36.	BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH MUAMMOLARI Karimova Gulhayo Botirjon qizi	133
37.	JISMONIY MADANIYATNI SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI Latipova Nigoraxon Isakovna	138
38.	BOLANING RIVOJLANISHIDA TA’LIM JARAYONI BILAN JISMONIY TARBIYA BIRLIGI VA AHAMIYATI Tuxtasinov Bobir Maxammadali o‘g‘li	141
39.	SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNI OILADAGI O‘RNI Sharipov Maxmud Rasulovich	144
40.	QARAQALPAQ TILINDEGI FRAZEOLOGIZMLERDE ARALAS QOLLANILǴAN SANLIQLAR Atabaeva Gózzal	147
41.	ZEBO MIRZONING DARDGA YO‘G‘RILGAN ISHQ SATRLARI Matchanova Mastura	151
42.	MAKTABGACHA TA’LIMDA AQLIY TARBIYANING VAZIFASI Jamalova Nigarxan Kidirbaevna-	156
43.	MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNING IZCHILLIGI Iqlasova Elmira	159
44.	YUQORI SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL USULARDAN FOYDALANISH VA “OLTIN NISBAT” QOIDASI Abduqayumova Nilufar Jaloldinovna	161
45.	NEFT YO‘LDOSH GAZLARINI KATALITIK PIROLIZLAB NANOUGLEROD OLISH REAKSIYASI TEZLIGIGA TURLI OMILLARNING TA’SIRI Tavbayeva Zarina Rustam qizi Shukurov Jasur Xoshimovich	164
46.	ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING BILIMINI OSHIRISHDA TURLI XIL USULLARDAN FOYDALANISH Malikova Muslima	176
47.	ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА КИТОБАТ САНЪАТИ Абдуллаев Равшанжон Иномжон ўғли	180

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 188 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022